

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
ANDIJON FILIALI**

“TASDIQLAYMAN”
TDAU Andijon filiali o'quv ishlari
bo'yicha director o'rinbosari
“ ” M. Atajonov

"GUMANITAR FANLAR" KAFEDRASI

Bilim sohasi: 200000- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq soha


Ta'lim sohasi: 230000-Iqtisod

Ta'lim shakli: Sirtqi ta'lim yo'nalishi

5410500 Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash
texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha)

5232300 Agrosanoatda buxgalteriya hisobi

Dinshunoslik fanidan ma'ruza matni



Andijon-2020

Fanning ma'ruza matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirining 2019 yil 2 noyabrdagi 1023–sonli buyrug'i bilan ma'qullangan namunaviy dastur asosida ishlab chiqildi.

Fanning ma`ruza matni Toshkent Davlat Agrar Universiteti Andijon filiali kengashining 2020 yil “_____” _____dagi _____-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

M.Karimova

TDAU Andijon filiali Agrobiologiya fakul'teti,
“Gumanitar fanlar” kafedrası assistenti

Taqrizchilar:

M.Karimova

Andijon mashinasozlik instituti “Ijtimoiy fanlar”
kafedrası dotsenti

G.Valixonova

TDAU Andijon filiali Agrobiologiya fakul'teti,
“Gumanitar fanlar” kafedrası (Phd) dotsenti

TDAU Andijon filiali, “Agrobiologiya” fakul'teti dekani:

“_____” _____ 2020 yil _____

“Gumanitar fanlar” kafedrası mudiri:

“_____” _____ 2020 yil _____

Kelishildi:

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i:

“_____” _____ 2020 yil _____

O'quv-uslubiy majmua TDAU Andijon filiali Kengashining 2020 yil _____dagi _____-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

O'zbekistonda davlat va din munosabatlari

1.1.Dinshunoslik faniga kirish.

1.2.O'zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabatlari

Globalashuv natijasida ro'y berayotgan millatlar, irqalar, dinlararo muloqotning o'ziga xos ahamiyat kasb etishi kontekstida, dinlarni o'rganish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni damda, Yer kurrasining ba'zi mintaqalarida diniy asosdagi kelishmovchilik o'choqlarining alangalagani, shuningdek, ba'zi noxolis tadqiqotchilar tomonidan dinlar o'rtasidagi to'qnashuv "nazariya"larining ilgari surilishi din va bag'rikenglik masalalari bilan shug'ullanuvchi dinshunoslik fanining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Dunyo xaritasida mavjud mamlakat borki, unda yashovchi xalqlarning o'z dini, urf-odatlar va an'analari mavjud. Ana shu qadriyatlar xalqlarning yurish-turishi, kundalik faoliyati va umuman hayot tarzini belgilashda din asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Dunyo xalqlari tarixini o'rganishda ularning diniy qarashlari, e'tiqod va diniy amaliyotlarini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. "Dinshunoslik" fani ana shu muhim omilni tadqiq etib, tarix bilan bog'liq ravishda tahliliy o'rganadi.

"Dinshunoslik" fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga buddaviylik, xristianlik, islom kabi jahon dinlari bilan bir qatorda urug'-qabila dinlari va alohida millatlarga xos milliy dinlar tarixini zamonaviy ilmiy kontseptsiyalar asosida chuqurroq o'rgatish. Shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonda dinga nisbatan munosabatning tubdan o'zgarganligi, diniy qadriyatlarni tiklash, diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish yo'lida qilinayotgan muhim o'zgarishlar, yangiliklar haqida ma'lumotlarni berish ko'zda tutilgan.

Mustaqillik davrida milliy va diniy qadriyatlarning xalqqa qaytarilishi bilan birga jahonda mavjud xalqlarning dinlari haqida keng ma'lumot olish, ularning qadriyatlarini o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Natijada dinshunoslik fani izchillikda rivojlana boshladi. Bunda alloma ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosni o'rganish bilan birga shu kunga qadar chet ellarda amalga oshirilgan izlanish va tadqiqotlarning natijalaridan unumli foydalanish zarurati paydo bo'ldi.

"Dinshunoslik" fani dinni tanqid qilish yoki ko'r-ko'rona maqtash maqsadida emas, balki dinni tarixiylik, xolislik asosida turli xalqlar hayotida tutgan o'rnini ilmiy jihatdan, ma'naviy hayotning bir bo'lagi sifatida yondoshib o'rganadi.

"Dinshunoslik" fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- dinning jamiyatga ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy ta'siri haqida bilimlar berish;
- ibtidoiy diniy tasavvurlar, milliy va jahon dinlari ta'limotlari haqida ma'lumot berish;
- dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati taraqqiyotidagi turli tarixiy bosqichlarda tutgan mavqei haqida tushuncha berish;

-jamiyatni ma'naviy jihatdan kamol toptirishda diniy qadriyatlarning ahamiyatini yoritish;

-dunyoviy davlat va dinning o'zaro munosabatlarini yoritib berish;

-missionerlik va prozelitizmning mohiyati xususida tushuncha berish;

-diniy aqidaparastlik, ekstremizm va fanatizm kabi salbiy illatlar mohiyatini yoritish va ularga qarshi g'oyaviy immunitetni shakllantirish;

-kibermakon va unda din omili xususida ma'lumot berish;

-O'zbekiston Respublikasida dinga nisbatan munosabatning tubdan o'zgarganligi, xususan, islom dini qadriyatlarini tiklash yo'lida qilinayotgan ishlar haqida keng tasavvur hosil qilish.

“Dinshunoslik”fanining amaliy ahamiyati shundaki, u talabalarda islom va boshqa dinlar qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ularni qadrlash, boshqa dinlarga va ularning vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalaydi.

“Dinshunoslik fani bo'yicha talabalarning bilimi, uquvi va ko'nikmasi uchun quyidagi muhim talab, vazifalar qo'yilgan:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning o'zbek xalqining ma'naviy merosi, dini, jumladan, islom dini qadriyatlari, milliy g'oya, milliy mafkura haqida bildirgan fikr va mulohazalar, ta'rif va tavsiflarni mazkur fanni o'rganishda nazariy asos qilib olish;

Ikkinchidan, O'zbekiston Konstitutsiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonun va boshqa qonuniy hujjatlarda din masalasi yuzasidan belgilangan inson huquqlari, turli diniy tashkilotlar huquqlari va majburiyatlarini bilish;

Uchinchidan, “Dinshunoslik” asosiy fanlar qatorida o'qitilishi, din, dindorlar va diniy tashkilotlarga nisbatan davlat tomonidan adolatli siyosat o'rnatilishi, fuqarolar uchun vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishi mustaqillik sharofati ekanligini tushunib yetish;

To'rtinchidan, qonunga hurmat hissini, faqat o'zining emas, balki boshqalarning ham diniy his-tuyg'ulari bilan hisoblashish lozimligini, o'z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o'tkazish, turli norasmiy diniy mazhab va guruhlariga jalb etish g'ayriqonuniy xatti-harakat ekanligini, jamoat joylarida diniy masalalarda zo'ravonlik, mutaassiblikka, agressivlikka yo'l qo'yish mumkin emasligini chuqur tushunib yetish;

Beshinchidan, “Dinshunoslik” fanining boshqa gumanitar fanlar bilan birga rivojlanishini nazarda tutgan holda, o'zi qo'lga kiritgan soha yutuqlaridan ushbu fanni o'zlashtirishda foydalanish.

Dinshunoslikning tarix, falsafa, psixologiya, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan mustahkam bog'liqligi dinshunoslik nazariyasini boyitishga xizmat qiladi.

Dinshunoslik fani suyanuvchi ilm turlaridan biri bu – tarixdir. Tarix, makon va zamon tayin qilgan holda o'tmishdagi voqea–hodisalarni o'rganuvchi bir ilm turi bo'lishi bilan birga, moziy va hozirdagi dinlarning tarixiy shakllanishi jihatidan Dinlari tarixiga yaqindan ko'makchi bo'ladi.

Dinni o'rganishda falsafa ilmining alohida o'rni bor, boshqa din ilmlaridan ajratib turuvchi jihat bu, falsafa ilmidagi hukm berish, xulosa yasash xususiyatidir. Ana shu tomonlama ular yasagan xulosa va erishgan natijalardan keng miqyosda foydalanadi va bu natijalar sababli bir qancha hukmlarni chiqaradi.

Psixologiya, avvalo, insonga oid bo'lgan hayotning turli jihatlarini psixologik jihatdan o'rganadi. Dinshunoslik fanida psixologiya dinning psixologik jihatini, dinning inson ruhidagi asosiy xususiyatlari xatti–harakatlarga bo'lgan ta'sirini ko'rsatib beradi.

Sotsiologiya jamiyat munosabatlarini, bu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi voqea–hodisalarni o'rganadi. Shu tufayli bu ilm sohasi ijtimoiy diniy muassasalarni, dinning davlat, xalq, oilaga nisbatan munosabatini, din sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy voqea–hodisalarni, turli din jamoalarining jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarini asosiy mavzu sifatida tadqiq qiladi.

Dinning mohiyati turlicha izohlansada, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi. Darhaqiqat, din ishonmoq; tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir.

Din arabcha so'z ekani barchaga ma'lum. Lekin din tushunchasini to'liq anglab olish uchun boshqa tillardagi ma'nolarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Arab tilidagi manbalarda qayd etilishicha, din so'zi (“dana”) fe'ldan yasalgan bo'lib, “kingadir bo'ysunmok, bo'yin egmoq, itoat etmoq kabi ma'nolarni bildiradi. Zardushtiylarning manbasi “Avesto”da “din” sifatida “dena”, “din” so'zlari ishlatilib, “yo'l, mazhab, marosim ma'nolarini anglatgan.

Rus tilida din ma'nosini anglatadigan «religiya» so'zi dindorlik, taqvodorlik, xudojuylik, ibodat, topinish-sig'inish va u bilan bog'liq diniy marosimlar» degan ma'nolarni anglatadi.

Dinlar tarixi, ular bilan bog'liq jarayonlar, dinning inson hayotining turli jabhalari bilan o'zaro ta'sirlashuvini o'rganuvchi fan “Dinshunoslik” deb ataladi. Dinshunoslik barcha ijtimoiy fanlar qatori o'zining o'rganish ob'ektiga ega. U dinning paydo bo'lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyutsiyasini ilmiy jihatdan o'rganadi.

Dinning funktsiyalariga to'xtalishdan oldin, “funktsiya” va “rol” tushunchasini farqlash lozim, ular bir biri bilan bog'lik, lekin o'xshash emas. Funktsiya - bu dinning jamiyatdagi harakat usuli bo'lsa, rol - bu funktsiyani bajarish natijalarining jami yig'indisidir. Dinning bir nechta funktsiyalari mavjud:

dunyoqarashni shakllantirish, kompensator, kommunikativ, regulativ, integrallash-dezintegrallash, madaniyatni targ'ib qilish (kulturotranslyatsiya), legitimallashtirish-legitimirlarni olib tashlash.

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi dinda inson, jamiyat, tabiatga nisbatan aniq bir qarashlarning turlari mavjudligi tufayli amalga oshiriladi. Din hayotni (mavjudotni) ma'lum nuqtai nazardan tushunish (dunyoni to'la va undagi ayrim hodisa va jarayonlarni alohida tushuntirish), dunyoni kuzatish (his qilish va idrok etish orqali dunyoni aks ettirish), dunyoni his qilish (hissiy qabul qilish yoki rad etish), dunyoviy munosabat (baho berish) va hokazolarni o'z ichiga oladi. Diniy dunyoqarash Yaratganga nisbatan eng oliy tuyg'u va mezonlarni belgilaydi. Bunda mavjud borliqqa tushuncha berish dinga ishonganlar uchun turli cheklashlar doirasidan chiqish imkonini beradi, yorqin kelajak, huzur-halovatga erishish uchun umid, azob-uqubat, baxtsizlik, yolg'izlik, tushkunlikdan ozod bo'lishni qo'llab-quvvatlaydi.

Har bir din o'z e'tiqod qiluvchilari uchun to'ldiruvchilik, tasalli beruvchilik – kompensatorlik vazifasini bajaradi. Ruhiy erkinlik orqali real jabr-zulm bartaraf etiladi; ijtimoiy guruhlar gunoxga botish va azob chekish borasida teng huquqli bo'ladi; diniy tashkilotlar tomonidan beriladigan xayr-ehsonlar, mehr-shafqat, tarbiya, daromadlarni qayta taqsimlash mazlumlarning musibatini yengillashtiradi va x.k. Umuman olganda, ruhiy zarbalarni bartaraf etish, tasalli berish, ma'naviy ozuqa olish kabi kompensatsiyaning psixologik aspektlari muhim ahamiyatga egadir.

Kommunikativlik funksiyasi muloqotni ta'minlaydi, axborot almashish, o'zaro ta'sir ko'rsatish, insonni inson tomonidan idrok etish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Diniy ong ikki xil muloqotni belgilaydi: dindorlarning o'zaro birlari bilan muloqoti va dindorlarning ibodat, namoz, meditatsiya, maxfiy qarashlar paytidagi mediator va vositachilari tomonidan gipostazir jonozotlar (xudo, farishta, o'lganlarning ruhi, avliyolar va b.) bilan muloqoti.

Har bir din o'z qavmlari turmushini tartibga solib nazorat qiluvchilik – reguliatorlik vazifasini bajaradi. Regulativlik funksiyasi ma'lum bir g'oyalar, qadriyatlar, yul-yuriklar, stereotip qoliplar, fikrlar, an'analar, rusumlar, institutlar orqali individ, guruh va jamoalarning faoliyati, munosabatlari, ongi va ahloqini boshqarishdan iborat. Ayniqsa, me'yorlar tizimi (diniy huquq, ahloq va h.k.), nazorat (qoidalar bajarilishini kuzatish), rag'batlantirish va jazo berish (xaqiqiy va o'limdan keyin taqdirlanishiga va'da berish) muhim ahamiyatga ega.

Integratsion-dezintegratsion funksiyasi individ, guruh va institutlarni bir tomondan birlashtiradi, boshqa tomondan ularni ajratadi. Integratsiya shaxslar, ayrim ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, bir butun jamiyatdagi barqarorlik va chidamlilikni saqlasa, dezintegratsiya uni zaiflashishiga olib keladi. Integratsion

funktsiya ma'lum bir ma'noda yagona diniy e'tiqod mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Agar shaxslarning diniy ongi va xulq-atvorida bir-biriga muvofiq bo'lmagan g'oyalar, ijtimoiy guruh va jamiyatda bir-biriga qarama-qarshi konfessiyalar paydo bo'lsa, dinning funktsiyasi dezintegratsion bo'ladi.

Madaniyatni targ'ib qilish funktsiyasi oldin madaniyatning ma'lum bir qatlamlari - yozuv, kitob bosish, san'atning umuman rivojlanishiga yordam bergan bo'lsa, hozirda ba'zi madaniy fenomenlarni rag'batlantirib, ba'zilarini inkor etgan holda diniy-madaniy kadriyatlarni saqlash va ko'paytirish, ilmiy-ma'naviy merosni nasldan naslga qoldirish vazifalarini bajaradi.

Din qonunlashtiruvchilik – legitimlovchilik funktsiyasini ham bajaradi. Dinning bu funktsiyasi nazariy asosini amerikalik sotsiolog T.Parsons ishlab chiqqan. Uning fikricha, “har qanday ijtimoiy tizim muayyan cheklovlersiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo'lgan munosabatni belgilaydi”.

Dinlarni o'rganish uzoq tarixga ega. Har bir inson yon-atrofidagilarning e'tiqodi, kaysi dinga mansubligiga qiziqadi, ular haqida bilishni istaydi. Bu boradagi ilk ma'lumotlarni Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Ulardan eng mashhuri “tarix otasi” nomini olgan Gerodot (mil. avv. V asr) o'zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma'lumotlar keltirgan.

Islom olamida ham dinlarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar uzoq tarixga borib taqaladi. Milodiy VII-VIII asrlardayoq diniy tortishuv (munozara)larni o'z ichiga olgan “maqola”lar, VIII -IX asrlardan e'tiboran esa boshqa dinlarga “raddiya”lar yozila boshlangan.

Keyingi asrlardan esa “al-Firak” (Firqalar), “ar-Radd” (Raddiya), “ad-Diyonot” (Dinlar) va “al-Milal” (Xalqlar) yo'nalishidagi adabiyotlar vujudga kelgan. “Ad-Diyonot” (Dinlar) yo'nalishida yozilgan ilk asar Hasan ibn Muso an-Navbaxtiyning (vaf. 910) “al-Aro' vad-diyonot” (E'tiqodlar va dinlar) kitobi hisoblanadi. Keyinchalik Mas'udiy (957) o'zining “ad-Diyonot” (Dinlar), Masbihiy (1029) “Darkul bug'yati fiy vasfid diyonoti val ibodoti” (Dinlar va e'tiqodlar vasfida maqsad me'yori) kitoblarini yozganlar. Shuningdek Beruniyning (973-1048) “Tahqiqun ma lilhind min maqulatin, maqbulatin fil aqli av marzulatin” (Aqlga maqbul yoki noma'qul bo'lgan Hindistonga oid izlanishlardan) nomli kitobi xam shular sirasiga kiradi.

“Al-Firaq” (Firqalar) yo'nalishida yozilgan kitoblarga Abu Mansur Abdulqodir al-Bag'dodiyning (vaf. 1038) “al-Farq baynal-firaq” (Firqalar orasidagi farq) asari hamda Abul-Maoliy Muhammad ibn Ubaydullohning (vaf. 1092) “Baynal-adyon” (Dinlar orasida) asarlarini kiritish mumkin. “Al-

Milal"yunalishida Qozi Abu Bakr Baqilloniyning (vaf. 1012) "al—Milal van—nixel" (Dinlar va xalqlar), Abu Muhammad Ali Ibn Xazmning (vaf. 1064) "Kitobul-fasl fil-milal val-axvoi van—nihal" (Dinlar, havo va xalqlar haqida ajraluvchi kitob), Abul-Fatx Muhammad ibn Abdulkarim ash-Shahristoniyning (vaf. 1183) "al-Milal van—nihal" asarlarini sanash mumkin.

Islom olamida qiyosiy dinshunoslik sohasida ham salmoqli ishlar qilingan. Ulardan Abu Rayhon Beruniyning "al-Osorul boqiya" (Boqiy asarlar), Ibn Nadimning (vaf. 990) "al-Fixrist" (Mundarija), Muhammad ibn al-Xuzaylning (vaf. 840) "Kitobul-Majus va kitobussanaviya" (Majusiylilik va ko'pxudolilik kitobi), AbulAbbos Ahmad ibn Muhammad as-Saraxsiyning (vaf. 899) "Risola fi vasfi mazohibis-sobiyn" (Sobiylarning mazhablari vasfi haqida risola) asarlarini sanab o'tish mumkin.

Din muammolariga xos dastlabki g'oyalar Markaziy Osiyoda -deizm, panteizm va boshkalar, bu o'lkada yashagan, ijod qilgan ulug' allomalar Muhammad Muso Xorazmiy, Axmad Farg'oni, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning "Ikki haqiqat" ta'limotida olg'a surilgan edi. XVII asrda Boburning nabirasi Shoh Akbar, so'ngra XVIII asrda frantsuz faylasuflarining dinga, diniy tashkilotlarga munosabatlari XIX asrda ilmiy dinshunoslik doirasida yangi oqim, yo'nalish va nazariyalar yuzaga kelishiga katta turtki bo'lgan. Binobarin, XIX asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. va V. Grimm, M.Myuller); antropologik maktab (L.Feyerbax) va boshqa maktablar paydo bo'lgan. XX asrda dinshunoslik yanada yangi nazariyalar bilan boyigan. Bukda shveytsariyalik psixolog K.Yung va ayniqsa, frantsuz sotsiologi E.Dyurkgeymning "kollektiv ong" haqidagi ta'limoti diqqatga sazovordir.

Ammo o'sha davr dinshunosligi dinga o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon etar ekan, bu qarashlari diniy tashkilotlar manfaatlari bilan bog'lanmagan, mafkuraviy jihatdan betaraf qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan. Bu urinishlarni "asoslash" da turli falsafiy hamda ijtimoiy nazariyalardan foydalangan. Amalda esa ilohiyotga ko'proq yondashgan.

XIX asr o'rtalarida dinshunoslik fani din falsafasidan ajralib chiqdi. Dinni empirik o'rganilishi diniy yodgorliklarning tadqiq etilishiga turtki bo'ldi. Mifologik maktab asoschisi M. Myuller bu borada sistematik nashrlar e'lon qildi. U dinni filologik tadqiq etish, yo'q bo'lib ketgan dinlarni ularning yodgorliklariga qarab aniqlash va buning uchun dinni qiyosiy o'rganish uslubini ilgari surdi. Myuller dinning asosida ibtidoiy insonning tabiat haqidagi qarashlari yotadi, deb hisoblab, dinning naturalistik nazariyasini ilgari surdi. Uning fikricha, din ibtidoiy naturfilosofiya edi. Dinning boshlang'ich elementi mif, dinning vazifasi esa mif qahramonlarining haqiqatini aniqlash deb hisobladi. Dinshunoslik sohasida

mifologik maktab XIX asrning oxirgi choragiga qadar hukmronlik qildi. Naturalistik qarashlarning ta'siri keyinroq ham, masalan, Frezer asarida ("The Worship of Nature", L., 1926) o'z aksini topdi. Naturalistik qarash turlaridan biri dinning astral nazariyasi bo'lib, unga ko'ra diniy obraz va miflarda samoviy jismlarning harakati o'z aksini topgan. Bu nazariyaga XVIII asrda asos solingan bo'lib, XX asr boshlarida ham uning yetarlicha tarafdorlari bor edi (G. Vinkler, E. Shtuken, A. Nemoevskiy).

Dinshunoslik taraqqiyotining yangi bosqichi dinning ilk shakllarini o'rganuvchi ingliz antropologik maktabining ishlari bilan bog'liq. Bu tadqiqotlar E. Taylorni 1867 yilda animizm kontseptsiyasiga olib keldi. ("Pervobytnaya kul'tura". V. 1-2, L. 1871; rus. per. M., 1939.). Taylor, shuningdek Spenser va Lebbok dinga "insonning elementar tajribalarini (uyqu, o'lim va hokazo) noto'g'ri talqin qilish oqibatida vujudga kelgan ibtidoiy odam aqliy faoliyatining mevasi bo'lgan ibtidoiy gnoseologiya" sifatida qaradilar. Taylorning fikriga ko'ra, kul't diniy qarashlardan hosil bo'lgan narsa bo'lib, keyinroq paydo bo'lgan. Din tarixi evolyutsiya tushunchasini qo'llab Taylor va Spenser dindan avvalgi davr bor deb hisoblaydilar. Animistik qarashlarda esa keyinroq undan barcha mavjud dinlar kelib chiqqan dinning minimumini ko'rdilar. Keng, etnografik materialga asoslangan animizm teoriyasi XIX asrning oxirgi choragida dinni o'rganishda hukmronlik qildi. Rossiyada uning eng yirik namoyandasi L.Ya. Shternberg edi. Ammo XIX asr oxiri XX asr boshlarida bir qator muallif animizmni tanqid qilib chiqdilar.

Robertson-Smitt o'zining "Somiylar dini haqida" leksiylarida (W.H. Smith, Lectures on the Religion of the Semites, Edin., 1889) ta'kidlashicha, eng qadimiy dinlar faoliyat sistemasi yoki kul'tni ifodalagan, diniy ritualni belgilaydigan e'tiqod va mif esa keyinchalik shakllangan. 1900 yilda Marett (1866-1945) shunday g'oyani ilgari surdiki, unga ko'ra, animizmdan oldin animatizmning yanada qadimiyroq bosqichi bo'lgan va u davrda hali ruhlar va shaxsiy ruh haqida tasavvurlar bo'lmagan. Avval diniy-magik harakatlar impulsiv reaksiya xarakteriga ega bo'lgan, dinning g'oyaviy va aqidaviy shakllari keyinchalik uning hissiy substratidan kelib chiqqan. Marettning qarashlariga nemis din tadqiqotchilari Pryors va Firkandt hamda rus tadqiqotchisi V. Bogoraz-Tanlar ancha yaqin edilar. A. Lang (1844-1912) ibtidoiy xalqlarning dinini mifologiyaga ham animizmga ham kiritish mumkin emas, deb dinda evolyutsionizm g'oyasiga qarshi chiqdi (A. Lang, Myth, ritual and religion, v. 1-2, L., 1887). Avstraliyaliklar dinida antropomorf xudolar haqida rivojlangan qarashlarni topgan Lang pramonoteizm g'oyasiga juda yaqinlashdi ("The making of Religion", L., 1898.). Bu g'oyadan keyinchalik V. Shmidtning klerikal, madaniy-tarixiy maktabi keng foydalandi. XX asr boshida Vundt animistik nazariyani qayta ko'rib chiqishga urindi va o'zining

assotsiativ psixologiyasi yordamida din ibtidoiy insonning fikriy faoliyati emas, balki fantaziyaviy faoliyatining natijasi, degan xulosaga keldi. Vundt diniy-mifologik tasavvurlar bilan bir qatorda ruhoniy ruh, yanada qadimiyroq bo'lgan, insonning tashqi qiyofasidan ajralmaydigan, hayvonga ko'chib o'ta oladigan jismoniy ruh haqidagi tasavvurlarga qarab totemizm animizmdan kelib chiqqan degan fikrga keldi.

Ingliz antropologik maktabining yirik namoyandasi Frezer ham Taylor kabi dinning paydo bo'lishiga ratsionalistik yondashib, din uch ruhoniy taraqqiyot bosqichidan biri deb hisoblab, din va magiya orasida tub farq bor deb qat'iy fikr bildirdi. Dinning manbaini, Frezer, magik faoliyatning kuchsizligi ko'rinib qolganda va yordamsizlik hissiyoti tug'ilib, nazorat qilib bo'lmaydigan tabiat kuchlarini personifikatsiya qilishda deb bildi.

Keyinchalik etnologik maktablar diniy faoliyat, ritualning diniy nazariyasidan ko'ra birlamchi ekanligini ta'kidlab, evolyutsionizm printsiplarini tanqid qilib, dinning "gnoseologik" nazariyasini inkor etib chiqdilar. Ular orasida Amerika kultur-antropologiya maktabi (Boas, Kryober, R. Benedikt, Kardiner va b.), B. Malinovskiy va Radkliff-Braunning funktsional maktabi alohida nufuzga ega edi. Ular evolyutsionizm nazariyasiga hamda bir-birlariga qarshi fikr bildirdilar. Malinovskiy dinning vazifasi kritik hayotiy vaziyatlarda noilojlik va qo'rquvni yengish deb bilsa, Radkliff-Braun unga qarshi o'laroq diniy marosim va unga bog'liq e'tiqodlarni qo'rquv manbai deb hisobladi. Radkliff-Braun Dyurkheymga yaqinlashib dinning filosofiyasi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash deb hisobladi. Ikkala nazariya bir-biridan farq qilsada, shu narsada fikrlar bir xilki, dinning kelib chiqishi muammosi yechilmas va yechishning keragi yo'q deb hisoblandi.

Dinshunoslar turli ilm-fan soha vakillari bo'lib, dinlarni o'zlari xos bo'lgan ilm yo'nalishi nuqtai nazaridan o'rganib, turlicha yondashganlar. Shuning uchun ular o'rtasida ba'zi tafovutlar bo'lishi tabiiy. Masalan, din tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar dinlarning yuzaga kelish tarixiga ko'ra davriy jihatdan yondashib tadqiq etganlar. Boshqa bir guruh olimlar dinlarni paydo bo'lgan va tarqalgan mintaqalariga ko'ra tadqiq etganlar. Ayrim dinshunoslar diniy nuqtai nazardan yondashib o'rganganlar. Dinlarni tasniflashda mintaqaviy yondashuvning o'ziga xos jihati shundaki, mintaqadagi aynan bir dinning ikkinchi dinga ta'siri va o'zaro qorishuvi yoki turli mintaqada dinlarining o'zaro o'xshash jihatlari yoki farqli tomonlarini o'rganishdan iborat. Dinlarni quyidagi omillar asosida tasnifga bo'lish mumkin:

1. Qit'alarda tarqalishiga ko'ra Afrika, Osiyo, Yevropa, Amerika va Avstraliya dinlari tarzida tasniflash. Birok bu unchalik munosib tasnif emas. Chunki, shunday dinlar ham borki, ular bir necha qit'alarga tarqalgan. Xususan,

islom va xristianlik deyarli barcha qit'alarda mavjud. Shuningdek, ba'zi qit'alarda ozchilikni tashkil etuvchi boshqa dinlar vakillari ham bo'lishi bilan birga, deyarli aksar aholi bir dinga e'tiqod qiladi. Masalan, Yevropada asosan xristianlik ko'p tarqalgan, islom dini Amerikaga nisbatan Afrikada ko'proq tarqalgan. Osiyo qit'asida islom, hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik, sintoiylik dinlari aralash tarqalgan. Ba'zan bir qit'ada paydo bo'lgan din boshqa qit'ada keng yoyilgan. Masalan, xristianlik Falastinda vujudga kelgan bo'lsada, asosan Osiyo qit'asidan tashqarida tarqaldi.

2. Jo'g'rofiy mintaqasiga ko'ra Sharq dinlari va G'arb dinlari tarzida tasniflash. Bu dunyoning qutblarga bo'linishiga monand siyosiy va madaniy tafovutni aks ettiruvchi keng jo'g'rofiy tasnifdir. Sharq dinlariga hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik, sintoiylik, daolik va boshqa Uzoq Sharq dinlari kiritiladi.

G'arb dinlariga yahudiylik, xristianlik va islom dinlari kiritiladi. Aslida islom dinini G'arb yoki Sharq dini deb bo'lmaydi. U jo'g'rofiy jihatdan Sharqda yuzaga kelib, G'arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Yahudiylik va xristianlik ham aslida Sharq dinlari bo'lib, Yaqin Sharqda vujudga kelgan va G'arb mamlakatlarida keng yoyilgan.

3. Qadimgi dinlar siyosiy mintaqalarga ko'ra Mesopotamiya dinlari, Suriya mintaqasi dinlari, Kichik Osiyo yoki Onaduli dinlari, Fors dinlari tarzida tasniflanadi.

4. Dinlarning mamlakatlar hududlariga ko'ra Falastin dinlari, Arabiston yarimoroli dinlari, Meksika dinlari, hind dinlari, Xitoy dinlari, Yapon dinlari tarzida tasniflanadi. Uzoq Sharq dinlari kabi ba'zi mintaqa dinlarini diniy mavzusiga ko'ra aniq belgilash imkoni bo'lmagan ko'p hollarda jo'g'rofiy tasnif qulay ilmiy tasnifdir. Masalan, yahudiylik, xristianlik va islom dinlarini tavhid (yakkaxudolik, monoteizm) asosida umumlashtirilsa, Uzoq Sharq dinlarini yagona diniy tushuncha asosida umumlashtirib bulmaydi. Bunday holatda muammoning yechimi sifatida jo'g'rofiy tasnifga murojat qilish mumkin. Dinlar unga e'tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo'lishidan qat'i nazar, ularni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Chunki har qanday tasnif ma'lum bir jihatga e'tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi.

Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

- tarixiy-geografik jihatga ko'ra;
- etnik jihatga ko'ra;
- e'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra;
- hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o'lik diniy tizimlar) va x.k.

Bugungi kunda dinshunoslikka bag'ishlangan adabiyotlarda dinlarning asosan quyidagi tasnifi keltiriladi:

1) primitiv diniy tasavvurlar (urug'-qabila dinlari) - totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrigar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib kolgan;

2) millat dinlari - ma'lum millatga xos bulib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yaxudiy millatiga xos), hinduizm (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari - dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Ular safiga odatda buddizm, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar. Bundan tashqari dinlar ta'limotiga ko'ra monoteistik - yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik - ko'pxudolik (xinduizm, konfutsiychilik) dinlari va h-k.ga bo'linadi.

“Inson qachondan beri Xudoga ishonib keladi?”, “Din qachon paydo bo'ldi?” kabi savollar doimo olimlarni qiziqtirib, o'ylantirib kelgan. Mazkur izlanishlar necha asrlardan beri davom etib kelayotgan bo'lsa-da, hali hanuz bu borada bir to'xtamga kelinmagan. Umumiy ma'noda, bugungi kunda fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil qarash mavjud.

Birinchi qarashga ko'ra dinning paydo bo'lishi bevosita insoniyatning yaralishi bilan bog'liq. Xudo ilk insonlarni yaratishi bilan ularga O'zini tanitdi, natijada inson ilk dinga e'tiqod qila boshladi. Bunday qarash fanda “teologik yondashuv” deb nomlanadi. Bugun mavjud bo'lgan har qanday din o'zining tarixini insoniyat yaralishi – ilk inson bilan bog'lashini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, islom dinida – Odam va Havvo, yahudiylik va xristianlikda – Adam va Yeva, zardushtiylikda – Govmard, sintoizmda – imperator Mikado va boshqalar. Mazkur ta'limotlar dinlarning muqaddas manbalarida bayon qilingan.

Teologik yondashuvga ko'ra, turli buyumlarga sig'inish va ko'pxudolik, jumladan animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolilikdan keyin yuzaga kelgan. “Teologiya” atamasi (“deus” – Xudo, “logos” – ta'limot) qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan va dastlab hech qanday falsafiy yukka ega bo'lmagan. “Teologiya” so'zi ilohlar to'g'risidagi dostonlarda qo'llanilgan, bunday asarlarning mualliflarini esa teologlar deb atashgan. Arastu “teologiya” atamasidan falsafaning muayyan qismini belgilash uchun foydalanib, mazkur atamani sharhlashda burilish yasadi. U nazariy falsafani matematika, fizika va teologiyaga ajratdi. Arastu ilohiyot ilmini “birinchi falsafa”, oliy mushohada fani yoki “oliy

falsafa” deb nomladi. U ilohiyot ilmini borliq, uning ibtidosi va mavjudligi sabablari to’g’risidagi fan sifatida belgilab berdi.

Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda “materialistik yondashuv” deb nomlanadi. Mazkur qarashlarning paydo bo’lishi antik davrga borib taqalib, ilk bor qadimgi yunon faylasuflari qarashlarida aks etgan. XVII asrga kelib Yevropada cherkov hokimiyatining susaya boshlashi, hurfikrlilik namoyandalari - din tanqidchilarining paydo bo’lishi, XIX asrning ikkinchi yarmida Charlz Darvin tomonidan “Turlarning kelib chiqishi” (1859) nomli asarning chop etilishi ham turtki bo’ldi. Keyinchalik mazkur qarashlar Avgust Komt va Lyudvig Buxnerlar tomonidan eng cho’qqisiga ko’tarildi. Unga ko’ra din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri, emotsiyalari mahsulidir. Mazkur qarash tarafdorlari fikricha, dinlar soddadan – murakkabga, umumiylikdan – xususiylikka, ko’pxudolikdan – yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolyutsion jarayonni bosib o’tgan. Unga ko’ra, ilk davrdagi ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa sohalari o’ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu nafaqat uning hayoti va faoliyatiga, fe’l-atvoriga, balki uning fikrlash darajasiga, kuchli hayajonlanishiga, tasavvur etishiga, mustahkam, haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarni kashf etishiga ta’sir ko’rsatadi. Uyqu, tush va nafas olish kabi holatlarda tanani boshqaruvchi va o’lim bilan undan ajratib turuvchi, hayot bag’ishlovchi qandaydir kuch mavjudligiga ishongan ajdodlarimiz, mazkur kuch harakat qiluvchi har bir narsa: daryo, quyosh, oy, daraxt kabi mavjudotlarda bor deb tasavvur qilganlar. Natijada, inson qo’rquvi, hurmati, ehtiyoji va zarurati darajasida ularga sig’ina boshlagan.

Materialistik maktab tarafdorlari fikriga ko’ra, qo’rquv dinlarning kelib chiqishida asosiy rol o’ynagan hissiy holatdir. Jumladan, ingliz faylasufi Xerbert Spenser (1820-1903) ham ibtidoiy qabila dinlarining kelib chiqishiga qo’rquv natijasida “ajdodlarga sig’inish” sabab bo’lganligini ta’kidlaydi. Spenser ijtimoiy hisob-kitoblarga suyangen holda, hayot qo’rquvining dinlardagi o’rniga alohida diqqatni tortadi. Bu qo’rquvning ajdodlarga nisbatan ibodatning barcha ko’rinishlari shakllantirganligini va tangrilarning ustun yoki qahramon bo’lgan ajdodlardan tanlanganligi fikrini ilgari suradi; har bir dinda ajdodlarga alohida e’tibor qaratilganligiga ishora qiladi.

Taniqli psixolog Zigmund Freyd (1856-1939) ham dinning kelib chiqishini aynan qo’rquv hissi bilan bog’laydi. Uning fikriga ko’ra, matriarxat davrida o’ziga juft topish uchun yosh yigitlar otalarini o’ldirib, hatto o’z onalariga ham uylanganlar. Vaqt o’tishi bilan o’g’il o’z otasining joniga qasd qilganidan vijdoni qiynalib, otasining ruhi undan qasos olishidan qo’rqib, unga ibodat qila boshlagan. Freyd bu nazariyani “edip kompleksi” deb ataydi.

Maks Myuller (1823-1900) fikriga ko'ra, dinning kelib chiqishi tabiat hodisalarining insonga bergan dahshatidan kelib chiqqan va u "naturalizm" deyiladi. Naturalizm, fizikaviy muhitda uchraydigan quvvat va mavjudotlarning ideallashtirilishi, shaxslashtirilishi va ilohiylashtirilishi demakdir. Ushbu fikrni ilgari surgan Maks Myuller hinduizmning muqaddas kitobi Vedalarga suyanagan. Vedalardagi xudo nomlarining tabiat hodisalari bilan aloqador ekanligi fikrini o'rta tashlagan; misol uchun "Agni"ning "olov", "Dyaus"ning "ko'k" (osmon) ma'nolarini bildirishini, bu so'zdan frantsuzcha "Dieu" (lotincha Deus), ispancha "Dios" (Xudo) so'zlarining kelib chiqqanini ma'lum qilgan. Myuller deyarli barcha dinlarda xudo nomlari, avval olov bo'lishi bilan birga, tabiat hodisalarini bildirishini; tabiat kuchlariga g'ayritabiiy baho berish moyilligini uyg'otganligi va til o'zgarishlari natijasida dinlardagi barcha muqaddas tasavvur va e'tiqodlarning yuzaga kelganligini bildirgan.

"E'tiqod" so'zi arabcha "i'taqada" fe'lidan olingan bo'lib, "ishonch", "komil ishonch", "iymon", "iymonli bo'lish" ma'nolarini anglatadi. Keng ma'noda e'tiqod bu insonning oldida turgan maqsad yoki g'oya haq ekaniga to'la ishonch bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos psixologik holatdir. Ayni vaqtda e'tiqod uchun turli shart-sharoitlar mavjud bo'lmog'i lozim. Umuman olganda, e'tiqod bu – shaxs, guruh va ommani jipslashtiruvchi, odamlarni ijtimoiy hayotning faol a'zosiga aylantiruvchi omildir. Diniy e'tiqod bu ob'ektiv (ya'ni inson irodasidan yuqori turgan) Zotga iymon keltirish, U bilan bevosita muloqotda bo'lish, Undan madad olish, g'aroyib voqea-hodisalarning takror sodir bo'lishi va unga daxldorlik hamda muayyan tasavvur, aqida, muqaddas kitob va payg'ambar, avliyolarga ishonch, demakdir.

Inson e'tiqodsiz yasholmaydi. Insonning insonligi, uning jamiyatdagi o'rni va nufuzi ham ma'lum ma'noda uning e'tiqodi bilan ham belgilanadi.

Insonda e'tiqodning shakllanishi mohiyatan ijtimoiy omillarga bevosita bog'liq deb qaraladi. Bu masalaga e'tiborning ortib borayotganining boisi shundaki, shaxsdagi mafkuraviy immunitetning shakllanishida undagi ezgu g'oya va iymon-e'tiqod muhim ahamiyatga egadir. Agar biz yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma'naviyati boy, mustaqil fikrli va oliyjanob shaxslar bo'lib kamolga yetishadi. Shu ma'noda, shaxs e'tiqodi undagi shunday barqaror va teran fikr, tasavvurlar, bilimlar majmuiki, mafkuraviy dunyoqarash, milliy g'oyalar, bir so'z bilan aytganda, inson ma'naviyati aslida ana shunday e'tiqodlar asosida shakllanadi va yuksalib boradi. Albatta e'tiqod haqida fikr yuritganda ko'r-ko'rona e'tiqod bilan tarixiy va hayotiy tajriba natijasi bo'lgan, bilimga asoslangan e'tiqodni farqlash zarur. Faqat ilmiy bilimga asoslangan e'tiqodgina fikr va mulohazalarning chinligini aniqlashda yetarli asos bo'ladi.

E'tiqodli inson nima qilayotganini, nima uchun aynan shu ishni qilayotganligini juda yaxshi biladi. Shu bois haqiqiy e'tiqod egasi ilmga intiladi, o'z oldiga aniq maqsad qo'yib yashaydi, har tomonlama barkamol bo'lishga tirishadi, yaxshilarga oshno bo'lish, buyuklikka havas uning hayotiy shioriga aylanadi. Haqiqiy e'tiqod sohibi o'zidan oilasiga, farzandlariga, bir so'z bilan aytganda insoniyatga nimadir qoldirishni istab yashaydi. Shuning uchun ham e'tiqod, shaxsdagi jur'at, mardlik, fidoiylilik, iroda, vijdon, qat'iyat, halollik, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlar bilan bog'liqdir.

Dunyoda kuchli e'tiqodga ega bo'lgan kishilar bilan bir qatorda e'tiqodi zaif kishilar ham uchraydi. Qat'iyatsizlik, jur'atsizlik va befarqlik e'tiqodsizlikning asosiy belgilari hisoblanadi. Bunday kishilar boshqalarga ergashib taqlid qilib yashaydilar. Sharoitga qarab goh u tomonga, goh bu tomonga og'ib ketadilar, bunday e'tiqodi zaiflik shaxs kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Diniy e'tiqod esa diniy ongning asosiy elementi sifatida diniy aqidalarga, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarga shakl shubhasiz ishonish hamda ularga amal qilishdir. Diniy e'tiqod ilohiy kuchlarga ishonuvchi kuchlar ongida bo'lgan diniy tasavvurlar, obrazlar majmuasidir. Har qanday diniy ongning negizida diniy e'tiqod yotadi. Tarixga nazar tashlasak dastlab insonlarning primitiv diniy tasavvurlari natijasida urug'- qabila dinlari animizm, totemizm, fetishizm, shamanizm va sehrgarlik shakllandi.

Animizm. Lotin tilida anima – “ruh”, “jon” ma'nolarini anglatadi. Animizm ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk din shaklidir. Animizm 1871 yili ingliz antropologi Edvard Taylor tomonidan diniy qarashlarning ilk shakli sifatida olg'a surilgan. U totemizm bilan bir vaqtda shakllangan. Animizm tabiatning qudratli kuchlari – osmon va yer, quyosh va oy, yomg'ir va shamol momaqaldiraq va chaqmoqlarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Ibtidoiy odamlar tog'lar, daryolar, adir, o'rmonlar, daraxt, xarsang tosh jarliklar ham jonli, sezuvchi va harakat qiluvchi, yaxshilik va yomonlik keltirishi mumkin deb tushunganlar. Qurbonliklar qilib ularning haqqiga duo qilib, marosimlar uyushtirishgan.

Ba'zi antropologlar animizmdan oldin ham diniy qarashlar mavjud bo'lganini da'vo qilib, ular uni “animatizm” deb nomlaydilar. Animatizm bir tomondan narsalarning o'ziga xos g'ayritabiiy kuchga ega ekanligiga, boshqa bir tomondan esa ruhlarning mavjudligiga ishonishdan iborat. Bu nazariyaga ko'ra “ibtidoiy inson” boshqa-boshqa mavjudotlarni shaxs sifatida tanishdan avval, butun bir olamga yoyilgan hayot bag'ishlovchi yakka “Kuch”ni tasavvuriga keltirgan bo'lishi mumkin. Bunday bir tushuncha “mana” fikri bilan qo'llab - quvvatlangan bo'lishi ham ehtimol. “Mana” so'zi g'ayritabiiy, ko'z bilan ko'rinmas kuchni

ifodalash uchun ishlatiluvchi so'z bo'lib, uni ibtidoiy diniy tasavvurga ko'ra kuchli, ta'sirchan yoki jamiyat tomonidan e'tibor bilan qaraluvchi narsalar (hayvonlar, o'simliklar, toshlar) yoki kishilar (qabila raisi, sehrgar, donishmand) da mavjudligiga ishonilgan maxfiy kuchni ifodalash uchun ishlatilgan. Ibtidoiy qabila a'zolari o'zlarini ko'z bilan ko'rinmas kuchlar bilan o'rab olinganliklariga ishonganlar. Bu e'tiqod har bir qabilada o'zgacha nomlar bilan nomlangan.

Teylorning shogirdi bo'lgan R.Marettning 1909 yilda nashr qilgan "Dinning ibtidosi" nomli kitobida birinchi marta izohlangan bu nazariyada dinning kelib chiqishini shaxsiyati mavjud bo'lmagan umumiy dinamik kuchdan qidirish, izlanish kerakligini bildiradi.

Animizm zamonaviy dinlarning asosiy aqidaviy qismini tashkil etadi. Jahon dinlarida ham ruhlar haqidagi ta'limot mavjud.

Insoniyatning qadimiy hayot tarzi, qiyinchiliklari, muammolari, orzu-istaklari mifologik obrazlar va afsonalarda o'z aksini topgan. Mavjud voqelik insonning ijodi bilan birga uning hayot tarzi, diniy qarashlari, urf-odatlariga ham ta'sir ko'rsatmay qolmagan. Turli xalq va qabilalarning hayotida asosiy o'rin tutgan hayvon yoki buyumning ilohiylashtirilishi natijasida fetishizm, totemizm, animizm kabi din shakllari yuzaga keldi. Kosmogonik syujetlar ibtidoiy mifologiyada katta o'rin egallagan. Ya'ni yer va osmon, quyosh va oy, o'simlik va hayvonot olamining inson hayotidagi o'rni diniy tasavvurlarda namoyon bo'lgan. Hayot va o'lim, tabiat va madaniyat, ayol va erkaklar orasidagi aloqalar ibtidoiy mifologiyada tasvirlangan.

Neolit – yangi tosh davri odamlarning turmushini, ularga ta'sir etadigan barcha sohalarni tubdan o'zgartirdi. Dehqonchilik-ziroatchilik, chorvachilikning rivojlanishi, o'simliklarni yetishtirish, ozuqa zahiralarini ko'paytirish, yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish odamlar hayotida ozuqa zahiralarini yaratish, go'sht, sut, teridan foydalanishni o'rgatdi. Loydan idishlar, uy qurish uchun foydalana boshlandi. Tosh buyumlarni silliqlash va sayqal berish shakllandi. Kishilar o'troq hayot kechirishga o'ta boshlab, zich va ko'pchilik guruhlar bilan o'rnashardi. Qishloqlar kengayib, atroflarida kichik qishloqchalar yuzaga kela boshladi. Aholi keskin ko'payishi yangi yerlarni o'zlashtirishga, hayot tarzining o'zgarishi diniy tasavvurlarning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratdi.

Dehqonchilikning ehtiyojlari – hosilni uzoq vaqt sabrsizlik bilan kutish, aniq vaqtni hisoblash muhimligini, yer fasllarining sikllarini bilish – bularning hammasi dehqon qabilalarining osmon-u yerga, quyosh-u oyga, yomg'ir-u shamolga yangi qiziqishining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Qudratli ruhlarga bog'liqlik sezilarli va ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi. Iltijo va qurbonlik ularga ataldi. Natijada ruhlar qudratli xudolarga aylana bordi. Xudolar uchun ibodatxonalar tashkil etilib, ularga maxsus mutaxassis xizmatkorlar – kelajakdagi kohinlar xizmat qilardi.

Ba'zi xudolarning ko'rinishi hayvon, qush, baliqlarning yo boshi, yo tanasi shaklida bo'lardi. Mifologik jihatdan bu qahramonlarning xudoga qarindoshligi saqlanib qolgan. Fetishizmning xarakteri o'zgarib, ilohlarning butlari ibodatxonalar yoniga o'rnatilgan yirik haykallar shakliga aylandi.

Ba'zan butlar o'rniga ramziy haykalchalar, turli shakldagi toshlardan foydalanildi. Mazkur haykal va qurilmalar ibodatxonalarning ramzi bo'lib qoldi.

Afsun ham o'zgarib, afsungarlar endi ilohlar bilan aloqa marosimlari, diniy marosimlar, ibodat va qurbonlik qilish tartiblari yuzaga keldi. Fol ochish va bashorat qilish kabi yangiliklar vujudga keldi. Fol va bashoratning maqsadi istakni bilish edi.

Xulosa qilib aytganda, barcha ilmiy adabiyotlarda dinning paydo bo'lishi borasida bildirilgan fikrlar ilmiy gipotezalardan iborat. Diniy adabiyotlardagi ushbu masalaning talqini esa har bir insonning diniy e'tiqodiga bog'liq.

Totemizim. Totem so'zi – Shimoliy Amerikaning Ojibva qabilasi tilida “uning urug'i” ma'nosini anglatadi. Uning mohiyati “odamlarning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqalari bor”, deb e'tiqod kilishidir. Urug'dosh guruhlar o'zlarining umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon va o'simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Totemlar va odamlar orasidagi aloqalar uzoq o'tmishga tegishli bo'lib, uni qadimgi rivoyatlar tasdiqlaydi. Masalan, Avstraliya aborijenlari orasida saqlanib qolgan afsonalardagi tasavvurlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Totemizim ta'sirida paydo bo'lgan urf-odatlar, normalar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llanildi. Tabu – taqiqlash, ya'ni, totemni ozuqa sifatida iste'mol qilishni taqiqlash tizimi paydo bo'ldi. Faqatgina ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoki qabila boshliqlariga totemni yeyish ruxsat etilgan. Totemizim urug'chilik jamoasi ijtimoiy urug' qabila jamoalarning eng birinchisi sanalib, diniy ko'rinishlarning tarixiy asosi bo'lib qoldi.

Totemizimning asosiy vazifalari – birlashtirish va tartibga solishdan iborat bo'lgan. Totemizim diniy shakllarning ilk davrga tegishlisi bo'lishiga qaramasdan, hozirda ham ba'zi xalqlarning urf-odatlarida, e'tiqodlarida uning qoldiqlari saqlanib qolgan. Masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi.

Fetishizm. Fetish so'zi frantsuzcha fetishe – but, sanam, tumor ma'nosidagi so'zni anglatadi. U tabiatdagi jonsiz narsalarga sig'inishdir. Fetish ham salbiy, ham ijobiy ta'sir etish kuchiga ega.

Fetishizm yog'och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan. Butlarda, tumorlarda jamoalar g'ayri tabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko'rdilar.

Ibtidoiy odamlarning dastlabki diniy taassurotlari umumiy majmuasining shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo'lib qoldi. Dunyo haqidagi tasavvurlar vaqt o'tishi bilan takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq vaqt mobaynida o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Barcha dinlardagi haykallar, suratlar, tumor, ko'zmunchoq va turli ramzlar hozirgi davrda ham saqlanib qolgan.

Shamanizm(shomonlik). Shamanizm (“shaman”so'zi tungus-manchjur tilidagi “sa” – bilmoq fe'li bilan bog'liq, “saman” – biluvchi kishi). Shamanizm animizm, totemizm va fetishizm natijasida yuzaga kelib, u orqali kishilar o'z totemlari, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. O'tmishda ko'proq ayollar shamanlik bilan shug'ullanganlar. Shamanlar jazavali, asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoaning umid va niyatlarini yetkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga juda ishonganlar.

Shamanlar ritual harakatlari orqali – ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida o'zlarini jazavaga solib, o'zini yo'qotish, jazavani yuqori natijaga yetkazish bilan afsungarlik qilishgan. Shaman marosim oxirida bir holatga kelib hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar edi. Shuning uchun uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Bu odamlarning fikr yuritishi, ongining mustahkamlanishida katta rol o'ynadi va diniy ongning shakllanishida muhim o'rin tutdi. Shomonizm – ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilishi davrida paydo bo'lgan animistik e'tiqod va ibodatning keng doirasiga kiradigan qadimgi diniy e'tiqodlardan biri. Uning o'ziga xos xususiyati – kishilar orasida turli ruhlar bilan munosabatda bo'la oladigan shomonlar qobiliyatga ishonishdir. Shomonlarga, shuningdek, kelajakni oldin aytib berish, kasalni uzatish, o'lganlarni oxiratga uzvish, tabiatda hahlagancha o'zgartirishlar qilish kabi xususiyatlar ham xosdir. O'tmishda shomonlarning ruh bilan aloqasi shomon do'mbirasi yoki mo'jizaViy musiqa ijrosida turli rasm-rusumlarni bajarish jarayonida jazavasi tutib, holdan toygancha bajarilgan. Shomonizm o'tmish dinlar sarqiti sifatida ba'zi hollarda uchrab turadi.

Sehrgarlik (Magiya). Sehrgarlik (afsun) – odam, hayvon va tabiatga g'ayritabiiy yo'l bilan ta'sir o'tkazish maqsadida bajariladigan ritual urf-odatlar majmuasidir. Afsungarlik urf-odatlari bilan maxsus kishilar –shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar.

Sehrgarlik marosimlari yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshirilishi mumkin edi.

Sehrgarlik maqsadiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1) “Yaxshi niyatda” amalga oshiriladigan – “oq sehrgarlik” (“belaya magiya”)

2) “Yovuz niyatda” amalga oshiriladigan – “qora sehrgarlik” (“chyornaya magiya”);

3) Harbiy sehrgarlik (qurol aslahani sehrlash);

4) Sevgi sehrgarligi (“issiq”, “sovuq” qilish)

5) Tibbiy sehrgarlik (davolash maqsadida)

6) Ob-havo sehrgarligi (yomg’ir chaqirish)

Sehrgarlik zamonaviy dinlarda va turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

O’zbekistonda davlat va din munosabatlari

O’zbekiston rahbariyati mustaqillikning birinchi kunlaridanoq dinning jamiyat hayotidagi muhim o’rniga muvofiq, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlarni qayta tiklash asosida aniq va printsiptial chora-tadbirlar ko’ra boshladi. Davlatning dinga yangicha munosabati “inson e’tiqodsiz yashay olmaydi”, degan aniq ishonch asosida belgilandi. Bu tamoyil keyinchalik “Alloh qalbimizda, yuragimizda” so’zlarida ifodasini topdi.

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din, birinchi o’rinda ma’naviy-axloqiy jihatni o’z ichiga oladi.

Davlatning dinga bo’lgan munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma’naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Bundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu masalalar o’z yechimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me’yoriy talablarga to’la javob beradi. Har qanday dinga e’tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e’tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo’yilishini ta’minlovchi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo’l qo’yilmaydi”.

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga bo’lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o’z ifodasini topgan:

- dindorlarning diniy tuyg’ularini hurmat qilish;

- diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo’l qo’ymaslik;

- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati;

- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

O'zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. Chunki, konstitutsiyaviy dunyoviy-ma'rifiy davlatda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga asosan diniy e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qiladi.

O'zbekistonda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi bo'lgan Konstitutsiya va qonunlar asosida demokratik, dunyoviy davlat barpo etmoqdamiz. Bugungi kunda kishilar qalbida va ongida sog'lom diniy e'tiqodni shakllantirish fuqarolik jamiyatini qurishning muhim omillaridan hisoblanadi, chunki diniy tashkilotlar fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismidir.

O'zbek xalqining ilg'or madaniy va ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi tadrijiy taraqqiyotini o'rganish vatan tarixini chuqurroq tushunib yetish, uni sevis va u bilan faxrlanish his-tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Din va Qonun o'zaro munosabatlarini bilish respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida so'z ketar ekan, uning asosida eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili yotishini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi".

Mazkur moddada muhim ahamiyatga ega qoidalar mustahkam qo'yilgan. Birinchidan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

Shu bilan birga, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ta'kidlash zarur. Zero, biror dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o'z mavqeiga ega bo'ladi.

O'zbekistonda diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi munosabatning mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar

to'g'risida (yangi tahriri)" (1998) Qonunida va boshqa hujjatlarda yaqqol ifodalab berilgan. Totalitar tuzumdan demokratik jamiyatga o'tish davrida diniylik va dunyoviylikning o'zaro munosabatida uch bosqichni ajratilib bu bosqichlarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. "Diniy portlash" bosqichi, raqobat bosqichi va hamkorlik shuningdek, o'zaro hamkorlik, do'stlik tamoyillariga asoslangan konfessiyalararo munosabatlarning davlat siyosatiga aylanganligi yetarli dalildir. Dunyoviy yo'lni qat'iy tanlagan O'zbekistonda diniy va dunyoviy mafkuralarning o'zaro munosabati demokratiya, hur fikrlik, bag'rikenglik tamoyillari asosida belgilanadi. Din va diniy mafkuralarining milliy tarixiy qadriyatlarni xalqqa qaytarish, ularni o'rganishdagi roldan tashqari yangi jamiyat qurishda ham ijobiy ahamiyati bor.

Jamiyat tarixida diniylik va dunyoviylikning o'zaro munosabatining turli omillar ta'sirida o'zgarib borishining tahlili ko'rsatadiki, bu munosabat barcha sharoitlarda murakkab bo'lgan, kurash va murosalar turli shakllarda, ko'rinishlarda davom etgan. Zamonlar bo'lganki, diniylik va dunyoviylik bir-biridan ajralmagan, dunyoviylik diniylik bag'rida, diniylik qiyofasida unga qarshi bosh ko'targan, vaziyatlar bo'lganki, ular o'rtasida ochiq hayot-mamot kurashi ketgan. Ular o'rtasidagi munosabatning qanday bo'lishi fan va ilmiy bilimlar rivojiga, ularning diniy dogmalar mazmuniga mos yoki mos emasligiga, dunyoviy taraqqiyotning xususiyatlariga, ijtimoiy qatlam va guruhlarining manfaat-intilishlariga, mavjud ijtimoiy g'oyalarning ta'siriga bog'liq bo'lgan. Hozirgi davrda esa diniy va dunyoviy mafkuralar munosabati qator yangi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ilm-fan va texnikaning yuksak darajasi, demokratik tamoyillarning ildiz otishi, aholi turmush darajasining yuksalishi ayrim mamlakatlarda sekulyarizmni kuchaytirgan bo'lsa, yuqoridagi masalalarda orqada bo'lgan mamlakatlarda din turli kuchlarning, diniy ekstremistik, radikal harakatlarning mafkuraviy quroli sifatida ham foydalanilmoqda. Ammo har ikki guruh mamlakatlarida ham diniy va dunyoviy mafkuralar o'rtasidagi kurash to'xtagan emas. Hatto sekulyar Yevropada ham din o'z mavqeini mustahkamlash imkoniyatlarini topmoqda. Shu bilan jahon miqyosida diniy va dunyoviy mafkuralar o'rtasida global muammolarni hal qilish maqsadida hamkorlik, dialog zaruriyati tobora yaqqol bo'lib bormoqda. Bu masalada har birining o'rnini, mavqei, ahamiyati ma'lum bo'lmoqda. Sobiq totalitar davlati o'rnida paydo bo'lgan jamiyatlarda diniy va dunyoviy mafkuralar o'rtasidagi munosabat umumiy xususiyatlar bilan birga o'ziga xosliklar bilan tafovutlanadi. Bunda mamlakatlardagi ichki siyosiy, iqtisodiy vaziyat bilan birga, tashqi ta'sirlarning alohida o'rnini bor. Radikal diniy harakatlar chetdan ayrim yosh mamlakatlarga suqilib kirganligi har bir yosh davlatlarda turli oqibatlarni keltirib chiqardi. Xususan O'zbekistonda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolishga, diniy mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berishga erishildi. O'tish davridan keyingi

yangilanish yillarida O'zbekistonda diniy va dunyoviy mafkuralar o'rtasida hamkorlik uchun sharoit yaratildi. Albatta, hozirgi davrda, hatto istiqbolda ham diniy va dunyoviy mafkuralar o'rtasida ziddiyatlar, qarama-qarshi nuqtai nazarlar bo'lishini inkor etish mumkin emas. Dunyoqarash, olamning mohiyati, jamiyat taqdiri masalalarida qarama-qarshi nuqtai nazarlar, azaldan bo'lgani kabi, bundan keyin ham kurashadi. Bu masalalarda hamma joyda kurash bo'lgan va ta'lim-tarbiya jarayonida hech qachon to'xtamaydi. Dunyoviy mafkuralar u yoki bu ijtimoiy manfaatlarga, fan va ilmiy bilimlarning real natijalariga asoslansa, diniy mafkura ham ilgargi davrlardan farq qilib, fan yutuqlarining diniy talqiniga hamda hozircha fandan tashqarida bo'lgan muammolarga tayanib harakat qiladi.

Mamlakatimizda shunday demokratik qonunlar yaratildiki, din erkin rivojlanishi, jamiyat hayotida o'z o'rnini egallash uchun barcha sharoitlar muhayyo qilindi.

Diniylik va dunyoviylik haqida so'z borganda ulamolar tomonidan aytilgan 4 ta tamoyil: tenglik, erkinlik, adolat va mashvarat qaerda o'rnatilsa, davlat qanday shaklga ega ekanidan qat'iy nazar, diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanat ta'minlanadi. O'zbekistonda ushbu to'rt tamoyil asosiga ega fuqarolik jamiyati qurish bosqichida diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatni shakllantirish silliq kechmadi. Hali hanuz bu yo'lda musulmon aholi diniy ongini radikallashtirish va siyosiylashtirishga qaratilgan urinishlar davom etmoqda. O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'li-dunyoviy demokratik yo'ldir. Xalqimiz diniy e'tiqodni chuqur hurmat qilgan holda dunyoviy taraqqiyot yo'lidan bormoqda.

Dunyoviylik Allohga imon keltirgan holda, uni qalbda saqlab, Yaratgan in'om etgan aql-zakovat, bilim va tajribani ishga solish, el-yurtni obod qilishga hissa qo'shish, xalqning hurmatini qozonishdir. Zero, "Xalq rozi bo'lsa, Xoliq rozi bo'ladi", deydi ulug' mutafakkirimiz Alisher Navoiy. Yoshlarimiz jamiyat, davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi yangi-yangi innovatsion g'oya va texnologiyalarni kashf etishsa, eng so'nggi ilm-fan yutuqlarini qo'lga kiritishsa, eng muhimi "portlash effekti" sifatida dunyoga o'z millati intellektini tarannum etishsa nur ustiga a'lo nurdir. Zero, Prezident Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda: "Xalqimizni rozi qilsak, ularning og'irini yengil qilsak, ularning dardu tashvishi bilan yashasak, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi".

O'zbekiston xolisona tamoyillarga asoslanib, dindan milliy, dunyoviy taraqqiyot yo'lida samarali foydalanish borasida qisqa davr mobaynida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun, jinoyat, fuqarolik, oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Respublikamizda din va davlat munosabati, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyat yuritishi bo'yicha huquqiy asos yaratildi.

Fuqarolarning dinga munosabatidan teng huquqliligi printsipli O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari dinga munosabatidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning dinga munosabatiga qarab ularning huquqlarini har qanday cheklash va ularga bevosita yoki bilvosita imtiyozlar belgilash, dushmanlik va adovat uyg'otish yoxud ularning diniy yoki dahriylik e'tiqodi bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlash, diniy ziyoratgohlarni oyoq osti qilish qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita 1992 yil 7 mart kuni "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitani tashkil etish to'g'risida"gi Farmonga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, mazkur qo'mita har bir shaxsning vijdon va diniy e'tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Qo'mitaning asosiy vazifalariga quyidagilar hisoblanadi:

mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq diniy masalalarni hal qilishda yagona siyosatni amalga oshirish;

davlat organlarining respublika hududida joylashgan diniy tashkilotlar bilan o'zaro aloqasi va hamkorligini ta'minlash;

davlat siyosatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan diniy tashkilotlar manfaatlarini aks ettirish.

Din va qonun o'zaro munosabatlarini to'g'ri anglash, respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlash hozirgi globallashuv jarayonlari shiddat bilan davom etayotgan davrda muhim hisoblanadi. Mazkur masalada 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida hamda "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 16 apreldagi PF-5416-sonli Farmonda o'z aksini topgan. Unga ko'ra, mamlakatimizda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy

merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilishi, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma'rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirish lozimligini va bu borada «jaholatga qarshi ma'rifat» ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish naqadar muhimligi ta'kidlangan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan tashabbus asosida qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiya ham dinlararo bag'rikenglik, o'zaro hurmat va diniy erkinlikni ta'minlashga qaratilgani bilan e'tiborlidir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi.

Tarixga nazar tashlasak xalqimiz turli konfessiyalar va din vakillariga nisbatan yuksak ehtirom va hurmat, o'zaro murosada yashashga intilganligini, xalqimizning asrlar osha kamol topgan fazilatlaridan ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Jumladan, mamlakatimiz hududida turli dinlar madaniyati bo'yicha izlanishlar olib borgan yapon olimi Kato mazkur fikrni o'zining ilmiy ishlaridan olingan natijalar asosida tasdiqlaydi. Yapon olimi Surxondaryo vohasida olib borgan ilmiy tadqiqotlarida aniqlagan Budda yodgorligini, yahudiy yodgorliklari, Buxoroda nasroniylarning ziyoratgohlarini bir necha asrlar osha yurtimizda islom obidalari bilan bir qatorda turishini diniy-ma'naviy totuvlikni nodir timsoli sifatida e'tirof etadi.

O'zbekistonda 2017 yil noyabr holatiga ko'ra, 16 diniy konfessiyaga mansub 2 ming 250ga yaqin tashkilot faoliyat yuritmoqda. Ular quyidagilardir: Islom (O'zbekiston musulmonlari idorasi), Pravoslavlik (Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi), Katoliklik (Rim-katolik cherkovi), Lyuteranlik (Nemis-lyuteran cherkovi), Arman-apostol cherkovi, Pyatidesyatniklar (To'liq injil xristianlari), Baptistlar (Evangel-xristian baptistlar cherkovi), Novoapostol cherkovi, Yettinchi kun adventistlari, "Golos bojiy", Iegovo shohidlari, Koreys protestant cherkovlari, Yahudiylik, Bahoiylik, Krishnani anglash jamiyati, Buddaviylik.

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo'nalishida "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" deya nomlanib, ushbu yo'nalishda belgilangan millatlar va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash borasida respublikada bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi.

Mavzuga oid savollar

1. Teologiya so'zining ma'nosi?
2. Totemizmda mohiyati nima?
3. Vijdon erkinligi deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbekistonda davlat va din munosabatlarning o'ziga xos tomonlari nimada?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Ilk diniy tasavvurlarning bugungi kundagi ko'rinishlari haqida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).
2. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida animistik, totemistik, fetishistik va shamanistik tasavvurlarning o'ri haqida ma'lumot to'plang.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: “O'zbekiston”. – 2017.
4. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>
5. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma / Muratov D., Alimova M., Karimov J., Najmiddinov J., Juraev Sh. -Toshkent, 2019.
6. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma / A.Ochildiev va boshqalar.- Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
7. Dunyo dinlari tarixi / tuzuvchilar: S.Agzamxodjaev, D.Rahimjonov, N.Muhamedov va b. – T.: ToshDShI, 2011.

8. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – T.: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014.

Internet saytlari

1. <http://www.religion.uz>
2. <http://www.ziyo.uz>
3. <http://www.lex.uz>

2-Mavzu: Markaziy Osiyo dinlari tarixi.

1. Markaziy Osiyo dinlari

2. Islom ta'limoti asoslari

3. Islomdagi mazhablar va yo'nalishlar

Qadimgi turkiylar e'tiqodiga ko'ra, osmon xudosi "Tangri" butun borliq ustidan yagona hukmdor hisoblanib, mil.avv. 2-ming yillik oxiri va 1-ming yillikda vujudga kelgan. Tangrichilik dini hukmdor Kanishka tomonidan mil.avv. 165 yilda ilgari surilgan buddaviylikka yaqin, ammo mustaqil aqidaga ega din sifatida shakllangan. Diniy qarashlar sodda va tushunarli bo'lgani, diniy marosimlarning qat'iy bajarilgani ularning ming yillar davomida avloddan avlodga o'tib kelishini ta'minlagan.

Ba'zi olimlar tangrichilikda "Olqish" ("Qo'shiqlar to'plami") yozma manbasi bo'lgani va unda tangrichilik aqidasi, marosimlari va ibodat qilish tartiblari bayon etilganini ta'kidlashadi.

Tangrichilik ta'limotiga ko'ra, Tangri bu – Moviy Osmon, Buyuk Osmon sohibi ruhi bo'lib, uning doimiy makoni osmon deb hisoblangan. Tangri so'zi turkiy xalqlarda Tengri yoki Tengeri (oltoy), Tengri (qipchoq), Tanri (turk), Tengri (tatar), Tangara (yoqut), Tengiri (kumiq), Teyri (bolqor–qorachoy), Tenger (mo'g'ul), Tura (chuvash) shakli ham ishlatilgan. Tangri butun borliqning yaratuvchisi, cheksiz fazoda faqat uning o'zi hamma narsadan voqif, adolatli va marhamat egasi bo'lgan erkak qiyofadagi yagona xudo sifatida tasavvur qilingan. Butun borliq bo'ysunuvchi Tangri insonlar, xalq va davlatlarning taqdirini belgilaydi deb e'tiqod qilingan.

Milodiy IV–V asrlarga oid O'rxun Enasoy yodgorliklari bitiklarida Tangri yagona, azaliy, abadiy, hayot beruvchi, yaratuvchi, o'ldiruvchi, hukm qiluvchi, yordam beruvchi, jazolovchi, bandaning duosini qabul qiluvchi, himoya qiluvchi va mag'firatiga oluvchi, hamma narsani biluvchi, insonlarga ilm beruvchi va yo'l ko'rsatuvchi sifatlar bilan maqtalgan. Bundan tashqari ularga hoqonlarni taxtga

chiqargan va mustaqil davlat tuzishlariga yordam bergan ham Tangri ekani qayd etilgan.

Qadimgi turkiylar e'tiqodiga ko'ra, butun borliq ustidan yagona hukmdor Tangrixon o'ziga bir qator ko'makchi ma'budlarni ham yaratgan. Jumladan, ushbu panteon Umay (Jumay, ona ma'buda), Erlik (ota ma'buda), Yer, Suv, Olov, Quyosh, Oy, Yulduzlar, Havo, Bulut, Shamol, To'fon, Momoqaldiraq, Chaqmoq, Yomg'ir, Kamalak ma'budlaridan iborat bo'lgan. Tangrixon Yer va boshqa ruhlar (Yurt egasi, Suv onasi) bilan Yer olami ishlarini hal qilib, barcha jonzotlarning umrini belgilagan. Yerda hayotning sababchisi bo'lgan Umay ma'budi ayol qiyofasida va "hayot onasi" deb e'zozlangan. Erkak jinsidagi Erlik o'lim sababchisi bo'lib, uning makoni Yerosti olami hisoblangan.

Tangrichilikda Tangri va Yer ikki qutb sifatida qaralsa—da, ular orasida o'zaro hamkorlik mavjud deb e'tiqod qilingan. Inson Yerda tug'ilib, Yerda yashagan. U vafot etganda, Yer uni o'z bag'riga olgan. Yer insonga faqat moddiy bo'lagini bera olgan. Lekin inson boshqa mavjudotlardan farqlanib turishi uchun Tangri unga, ruhiy kuch bo'lgan "kut" (quvvat) va "sur" (ruh)ni ato etgan deb e'tiqod qilingan.

Tangrichilikda tabiat va inson o'rtasida chegara daxlsizligini saqlashga alohida e'tibor bilan qaralgan. Agar inson tabiatga me'yordan ortiq zarar yetkazsa, unda tabiat ruhlarining roziligiga erishish uchun qurbonlik keltirish zarur bo'lgan. Qurbonliklar yirik tog'lar yoki daryolar oldida ommaviy ravishda o'tkazilgan. Daraxtlar orqali ma'budlar oziqlanadi, — deb e'tiqod qilingani sababli qurbonlik qonlari daraxtlar ostiga quyilgan. Lekin, odamlar tabiat ruhlarini o'zlariga hamkor sifatida qarashgan, ularni qarindosh yoki ajdodlar ruhlari deb bilishgan.

Ko'rinmaydigan Yerosti olami barcha yovuz ruhlarning makoni bo'lib, ularga qudratli Erlik boshchilik qilgan. To'qqiz qatlamlararo ko'chib yurish imkoniga ega Yer olamida hayot va o'limning mavjudligi tufayli u yerda odamlar orasida ma'lum vaqt bo'la oladi xolos. Yerosti olamida Yer olamidan farqli ravishda barcha chegaralar ko'rinib turadi va boshqa hududlarga o'tish o'ziga xos eshiklar yordamida amalga oshadi. Yerosti va suv olami tirik jonzotlari Erlik tasarrufiga kiradi. Inson vafotidan keyin ko'milgach, uning jismi eng quyi qatlamga tushib boradi.

Umuman olganda, qadimiy turkiylarning dunyoqarashida borliqning cheksizligi, hayotning doimiy harakat va muntazam yangilanishda ekani muhim o'rin egallagan. Ayni paytda Ruhning ko'chib yurishiga ishonganligi bois inson tiriklik chog'ida borliqning bir bo'lagi sifatida barcha diniy marosimlarni to'la ado etishi lozim, aks holda yovuz ruhlar qatoridan joy oladi, deb e'tiqod qilingan.

Tangrichilikda diniy ramz to'rt tomoni teng bo'lgan salb — "adji" hisoblangan. Shundan kelib chiqib, turkiylar uni peshonalariga qizil rangda chizib yurganlar. Qadimiy turkiylarda bo'ri totemi mavjud bo'lib, uni "Bozkurt" (kulrang bo'ri) deb

atashgan. Moviy yungi osmonni anglatgan Bozkurt turkiy halqlarning abadiylik timsoli hisoblangan.

Tangrichilik ta'limotiga ko'ra, inson tanasiga "tin" (jon) ruhidan puflash orqali unga jon kiradi. Inson "tin bitti" (jon tugadi, jon chiqdi) holatiga yetmaguncha umr kechiradi. Insonga biror bir narsani oldindan sezish qobiliyati "kunel" (kunelem size, intuitsiya) ham beriladi.

Inson o'limidan so'ng kut, tin va sur bir vaqtda osmonga ko'chadi va asl ruh (ajdod ruhi)ga aylanadi. Qadimiy turkiylar mutloq o'limga ishonishmagan, hayot ma'lum doira ichida butun fazo bo'ylab aylanib yuradi, deb e'tiqod qilishgan. Shundan kelib chiqib, ular insonning jismoniy o'limidan qo'rqishmagan va uni hayotning tabiiy davom etishi, deb qarashgan.

Qadimiy turkiylar jang maydonida qahramonlik qilgan ajdodlar ruhiga alohida e'tibor qaratganlar. Ajdodlar ruhiga sig'inish turkiylarda o'zidan oldingi yetti ota-bobosi faoliyatini yaxshi bilish an'anasini shakllantirgan.

Zardushtiylik. Spitama qabilasidan bo'lgan Pourushaspa o'g'li Ashoga Zaratushtra (yunoncha – Zoroastr, pahlaviycha – Zaraxustra "boqiy yulduz" va "chiroyli tuyalarga ega bo'lgan" degan ma'nolarni anglatadi) ushbu dinning asoschisi hisoblanadi. Zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra, bu nom unga Axura–Mazda (yunoncha, Ormuzd – "Donishmandlik sohibi") tomonidan berilgan. Zardushtning yashagan davri va joyi haqida turli taxminlar mavjud. Tadqiqotchi M.Boysning ta'kidlashicha, u mil. avv. 1500–1200 yillar orasida yashagan.

Zardushtiylikning vatani masalasida ikki xil qarash mavjud. Jumladan, ayrim olimlar zardushtiylik Qadimgi Eron hududida keng tarqalgani, "Avesto"ning sharhlari pahlaviy tilida yozilganidan kelib chiqib, uning vatani Midiya (hozirgi Eron hududi) deb hisoblasalar, ko'pchilik tarixchilar esa "Avesto"da Xorazm Zardushtning vatani, Axura–Mazda bilan aloqa bog'langan va ozarxurra (muqaddas olov) birinchi bor yoqilgan joy ekani qayd qilinganiga asoslanib, Xorazmni e'tirof etadilar.

Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi.

Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo'riq yer ochib, uni bog'u rog'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi, aksincha, bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladi. Zardusht o'z ta'limoti bilan insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni o'rgatmoqchi bo'ladi. Bu din ta'limotiga ko'ra, insonlarning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi

dunyodagi taqdiri belgilanadi, har bir inson o'lgandan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha yoki abadiy rohat – jannatga yoki yomon ishlari ko'p bo'lsa na xursandlik va na xafalik ko'rmaydigan arosat joy – misvongatuga tushadi.

Zardushtiylik ta'limotining asosi – dualizm (ikkilik) bo'lib, unga ko'ra olam qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgan. Yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axuramazda va barcha yomonliklarni Axriman ifodalaydi.

Axuramazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib, ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlarni bayon etib ulardan saqlanishga chaqiradi.

Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofliigi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvilib, poklanib, quyoshga qarab uni olqishlab sig'inishi shart hisoblanadi.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur – suv, olov, yer va havo ulug'lanadi.

Zardushtiylik dafn marosimi o'ziga xos bo'lib, o'lganlar bir necha past, baland “sukut minoralari”– daxmalarga solinadi, u yerda murdalarning go'shtlarini qushlar yeb, suyaklarini tozalaydi. Go'shtdan tozalangan suyaklar maxsus sopol idishlar – “ossuariy”larga solinadi.

Zardushtiylik dini jahon miqyosida eng qadimgi dinlardan biri hisoblanib, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Kichik Osiyo xalqlari unga e'tiqod qilganlar. Eronda sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida Zardushtiylik rasmiy davlat diniga aylangan. Bu davrda uning muqaddas kitobi Avesto ruhoniylar tomonidan qayta yig'ilib, kitob shakliga keltirilgan. Ayrim, ayniqsa, “Videvdot” qismiga o'zgartirishlar kiritilib, qayta ishlangan.

VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoga islom dini kelib, keng tarqalguniga qadar zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida zardushtiylik e'tiqodi diniy jamoalari kamayib ketgan. Ular hindistonning Mumbai, Gujarot shtatlarida va Eronning ba'zi chekka viloyatlarida saqlanib qolganlar.

“Avesto”. “Avesto” zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. U Apastak, Ovisto, Ovusto, Abisto, Avasto kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. “Avesto” Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va yagona manbadir. Uning tarkibidagi materiallar qariyb ikki ming yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og'zaki ravishda uzatilib kelingan.

Zardushtiylik dini rasmiy tus olguniga qadar “Avesto”ning bo'laklari Turon va Eron zamini xalqlari orasida tarqalgan. Ushbu Axuramazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy xabarlari deb hisoblangan bo'laklar turli diniy duolar, madhiyalar

sifatida yig'ila boshlagan. Bular Zardushtning vafotidan keyin kitob holida jamlangan va “Avesto” – “O'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar” deb nom olgan.

Mazkur qadimiy yozma manba bizgacha to'liq yetib kelmagan. “Avesto” haqida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: “Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistoning) o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonlarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtda Abistoning beshdan uchi yo'qolib ketdi”.

“Avesto”ning Aleksandr Makedonskiy tomonidan Gretsiyaga olib ketilgani, zarur joylarini tarjima ettirib, qolganini kuydirtirib yuborgani, o'n ikki ming qoramol terisidagi tillo matn haqida keyingi davrlarda yaratilgan zardushtiylik adabiyotida (“Bundahishn”, “Shahrihoi Eron”, “Denkard” (IX a), “Arda Virafnamak” (IXa) “Tansar xatlari” (VI) “Muruj az-zahab”, “Forsnoma” va boshqalarda) ma'lumotlar bor. Bu asarlarda yunonliklar otashxonalarni vayron qilganlari, ibodatxonalar boyliklarini talon-taroj etganlari, din arboblarni o'ldirib, asir olib ketganliklari haqida yoziladi. Hozir bizgacha yetib kelgan “Avesto”, Beruniyning yozishicha, aslining beshdan ikki qismi xolos. U “Avesto o'ttiz “nask” edi, majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi” deb yozgan.

Yozma manbalarga ko'ra, haqiqatan ham Avesto mo'badlar (zardushtiy ruhoniylari) tomonidan avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib, asrlar osha yashirin saqlangan. Dastavval (I yoki II asrlarda), Arshakiylar davrida “Avesto” qismlarini to'plash boshlagan. Keyinchalik Sosoniylar davrida, Ardasher Papakan (227-243) davrida, ayniqsa, Shopur (243-273) davrida astrologiya, tabobat, riyoziyot va falsafaga oid qismlari yozib olinib, hamma qismlari tartibga keltirilgan, so'ng bu asosiy matn to'ldirib borilgan. “Avesto”ning ana shu to'ldirilgan nusxasining ikki to'liq qo'lyozmasi hindistonda saqlanadi – biri Mumbayda, zardushtiylarning madaniy markazi bo'lmish Koma nomidagi institutda, ikkinchisi Kalakuttadagi davlat kutubxonasida.

“Avesto”ning saqlanib qolgan to'rtta kitobidan birinchisining nomi “Videvdad” (devlarga qarshi qonun) deb ataladi. Ushbu kitob “Avesto”ning saqlanib qolgan kitoblari orasida eng mukammali hisoblanadi. U yigirma ikki bob bo'lib, boblari “Fragard” deb nomlangan. Fragardalarning ma'nosi, vazifasi, uslubiy tuzilishi turlicha: birinchi fragard – odamlar yashaydigan barcha yurtlarni Axura Mazda qanday yaratgani to'g'risida bo'lib, ular orasida Xorazm, So'g'd, Marg'iyona, Baxdi (Balx) va boshqalar bor; ikkinchi fragardda Jamshid podsholigi – kasallik, o'lim, azob-uqubatlar bo'lmagan zamon haqida, ya'ni insoniyatning oltin asri haqida gap boradi; uchinchi fragard dehqonchilikning savobli sharofatlari

haqida va h.k. Shuningdek, videvdatning boshqa fragardlaridan Zardusht bilan Axuramazdaning savol-javoblari va muloqotlari ham o'rin olgan.

Ikkinchi kitob “Yasna” deb atalib, Avestoning e'tiborli bo'limi sanaladi. Yasna – yaz o'zagidan bo'lib, “sajda, topinch, ibodat” ma'nolarini ifodalaydi. Yasna yetmish ikki bobdan iborat bo'lgan. Boblari “ha”, “haitiy” deb atalgan. “Ha” bashorat demakdir. Har bir “ha” zarur o'rniga qarab marosimlarda, ibodatlarda kohinlar tomonidan o'qilgan, qavmlar unga ergashib ibodat qilganlar. Yasna kitobi tarkibiga Zardusht o'zi ijod qilgan targ'ibot she'rlari ham kirgan. Ular Yasnaning 17 ta “ha”sini tashkil qiladi. Zardusht she'rlari ilmiy adabiyotda “gat”lar deb atab kelinadi. Zardushtiylik urf-odatlar orasida olovga e'tiqod qilish, dinning esa “otashparastlik” deb atalishi shunga bog'liq. Binobarin, olov Axuramazda nurining quyoshda namoyonligi va uning yerdagi zarrasi deb hisoblangan. Oliy haqiqat Arta ham olovda o'z ifodasini topgan. Olov haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg'onni rostdan ajratib bergan. Yolg'on esa, chin e'tiqodga xiyonat deb qoralangan. Arta so'zi fonetik o'zgarib, dastlab Atar, hozir esa otash shaklida ishlatilib kelmoqda.

Uchinchi kitob “Visparat” deb nomlangan. U yigirma to'rt bobdan tashkil topgan va har bir bob alohida “karde” deb atalib, ma'budlar sha'niga o'qilgan duolar va ibodat ustida ularga murojaatlar hamda olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir. Uni ibodat namozlari yig'indisi ham deyishadi. Ayni paytda u “Yasna”ga qo'shimcha hisoblanadi.

To'rtinchi kitob “Yasht” deb ataladi. U “Avesto”ning eng qadimiy qatlami bo'lib, yigirma ikki bobdan iborat. Har bir bob Axura Mazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma'lum vazifalarini bajaruvchi ma'budlar sha'niga aytilgan madhiyalardan iborat.

“Avesto” haqida eng muhim manba IX asrga oid “Denkard” (din amallari) asaridir. Unda Avestoning yigirma bir kitobi to'la ta'riflab berilgan. Bu ta'riflar savobli ishlar yo'riqnosi, diniy marosimlar va rasm-rusmlar qoidasi, zardushtiylik ta'limoti asoslari, dunyoning Axuramazda tomonidan yaratilishi, oxirat kuni va undagi hisob-kitob, falakiyot, ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar, Zardushtning tug'ilishi va bolaligi, haq yo'lini tutish, jamiyat a'zolarining haq-huquqlari, devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o'qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir.

Zardushtiylik diniy tizim sifatida Markaziy Osiyoda bronza davrida ibtidoiy jamoa munosabatlari yemirilayotgan, jamiyatda mulkiy va ijtimoiy tengsizlik paydo bo'layotgan sharoitda shakllangani qayd etiladi. Temir davri boshiga kelib u yanada mukammallashib, ichki tizimi tartibga keldi. Dinning og'zaki an'analari asta-sekin yozuvga aylandi, bu esa zardushtiylikning muqaddas diniy yozuvlar

to'plami "Avesto"ning ilk bitiklarini keltirib chiqardi. Bu o'tish davri miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi choragiga to'g'ri keladi.

Zardushtiylikning shakllanish va "Avesto"ning yozilish davriga kelib, Markaziy Osiyoda chuqur mulkiy va ijtimoiy tabaqalanish an'alariga ega bo'lgan o'troq zamindorlar va chorvadorlarning patriarxal jamoalari, harbiy aristokratlar va din arboblari paydo bo'lgan edi. "Avesto"da qayd etilgan jamoada ozod jamoadoshlar va tobe' aholi, ya'ni "qullar" alohida o'rin egallagan. Biroq "Avesto" jamoasida qullar yetakchi ishlab chiqaruvchi kuch emasdilar, qulchilik yordamchi mohiyatga ega bo'lgan.

"Avesto" ma'lumotlariga ko'ra, zardushtiylar jamoa tuzumi to'rt pog'onali edi: nmana – "uy-oila", ya'ni boshida katta oilali uy boshlig'i turgan patriarxal oila; vis – "urug', urug'chilik ovuli", bunga o'zaro qarindosh bo'lgan barcha oilalar kirgan; zantu – qabila va hudud, bunda qabila yashagan. O'z navbatida zantu o'zaro qarindosh qabilalarni birlashtirgan; baxyu – "viloyat, mamlakat", bunga daxyu hududida qo'shni bo'lgan barcha urug'lar kirgan. Jamiyat tizimining bu to'rt pog'onali tizimi qadim zamonlarga borib taqaladi va Avesto matnlarida atamalarning qondoshlik mohiyati hududiy mohiyat bilan almashadi, ya'ni "oila" va uning turar joyi bo'lgan "uy" atamaları nmana "urug' va turar joy" atamaları bilan parallel ravishda ishlatila boshlaydi.

Zardushtiylik oilasi jamiyatning eng quyi birligi hisoblangan. Uy-oila boshida oila asoschisi ota turgan. Uni nmanopati – "boshliq, uy qo'riqchisi" deb atashgan. U bilan bir pog'onada xotini yoki oilaning katta ayoli – nmanopatni turgan. Zardushtiylik an'alariga ko'ra, uy xo'jayini diniy boshliq va oila hakami hisoblanib, "Avesto"da "ratu"deb atalgan. Urug' otasining bu vazifasi "nman'ya" deb atalib, oila a'zolarining barchasi diniy ko'rsatmalarni bajarishini nazorat etishdan iborat deb sanalgan. Shuningdek, nman'ya atamasi oila va uning a'zolari tinchligini asrovchi yaxshi ruhlarni ifodalash uchun ishlatilgan.

Yana ikki homiy-ruhlar – brchya va ushaxina xayolan oilaning doimiy "a'zolari" hisoblanib, ekinlarni va barcha oilaga ezgulik baxshida etuvchi tong sokinligini saqlashgan. Shuningdek, zardushtiylarning patriarxal oilalari "Avesto"da vira, vaysa va pariaytar deb atalgan, teng huquqli bo'lmagan oila azolarini o'z ichiga olgan. Vira bir vaqtning o'zida "erkak, navkar" va "qul". Zardushtning "Gata"sida vira "qul" sifatida namoyon bo'ladi.

Vaysa atamasi vis – "urug'" bilan bog'liq. Ya'ni, bu toifadagi odamlar bir vaqtning o'zida ham oilaga, ham uruqqa xizmat qilishgan. Pariytar atamasiga kelsak, bu mardikorlar degani. Tadqiqotchilar nazarida bu toifadagi odamlar jamiyatning eng nochor qatlamlariga mansub bo'lib, yashash uchun boshqa urug'nikida ishlashga majbur.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, zardushtiylik jamiyati urug'chilikning boshqa toifadagi atamalarini ham bilishgan, masalan, pitar "ota", maatx "ona", pusra "o'g'il", dxutar "qiz" va hokazo. Bu esa oilaviy munosabatlarning chuqur an'anaviyligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari "Avesto"da quyidagi ijtimoiy atamalar: shoytra – "qabila yashaydigan viloyat", "xudu", gava-shayana, gava-shita – "qishloq, qishloq hududi" uchraydi.

Zardushtiylik jamoasi o'zining barcha to'rtta bosqichida xususiy va umumiy mulkni gayta atamasi bilan ifodalagan. Maytana atamasi "urug', qabilaning yashash joyi" degan ma'noni anglatgan.

Zantu qabilasi va hududi zantupati – "qabila qo'riqchisi boshlig'i" tomonidan boshqarilgan. Zantupati bir vaqtning o'zida din va huquqiy masalalar bilan shug'ullangan. Bu vazifa uchun zantuma atamasi qo'llanilgan.

Daxyu atamasi ostida zardushtiylik olamida katta hududiy birlik, ya'ni qabilalar uyushmasi tushunilgan. Bunday daxyular ariylik va noariylikka ajratilgan, masalan, turlar daxyusi, saklar daxyusi. Binobarin, zardushtiylikning shakllanishida daxyu birinchi navbatda etnik jamoali hududiy-geografik tushunchadir.

Ma'muriy mohiyatiga kelsak, daxyu daxyupati deb atalgan boshliq tomonidan boshqarilgan, uning diniy va huquqiy vazifalari daxyuma deb atalgan. Daxyupati atamasi bilan bir qatorda sastar – "harbiy boshliq, hudud hokimi" atamasi uchraydi. Bundan tashqari xshayant atamasi "hokim, boshqaruvchi" ma'nosini anglatgan. Bir nechta daxyu bitta daxyusastga birlashgan. Xuddi shunday unvon bunday birlashma hokimiga berilgan. Daxyusasti hokimligini daxyu uyushmasi a'zolarining kengashi cheklagan. Bu kengash daxyunam va fratemadato "birlamchi viloyatlar kengashi" deb atalgan. Daxyusatining diniy boshlig'i zaratushtroetoma – "zardushtga judayam o'xshagan" deb atalgan.

Shunday qilib, zardushtiylikning tarixiy foni ijtimoiy institutlarning murakkab chatishib ketishlari bilan bog'liq. Chunki, jamiyat ibtidoiy jamoa munosabatlaridan hududiy davlat munosabatlariga o'tish davrini boshidan kechirmoqda edi. Bu o'zgarishlarning barchasi ma'lum ijtimoiy-siyosiy boshqaruvni g'oyaviy asoslash va ushbu g'oya atrofida ma'naviy birlashishni taqozo etardi.

Zardushtiylik tizimidagi eng yuqori pog'onani Axuramazda egallaydi. U ezgu dunyoning – Xvaniratning yagona yaratuvchisi. Bunday g'oya bronza asrida va temir davrining boshlarida o'troq Markaziy Osiyo muhitida jamiyat hayoti uchun tinch sharoit yaratish talabidan vujudga keldi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot dastlabki davlat shakllanayotgan yo'ldan ketmoqda edi. Ilk zardushtiylik davrida madaniy dunyoning tarqoq qismlarini birlashtirish uchun yagona g'oya zarur edi. Ayni paytda, "Kuch" g'oyasiga tayangan kuchli hokimiyatga ham ehtiyoj bor edi.

Bunday birdamlik bosqinchilik va talonchilikka, o'troq yer egalari va ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasidagi qonli urushlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borishdammuhim omillardan biri bo'lgan. Ana shunday sharoitda yagona xudo g'oyasi barcha muammolarni hal etish uchun kalit edi. Xususan, Zardusht targ'ibotlarida shunday deyiladi: "O Mazda qachon o'tloqlarga tinchlik va yaxshi hayot beradigan Arta (Haqiqat) va hokimiyat (Xsharta) bilan Tinchlik (Armaiti) keladi? Kim bizni qonxo'r durug'vantlardan (Yolg'onchilardan) qutqaradi?"

Diniy nuqtai nazardan bu targ'ibot yakka xudolikni o'rnatishga, qabila va boshqa mahalliy kulablarni inkor etishga qaratilgan. Biroq Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy kulablari o'z vazifalarini oltita emanatsiya, ya'ni yakka yaratuvchining irodasini ifodalovchi shakllardan iborat bo'lgan Axuramazda roliga mujassam etdilar. Bular: Voxumana "ezgu fikr", Asha vaxishta "haqiqiy mavjudlik", Spenta armaiti "muqaddas yer va undagi osuda hayot", Xshatra Varya "adolatli hokimiyat, saylangan hukmdor", Xaurvatat "butlik va omonlik, sog'lik", Ameretat "mangulik". Bu yakka xudo Axuramazda vazifalarining olti emanatsiyasi – yaratuvchilik jarayoni ezgu niyatlarga, yaxshi fikrlarga asoslanishi lozim, faqat shundagina yaxshi hayotga umid qilsa bo'ladi, degan umumiy g'oya bilan uzviy bog'liq. Insonlar farovonligiga qaratilgan ushbu ikki funktsiya yerda amalga oshirilishi kerak edi, bu maqsadga uchinchi funktsiya – Spenta Armaiti – muqaddas yer va undagi osudalik dahosi sifatida xizmat qilishi zarur. Birinchi uchta vazifa o'zaro harakat qilib, yerda hayot farovonligiga sabab bo'lgan. Dunyo barcha boyliklarga, mol va odamlarga to'ladi, bu esa o'z navbatida yaxshi niyatga asoslangan adolatli boshqaruvni taqozo etadi. Birinchi to'rt funktsiya ta'minlansa, dunyo bus-butun (yaxlit), sog'lom va abadiy bo'ladi.

Zardushtiylik yakkaxudolik g'oyasiga asoslansa-da, aslida ko'p xudolik elementlarini saqlab qolgan holda dualistik bo'lib qoldi. Bunga sabab Zardusht ta'limotining murakkabligi oqibatida uning umumiy nomi devi, dayva (osmon) bo'lgan turli xudolarga sig'ingan otashparastlar tomonidan qiyinchilik bilan qabul etilganligidir. Zardushtiylik dayv – devlarni inkor etib, ularni abstrakt yagona xudo g'oyasi bilan almashtirdi. Biroq dunyo butkul yaxshi bo'lib qololmaydi. Ezgulik bilan yonma-yon turgan yovuzlik sabablarini, ijobiy hodisalar bilan bir qatorda sodir bo'layotgan salbiy holatlarni tushuntirish lozim edi. Bunday savollarga javoban, yomon misol tariqasida yovuz asoslar g'oyasi kelib chiqdi. Yaxshilikka xizmat qiluvchi kishi bu misoldan xulosa chiqarishi kerak edi. Negaki, Axuramazda qudratli hisoblanadi. Uning qo'lidan yovuzlikni boshidanoq yo'q qilish keladi, biroq u bunday qilmaydi. U insonga yovuzlik va ezgulik orasida tanlash imkonini beradi. Chunki e'tiqod faqat inson o'z xudosisiga, ezgulik g'oyasiga oxirigacha vafodor bo'lsagina chin va haqiqiy sanaladi.

Zardushtiylik dualizmida uning ikki asosi avval-boshdanoq bir-biriga zid bo'lib, ular orasida cheksiz kurash boradi. Bu kurashda ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qiladi, aks holda dunyo yo'q bo'lib ketardi.

Axuramazdaning ezgulik asosining g'alabasi uning osmondagi navkarlari, ya'ni xudolar va boshqa e'zozlanadigan osmon ahlisiz amalga oshishi mumkin emasdi. Bular yuqorida aytilgan Axuramazdaning olti emanatsiyasi bo'lib, ular ameshaspenta (mangu yashovchilar) deb ataladi. Mitra – “bitim xudosi”. U xudoga berilgan va'dalarning bajarilishi, ya'ni Mazdayasna dinida bo'lish qaroridan qaytmaslik ustidan qat'iy nazorat olib boradi. U keng yaylovlar, ezgu dunyoning cheksiz yerlari xvanirat egasi bo'lib, unda dinning ravnaq topishini ta'minlaydi.

Zardushtiylikda yuqori mansab itoatkorlik, intizom va adolatparvarlik xudolari Sraoshe va Rashnuga tegishli. Ular u dunyoda inson tomonidan sodir etilgan ezgulik va yovuzlikni o'lchab, o'lganlar jonining taqdirini belgilaydi.

Zardushtiylik vaqt va fazoning cheksizligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lgan. Fazo ikki qismga bo'linadi:

1. Cheksiz yorug'lik – ezgulik, unda Axuramazda mangu yashaydi.

2. Cheksiz qorong'ulik, bunda barcha yovuz asoslarni draugadan tortib zararli hasharotlargacha yaratgan Axriman mangu yashaydi.

Axuramazda o'zining cheksiz fazosida cheksiz vaqt (zravana- akavana) yashaydi. Biroq uning irodasi bilan cheksiz vaqtning oxirgi qismi zravan xvadata belgilangan, uning uzunligi 12 ming yil. Bu vaqt har birining uzunligi 3 ming yildan bo'lgan to'rt qismga bo'linadi. Birinchi uch ming yillik, bu - Axuramazdaning ezgu dunyoni forsha myonok, tojikcha minu kabi qiyosan ideal, nomoddiy ko'rinishda (manyava - “tasavvurdagi ideal dunyo”) yaratgan davri. Shu davrda bo'lajak jonli va jonsiz moddiy buyumlar – fravashilarning ruhlari yaratilgan. Birinchi uch ming yillik oxirida yorug'lik va ibodatni yomon ko'ruvchi Axriman yorug'lik va zulmat chegarasida paydo bo'ladi. Hasad va g'azabdan u yomonlik qila boshlaydi. Uch ming yillik shu tariqa davom etadi. Axura Mazda butun ezgu dunyoni o'z tanasidan yaratgan: boshidan osmonni, oyog'idan yerni, ko'z yoshlaridan suvni, sochlaridan o'simliklarni, ruhidan esa olovni yaratgan.

Zardushtiylik bo'yicha yer dumaloq, osmon uch pog'onali: yulduzli, oyli va quyoshli; quyosh sferasidan keyin “shon-shuhrat uyi - garo dmano” – Axuramazdaning jannati joylashgan, taqvodorlar ruhi aynan shu yerga intilishi kerak. Pastda esa Axrimanning qorong'u makoni – daujaxvo – do'zax joylashgan.

Birinchi bosqichda Axuramazdaning ezgu asoslari turg'un edi: yomonlik, kasallik va o'lim, qorong'ulik, yovuz niyatlar, yolg'on va jinlar yo'q edi. Axuramazdaga oldindan ma'lum Axrimanning paydo bo'lishi ezgulikni ongli va erkin ravishda tanlash uchun ezgulik va yovuzlikni aralashtirib yuborishi zarur edi. Natija shu bilan yakunlandi. Uchinchi uch ming yillik – ezgulik va yovuzlik

o'rtasidagi shiddatli kurash davri bo'ldi. Nihoyat, Zardushtning tug'ilishi bunday aralashish jarayoniga chek qo'ydi va poklanish davri boshlandi. 12 ming yillik oxirida Axuramazda Axriman bilan kurashib uni butkul yo'q qiladi. Ezgu dunyoning oltin asri boshlanadi. Oxirgi uch ming yillikda har ming yilda dunyoga uchta xaloskor "osaoshiyant"lar keladi, bular "Uxshyat ereta", "Uxshyan nemat" va "Saoshiyant". Ular Zardusht avlodlari sanaladi. Oxirgisining davrida yerda hayot-mamot jangi bo'ladi: Demovand tog'i qoyasida zanjirband etilgan Ajidaxaka (Ajdaho) zanjirini uzib, Saoshiyant bilan bellashadi. U esa barcha taqvodorlar ruhini tiriltirib, Ajidaxakani yengadi. Dunyo esa erigan metall oqimi bilan poklanadi. Shundan so'ng qolgan barcha narsa mangu baxtli hayot kechiradi.

Zardushtiylik axloqi ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat, haqiqat va yolg'on o'rtasidagi kurashni anglatadi. Axura Mazdaning yaratuvchanligining asosiy maqsadi ezgulikning yovuzlikka qarshi kurashiga yordamlashishga qaratilgan. Bu, avvalo, taqvodirlarning ezgu dunyo ideali va tinchligi uchun fazoviy kurashidagi ongli va faol harakatlaridir. Kurash natijasi insonning o'ziga bog'liq. U Yolg'on yoki Haqiqatni tanlashi, ezgu dunyo farovonligi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishi lozim. Zardushtiylik a'zosi bo'lgan taqvodor – ashavana faoliyatining mohiyati axloqiy triada: "xumata" (ezgu niyat), "xuxta" (ezgu so'z), "xvarishta" (ezgu ish) bilan belgilanadi. Bu taqvodorlar xatti-harakatlarining uch qoidasi g'ayridinlar – durug'vantlar triadasiga: "dushmata" (yovuz niyat), "dujuxta" (yomon so'z), "dujvarshta" (yomon ish) ga qarshi qo'yiladi.

Zardushtiylik yaxshiliklar qatorida taqvodirlarning yaratuvchanlik faoliyatiga alohida e'tibor beradi. Bu yerga ishlov berish, molga yaxshi munosabatda bo'lish: Mazdaga sig'inuvchilar e'tiqodining asosi don yetishtirish. Kimda-kim don yetishtirsa, u haqiqatga intilib, Axura Mazda e'tiqodini ilgari suradi va ishonchga sazovor bo'ladi. It eng yaxshi hayvonlardan hisoblanadi, chunki u taqvodorlar podasi va uyini qo'riqlaydi. Videvdat bo'yicha it huquq borasida salkam odamga tenglashtiriladi. It o'ldirganlar, unga shikast yetkazganlar qattiq jazolangan. Xuddi shunday it odamga tan jarohati yetkazsa unga ham jazo berilgan, uning o'ng yoki chap qulog'i kesilgan va hokazo. Zardushtiylik, shuningdek, haqiqatgo'ylik, saxiylik, er-xotin vafodorligi, bola tarbiyasi kabi insoniy munosabatlarni ko'zda tutadi va boshqaradi.

Zardushtiylik marosimlari turlicha va o'ziga xos. Masalan, marosimda uchta qurbonlik predmeti mavjud: "Xauma", inson ruhini marosimga to'la yo'naltiruvchi muqaddas ichimlik, "draunax" (non) va "myazda" (mayiz yoki mevalar). Ayrim mualliflar manbada kelgan "myazda" so'zini go'shtli biror narsa deb taxmin qiladilar. Zardushtiylik ruhoniylari diniy marosim jarayonlarini boshqaradigan va ularga xizmat ko'rsatadigan maxsus shaxslardir. Mazkur marosimlar olov

ibodatxonalarida o'tkazilib, bunda olov marosim markazi bo'lgan va olov orqali xudo taqvorlar duosini "qabul" qilgan. Qadimda ibodatxonalar ochiq yerlarda tabiiy yoki sun'iy tepaliklarda bo'lgan. Keyinchalik maxsus otashkadalar – "olov uylari" qurila boshlagan. Bosh kohin "zautar" unvoniga ega bo'lgan. Bu islomdagi imomchilikka o'xshaydi. Avestoda shunday qator bor, unda aytilishicha, zautar duoni ovoz chiqarib o'qiydi, bilganlar qaytaradilar, bilmaganlar zautarga taqlid qilib harakat qiladilar. Ushbu holat islom marosimlaridagi "iqtido" (ibodatda imomga ergashish)ga juda o'xshaydi. Gap shundaki, "Avesto" matnlarida Axura Mazda bashoratining muqaddas so'zlari saqlanib qolgan, shuning uchun ular ilohiy so'zlarning muqaddasligi talab qilganidek aniq va ravon talaffuz etilishi lozim edi.

Zardushtiylik bir yilda har biri besh kundan davom etadigan oltita bayramni belgilaydi. Bayramlar orasida goxanvar – har biri o'ttiz kundan iborat bo'lgan 12 oydan keyingi besh kunlik bayrami asosiy o'rinni egallaydi. Yilning 360 kunidan qolgan kunlari xursandchilik, diniy marosimlar bilan o'tkazilgan. Shunday qilib yangi yil – Navro'zning yaxshi kirib kelishiga umid qilingan.

Zardushtiylikda bir kecha-kunduz besh qismga bo'linadi: ratu (belgilangan ilohiy tartib), xavani (sahardan tushgacha), rapitvina (tushdan soat 3-4 gacha), uzayyarina (oqshomgacha), avistrutrima (yarim tungacha), ushaxina (tun yarmidan sahargacha). Sutkaning bu nomlari ham xudoga o'xshatilib, har biriga ibodat qilinadi – bir kunda besh marta namoz o'qiladi.

Hozirgi kunda zardushtiylik Hindistonda joylashib qolgan fors "Mazda Yasna" jamoalarining an'anaviy dini bo'lib qolgan. Bugungi kunda dunyo bo'yicha 200 mingdan ortiq zardushtiylik mavjudligi qayd etilgan. Ular Eron va Hindistondan tashqari yana Kanada, AQSh, Angliya, Shri-Lanka, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda istiqomat qiladilar.

Moniylik. Dualistik dinlarning eng yirigi bo'lgan moniylikka Surayk ibn Fatak (216 – 276) tomonidan asos solingan. Uning arablashtirilgan to'liq nomi X-asr arab manbalarida Moniy – Surayk ibn Fatak shaklida zikr qilingan. Ushbu din qadimgi Bobil dinlari, yahudiylik, xristianlik, buddaviylik va zardushtiylikning diniy ta'limotlari asosida vujudga kelgan. O'z davrida Moniylik G'arbda Rimgacha, Sharqda Xitoy va Hindistongacha bo'lgan hududda keng yoyilgan va yuqori nufuzga ega bo'lgan.

Uning ota-onasi (Fatak va Maryam) asli Parfiya sarkardalari avlodlaridan bo'lgan. Moniyning yoshligi gnostiklar (ilk xristianlikda xudo va dunyoning yaratilishi haqidagi ta'limotni yaratishga uringan diniy – falsafiy oqim) ibodatxonasida o'tgan va 12 yoshga to'lganida o'ziga ilohiy xabar (vahiy) kelganini ma'lum qilgan. O'ziga xabar bergan ilohning nomini Moniy ya'ni "ikki mohiyat (Nur va zulmat, yaxshilik va yomonlik) ruhi" deb atagan. Shunga ko'ra,

uning ta'limotini ikkixudolik g'oyasi (gnostik dualizm)ga asoslangan deb aytiladi. Shundan so'ng unga Moniy – "Ruh" laqabi berilgan.

241–yil Moniy 24 yoshga yetganda unga o'z ilohidan yana vahiy kelgan va nihoyat o'z ta'limotini ochiq va baralla targ'ib qilish vaqti yetganini bildirgan. Shundan so'ng Moniy yangi dinga asos solishga qaror qilgan va o'zining diniy targ'ibot ishlarini boshlagan. 242 yilda Fors davlati shohi Shopur I ning taxtga o'tirish va toj kiyish marosimi paytida Moniy birinchi marta o'z ta'limotini ommaviy bayon etib, va'z aytgan. Shundan so'ng Moniy Shopur I ning vafotiga qadar (273 yil) mamlakatda o'zining diniy targ'ibotini olib bordi. U o'zini shu dinning asoschisi va payg'ambari deb bilgan va butun Fors davlati, Hindiston, Old va O'rta Osiyo bo'ylab safarlar uyushtirgan. U o'z safarlari davomida zardushtiylik, hinduiylik, yahudiylik, buddaviylik va xristianlik dinlari faollari bilan muloqotlar uyushtirgan hamda ularning ta'limoti, ibodatxonalarining faoliyati va targ'ibot uslublarini o'rganib, o'z ta'limotining targ'ibot – tashviqot ishlarida foydalangan. Shunday bo'lsada Moniy, o'z faoliyatini qatl qilingunga qadar Fors mamlakati hududidagina amalga oshirgan.

Moniy o'zini Zardusht, Sitxarta Gautama (Budda) va Iso Masihlarning izdoshi deb biladi. 275 yilda mamlakatda yuqori nufuzga ega bo'lgan Maglar (zardushtiylik ruhoniylari)ning qistovi bilan Fors davlatining yangi shohi Bahrom I Moniyni zindonga tashlashga farmon bergan va 276 yilda qatl ettirgan. Shundan so'ng Moniy izdoshlarining ba'zilar qiynoqlarga mahkum etilgan, ayrimlari mamlakatdan badarg'a qilingan. Aksariyat qismi esa g'arbda Rim imperiyasi, sharqda esa Hitoy, Uyg'uriston hamda ularning atrofidagi davlatlarda panohtopib, moniylik ta'limotini rivojlantirganlar.

Moniyning ta'limotida Nur va Zulmat o'rtasidagi azaliy kurash asosiy o'rinni egallaydi. Moniy o'zini avvalgi dinlarning "to'g'rilovchi payg'ambari" deb e'lon qilgan. U xristianlikdan messianizm va "Masih" e'tiqodini o'zlashtirgan.

Borliqning 2 substantsiya asosi — yorug'lik, yaxshilik va ruh olami bilan zulmat, yovuzlik va moddiyat olamining o'zaro kurashini e'tirof etuvchi zardushtiylik dualizmi moniylikning asosini tashkil etadi. Ularning e'tiqodicha, birinchi olamda Nur (Xudo), ikkinchisida — Zulmat (Shayton) xukmronlik qiladi. Inson ikki unsurdan – Nur farzandi bo'lgan ruh va Zulmat farzandi hisoblanmish jismdan iborat mavjudotdir. Shuning uchun inson Zulmat kuchlariga qarshi kurashda Nur kuchlariga yordam berishi lozim deb qaraladi. Ushbu ikki olam o'rtasidagi kurash falokat bilan tugaydi, natijada moddiyat halokatga uchrab, ruh g'alaba qozonadi.

Moniylik ta'limotiga ko'ra, bu dunyo yovuzlik dunyosi deb qaralgan va patsifizm (urushmaslik) hamda mol–dunyo yig'imaslik muhim o'rin tutgan. Moniylik o'z e'tiqod qiluvchilaridan mol–mulklaridan 1/10 hissa xayri–sadaqa

berishni, bir kecha kunduzda to'rt mahal ibodat qilishni, yolg'onchilik, qotillik, o'g'irlik, zino, baxillik, sehrgarlik va unga ishonishni, butparastlik kabi amallardan uzoq yurish talab qilgan.

Moniylik o'z davrida aholining quyi tabaqa vakillari orasida keng tarqalgan. Bunga sabab ular Zulmat olamini zodagonlarning zulmlari qiyofasida tasavvur qilganlar va bundan xalos bo'lish uchun Nurga ibodat qilganlar. Bu bilan Nurning g'alabasiga har kim o'z hissasini qo'shmoqda deb ishonganlar.

Moniylik 763–840 yillar davomida Turk–uyg'ur davlatining rasmiy dini bo'lgan. O'z yurtlaridan quvilgan moniylik, Kichik Osiyoning chekka hududlariga yashirinishga majbur bo'lishgan. Moniylik umumiy lashtiruvchi din bo'lgani sababli to'g'ridan to'g'ri “payg'ambar”ning yozma buyruqlariga asoslanadi. Uning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan. Moniylik ta'limoti u tomonidan tuzilgan “Shopurkan”, “Tirik Hushxabarchi” (Moniy va uning ta'limoti haqida), “Pragmataya” (sirlar kitobi), “Kefalaya” (Boblar) kabi kitoblarda asoslab berilgan va ayrimlari rus tiliga tarjima qilingan.

Markaziy Osiyoda Moniylikning yirik markazlari Marv shahri va Samarqandda bo'lgan. Bu dinning Sharqda keng tarqalishida ushbu markazlarning roli katta bo'lgan.

Moniylikdan bugungi kunga qadar birgina Xitoyning Futszyan viloyati Syuanьchjou tumanida joylashgan moniylik ibodatxonasigina saqlanib qolgan. Bu din qanchalik yengillikka va oddiylikka asoslangan bo'lsada, tarixning murakkab sinovlariga bardosh bera olmadi. Natijada u din sifatida unutildi. Undan esa, yirik tadqiqotlar uchun ma'lumotlarga qolgan xolos.

Yahudiylik. Milliy dinlardan biri bo'lgan Yahudiylik taxminan mil.avv. 2 – ming yillikda Misrda paydo bo'lgan. Yahudiylik ta'limotiga ko'ra, Xudo 400 yil davomida Misrda qullikda saqlanib kelgan Ibrohim avlodlarini ozod qilib, Misr yerlaridan olib chiqib ketgan Muso (Moshe)ga Sinay tog'ida vahiy yubordi va yahudiylik dini yuzaga keldi, deb hisoblanadi.

Hozirda dunyo bo'yicha taxminan 15–20 million kishi yahudiylikka e'tiqod qiladi. Ulardan 4,4 millioni Isroilda, 6 millioni AQShda, qolganlari esa Yevropa va dunyoning boshqa mamlakatlarida istiqomat qiladi.

Yahudiylik dini vakillari manbalarda “yahudiy”, “ibroniy” va “isroil o'g'illari” kabi nomlar bilan tilga olinadi. Bani Isroilning 12 qabilasiga asos solgan, deb hisoblanadigan Ishoq payg'ambarning o'g'li Ya'qubning 12 o'g'lidan birining ismi “Yahuda” bo'lgan degan taxmindan kelib chiqqan holda uning ismiga monand ravishda “yahudiy” atamasi shakllangan.

Muso payg'ambarning “Biz senga qaytib, yolvordik” so'zlariga tayanib bayon etilgan boshqa bir taxminga ko'ra, yahudiy so'zi arabcha “هــدا”(hoda) o'zagidan kelib chiqqan bo'lib, “qaytish” va “tavba qilish” ma'nolariga ega. Tarixiy

manbalarda “ibroniy” atamasi (ibr. “Ibri” – “narigi tomonning odami, kelgindi”) Frot va Iordan daryolarining narigi tarafidan kelgan ko’chmanchilarga nisbatan ishlatilgan.

Yuqoridagi kabi yondashuvlarni umumlashtirgan holda mutaxassislar orasida bu xalq Kan’on (Falastin)ga joylashishdan oldin yahudiy, Kan’onda ibroniy, keyinroq esa Bani Isroil deb nomlangan va ushbu uch atama bir–birining o’rniga ishlatilgan, degan qarashlarda muayyan yakdillik mavjudligini alohida qayd etish lozim.

Umuman olganda, yahudiylikda nasl–nasab otaga emas, balki onaga qarab belgilanishidan kelib chiqqan holda yahudiy onadan tug’ilganlar boshqa din tanlamaydilar. Agar boshqa millat vakillari yahudiylikka o’tishni istasa, unda u ruhoniylar tomonidan belgilab qo’yilgan diniy qonun–qoidalarga itoat etishi shart hisoblangan.

Har bir din asoslarini qamrab oladigan manbalar mavjud. “Tanah” va “Talmud” Yahudiylikning ana shunday manbalaridan hisoblanadi. “Tanah” (“Qadimgi ahd”) xristianlikning ham muqaddas kitobidir. Shunday bo’lsa–da, ularning bo’limlari borasida juz’iy farqlar uchraydi. Jumladan, “Bibliya”da “Qadimgi Ahd” 39 ta kitobni o’z ichiga olsa, yahudiylikda ba’zi qismlar birlashtirilgani uchun 24 ta kitobdan tashkil topgan.

“Tanax”ning birinchi bo’limi “Tora” (ibr. – qonun, amr, dars, rahbar)ning o’zi besh kitobdan iborat. U Xudo tomonidan Muso payg’ambarga Tur tog’ida tahminan mil.avv. 1571 yilda nozil qilingan, deb e’tiqod qilinadi.

Yahudiylikda mil. avv. 586 yilda ravvinlar va yahudiy dini arboblari tomonidan jamlangan “Bobil Tavroti”ga tayanilsa, xristianlikda uning yunon tiliga tarjima qilinishi natijasida “Yunon Tavroti”, shuningdek, tarjima qilishda 72 ta yahudiy ruhoniylar ishtirok etganidan kelib chiqib “septuaginta” deb nomlangan “Tavrot”ga asoslaniladi.

50 bobdan iborat “Ibtido” (ibr. – “Bereshit”) kitobi “Tavrot” tarkibidagi birinchi kitob hisoblanadi. Unda ilk inson va koinotning yaratilishidan to isroil xalqining Misrga kelib joylashishigacha bo’lgan voqealar tadrijiy ravishda bayon qilingan.

40 bobdan iborat “Chiqish” (ibr. – “Shemot”) kitobida esa, isroil xalqining Muso boshchiligida Misrdan chiqishi va shu voqea bilan bog’liq tafsilotlar hikoya qilingan. 27 bobdan iborat “Loviylar” (ibr. – “Vayikra”) kitobida esa, yahudiylik dinining asosiy axloqiy asoslari va diniy ko’rsatmalar, gunohlarning kafforati, iste’moli harom qilingan narsalar, taqiqlangan nikohlar, diniy marosimlar, bayramlar va qurbonliklar bilan bog’liq masalalar yoritilgan.

Bani isroilning cho’lda o’tkazgan hayoti va boshdan kechirgan hodisalari, qoya toshdan suv chiqarilishi, o’lim va ilon vositasida shifo topish bilan bog’liq

bo'lgan ma'lumotlar esa 36 bobdan iborat "Sonlar" (ibr. – "Bamidbar") kitobida keltirilgan. Musoning o'limi, dafn etilishi, tutilgan aza va shu kabi masalalarni o'z ichiga olgan 34 bobdan iborat "Ikkinchi qonun" (ibr. – "Dvarim") kitobi esa "Tavrot"ning so'nggi qismini tashkil etadi.

"Tavrot"ning sharihi sifatida e'tirof etiladigan "Talmud" (ibr. – "o'rganish") og'zaki tarzda avloddan avlodga o'tib kelgan. Keyinchalik ularni unutish xavfi paydo bo'lishi yahudiylarning kelajagiga tahdid sola boshladi.

Bundan tashvishga tushgan yahudiy ruhoniylari og'zaki bo'lgan "Talmud"ni yozma shaklga keltirganlar. "Talmud" yahudiylar uchun "Tavrot" kabi ahamiyatga ega bo'lib, uning vahiy va ilhom mahsuli ekaniga ishonilib, uni inkor qilgan kishi yahudiy, deb e'tirof etilmaydi.

Qadimdan "Talmud"ning hajmiga alohida e'tibor berishgan. Shuning uchun ham, mavjud "Talmudlar"ning barchasi 2947 varaq va 5894 betdan iborat.

Umuman olganda, ovqatlanish, kiyinish, ozodalik, kun tartibi, ibodatlar, marosimlar va bayramlarga taalluqli masalalarni o'z ichiga olgan "Talmud"da yahudiylarning marosimlari tizimi ishlab chiqilgan, deyish mumkin.

Shuningdek, unda yahudiylar butun umri davomida qat'iy amal qilishi va bajarishi lozim bo'lgan 248 ta buyruq va 365 ta taqiq ham mavjud. Tug'ilgan o'g'il farzand sakkiz kunligida xatna qilinishi, faqat maxsus qassob – shoyixet tomonidan diniy qoidalarga muvofiq so'yilgan go'shtnigina iste'mol qilish, erkaklarning bir rangdagi (sidirg'a) matodan uzun qilib tikilgan, cho'ntaklari beldan pastda joylashgan kiyim kiyishi, boshni hatto uyquda ham yopib yotishi zarurligi haqidagi talablar shular jumlasidandir.

Ibodot paytida "Talmud"da keltirilgan 248 ta buyruq va 365 ta taqiqqa amal qilishlarini o'z zimmalariga olganlarning ifodasi sifatida qirg'oqlarida 613ta tugun tugilgan maxsus ibodat choyshabi – "tales"ni yelkalariga tashlab olishlari ham, ushbu talablarning yahudiylar hayotida nechog'lik ulkan ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Yahudiylar ta'limoti Xudo tomonidan Musoga nozil qilingan "O'n (10) amr"ga rioya qilishga asoslanadi. Ularning e'tiqodiga ko'ra, O'n amr Muso payg'ambarga Tur tog'ida ikki marta tushirilgan bo'lib, "Tavrot"ning "Chiqish" va "Ikkinchi qonun" kitoblaridan o'rin olgan. Bular quyidagilar:

– Dunyoni yaratgan, yakka–yu yagona Yahvedan boshqa iloh yo'qligiga imon keltirish;

- Yahvedan boshqaga ibodat qilmaslik;
- Xudoning nomini bo'lar bo'lmasga tilga olavermaslik;
- Shanba kunini muqaddas bilib, u kunda dam olish;
- Ota–onani hurmat qilish;
- Qotillik qilmaslik;

- Zino qilmaslik;
- O'g'rilik qilmaslik;
- O'z yaqinlari (yahudiylar) haqqiga yolg'on guvohlik bermaslik;
- O'z yaqinlari uyiga, ayoliga, quliga, hayvonlariga, umuman unga tegishli bo'lgan narsalarga ko'z olaytirmaslik.

Shanba kunini muqaddas, deb bilish yahudiylar nazdidagi eng muhim e'tiqodlardan biri bo'lib, bu kuni olov yoqish, ishlash, hatto transportdan foydalanish ham taqiqlanadi.

Yahudiylar aqidasi asosida yakkaxudolik g'oyasi yotadi. “Qadimgi ahd”ga ko'ra bu Xudoning nomi – Yahvedir. Shunday bo'lsa-da, “Chiqish” kitobining 20 – bob 7 – matnida qayd etilgan: “..behudaga Parvardigoringni nomini tilga olaverma” degan ko'rsatmaga muvofiq, Xudoning nomini tilga olish taqiqlangan. Shu bois ibodat vaqtida “Adonay” (ibr. – “Xudo”, “Parvardigor”) nomi zikr qilinadi.

Yahudiylar ibodat (“avoda she-ba-lev” ibroniycha – “Qalb xizmati”), tong, peshin va shom paytida qilinadigan kundalik hamda shanba kuni sinagogada bo'lib o'tadigan haftalik ibodatdek ikki shaklga bo'linadi.

Haftalik ibodat (Shabat–Sabt) juma kuni Quyoshning botishi bilan boshlanadi va shanba kuni nihoyasiga yetadi.

Sinagoga (yun. “jamlanish”; ibr. – “beyt kneset” – “jamlanish o'yi”)da ibodatlar, balog'atga yetgan (o'n uch yosh) va kamida o'nta erkak kishidan iborat jamoat bo'lganda o'tkaziladi. Ruhoniy yoki jamoatdan biron kishi boshqaradigan ibodat vaqtidagi eng muhim lahza “Tavrot” o'ramalarining tugunlar ichidan chiqarilishi va ruhoniy tomonidan o'qilishidir. Ovozni chiqargan holda “Tavrot”dan parchalar o'qish sinagogadagi ibodatlarining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Yahudiylarda faqatgina sinagogada emas, uyda ham ibodat qilinadi. Uylarda kirish eshigining yuqorisida “mazuza” deb nomlangan, uzun bir quvur ichiga o'rama holida qo'yilgan “Tavrot”dan jumlar yozilgan qutichalar osilgan bo'ladi. Uyga kirish va chiqishda yahudiylar “mazuza”ga tegib barmoqlarini o'padilar. Yahudiylarga ko'ra, “mazuza” ularni yovuz ruhlar yomonligidan saqlaydi.

Uyda olib boriladigan ibodat vaqtida boshga bosh kiyim, ustga esa chakmon tashlanadi. Duolarning eng muhimi sanalgan 16 tasi oyoqda tik turgan holda aytiladi. Boshqalarini o'qiyotganda tiz cho'kish, vujudni tebratib turish kabi harakatlar qilinadi.

Yahudiylar ko'plab diniy marosim va bayramlar bo'lsa-da, ular ahamiyati jihatidan bir-biridan farq qiladi. Yahudiylarda Rosh Ashona, Yom Kipur, Pesax, Shavuot, Sukkot, Simxa Tora, Purim, Hanukka va boshqa shu kabi diniy va milliy bayramlar mavjud.

Rosh Ashona (ibr. – “yil boshi”). Yahudiy milliy taqvimiga koʻra yangi yil bayrami tishre (sentyabr–oktyabr) oyining birinchi va ikkinchi kunlarida nishonlanadi. Yahudiylik taʼlimotiga koʻra, bu kunda ilk inson Odam yaratilgan va shu kunda Xudo tomonidan berilgan taqiqni buzib, jannatdan chiqarilgan.

Oʻn kun davom etgan Rosh Ashonaning oxirgi kunida Yom Kipur bayrami nishonlanadi. Bu kuni hech qanday ish qilinmay, faqat ibodat bilan mashgʻul boʻlinadi. Yahudiylar Yom Kipur daroʻza tutishlari, sinagogada namozlar bilan yigʻlab qilgan gunohlariga tavba qilishlari shart. Ularning eʼtiqodiga koʻra, Rosh Ashonada rejalashtiriladigan insonning bir yillik taqdiri Yom Kipurda qilingan ibodat va tavbasiga qarab belgilanadi.

Pesax (Pasxa) yillik bayramlar orasida eng eʼtiborlisi boʻlib, nisan (mart–aprel) oyining oʻn beshinchi kunidan boshlanib, sakkiz kun davom etadi. Ushbu bayram yahudiylarning Misrdagi qullikdan ozod boʻlganlari munosabati bilan nishonlanadi va mazkur kunlarda xamirturishsiz non “matsta” isteʼmol qilinadi. Buni tanovul qilish bilan har bir hududiy ota–bobolarining Muso boshchiligida chekkan mashaqqatlarini his qiladi, deb hisoblanadi.

Pesaxdan keyingi 50–kuni sivon (may–iyun) oyining 6–7 kunlari yahudiylar ikki kun davom etadigan Shavuot (Sheviot) (ibr. – haftalar) bayramini nishonlaydilar. Shavuot dastlab dehqonchilik bayrami boʻlgan, keyinchalik Sinay togʻida Musoga “Tavrot”ning berilishi munosabati bilan nishonlangan. “Talmud”da keltirishicha, Xudo Shavuotning birinchi kechasi Oʻn amrni tushirgan. Shuning uchun ham, mazkur kunlarda “Tavrot”, “Talmud” va shu kabi muqaddas yozuvlaridan saralab jamlangan “Tikun”ni oʻrganishga alohida eʼtibor beriladi.

Sukkot (chodirlar bayrami) yahudiylar Misrdagi qullikdan ozod boʻlganlaridan soʻng, choʻlda chodirlarda kun kechirganlarini xotirlab oʻtkaziladigan marosim. Qadimda yahudiylar mazkur marosim kunlarida Quddusga ziyoratga borganlar. Bugunga kelib bu anʼana tusidan chiqqan. Sukkot tishre (sentyabr–oktyabr) oyining 15–kunidan boshlanib 7 kun davom etadi. Yahudiylar bu muddat davomida anʼanaviy ravishda, oʻz uylarining oldiga chodir quradilar.

Har yili bir marta “Tavrot” oʻqib chiqilib, oxirida Sukkot boshlanishining 9–kuni xatm bayrami “Simxat Tora” (ibr. “Tavrot quvonchi”) nishonlanadi. Har bir yahudiy xonadonida “Tavrot” boʻlib, unga nisbatan hurmat hamma narsadan ustun turadi. Biror yigʻilishda “Tavrot” yerga tushirib yuborilgudek boʻlsa, u yerda boʻlganlarning barchasi kafforati evaziga 30 kun roʻza tutishlari shart boʻladi.

Milliy xususiyatga ega Purim (Shirinlik bayrami) adar (fevral–mart) oyining 14–kuni nishonlanadi. Ushbu bayram Quddusda 1kun, boshqa joylarda esa 2 kun davom etadi. Bu bayram Ester ismli qiz tufayli yahudiylarning Eronda qatliomdan

qutilib qolishlari sharafiga bag'ishlanadi va unda ko'ngilochar bazmlar uyushtirilib, shirinliklar tarqatiladi.

Hanukka (ibr. – “yangilanish”, “yoritish”) yahudiylarning Suriya qiroli Antiokas ustidan qozongan g'alabalari sharafiga bag'ishlangan bayram hisoblanadi. 168–yilda yahudiylarning Salavkiylarga qarshi olib borgan kurashlari asnosida, yunonlar ibodatxonaga bostirib kirib, u yerdagi yog'larning barini iflos qilib tashlaydilar. Yahudiylar g'alaba qozongach, ibodatxonada menorani yoqish uchun, atigi bitta idishda bir kunga yetadigan toza yog' topadilar. Shunda mo''jiza yuz berib, bir kunga yetadigan yog' bilan sakkiz kun davomida menora yoniq turadi. Kislav (noyabr–dekabr) oyining yigirma beshinchi kunidan boshlanib 8 kun davom etadigan bu bayramning odatiy kunlardan birgina farqi hanukkiya deb nomlangan to'qqiz shoxali shamdondan har kuni bittasining yoqilishidir.

Yahudiylilikda dafn marosimi ham muayyan o'ziga xosliklarga ega. Inson vafot etgach, qarindoshlari maxsus kiyim kiyib (bu urf asosan ortodoksal oqimda saqlangan), sham yoqishadi. Mayyitni oq kafanga o'rab, “Kaddish” (oromiycha – “Muqaddas”, sinagogalarda o'qiladigan ibodat duosi)ni o'qiydilar. O'lik chiqqan xonadonda bir hafta davomida aza tutilib, uydan tashqariga chiqilmaydi. Bir yil o'tgach, mayyitni xotirlab “yil marosimi” (“Yortsayt”)ni o'tkazib, maqbaraga qabr toshi o'rnatadilar. Yom–kipur, Sukkot, Pesax bayramlarida marhumlarni xotirlab “Yizkor” deb nomlanadigan maxsus duolar o'qiladi.

Barcha dinlarda bo'lgani kabi yahudiylilikda ham uzoq tarixiy taraqqiyot davomida ichki bo'linishlar yuzaga kelgan. Xususan, mutaxassislar shartli ravishda ularni uch guruhga – saduqiylar, farziylar va essaniniylarni o'z ichiga olgan klassik, hasidiylar, qaroim kabi oqimlardan iborat o'rta asr va islohotchi, konservativ kabi oqimlarni qamrab olgan zamonaviy oqimlarga ajratishadi. Bulardan tashqari Rekonstruktiv yahudiylar, Messian yahudiylar, Shanbachilar kabi yana bir qator oqimlar bo'lib, ular asosan XIX asrda yuzaga kelgan.

Eron podshohi Kir II tomonidan Bobil egallangach, yahudiylarning ancha qismi Kan'onga qaytib, podshohning roziligi bilan ikkinchi marta o'z davlatlarini qayta tiklashga erishdilar. Muhojirlikda qolgan yahudiylarning bir qismi esa, butun imperiya hududida erkin harakat qilish imkoniyatidan foydalanib, Kir saltanati davrida Sharqqa, xususan, Markaziy Osiyoga ko'chib o'tdilar.

Yahudiylar o'rta asrlarda Yevropa va Vizantiya imperiyasida ayovsiz siquvga olinib, quvg'in qilingan bir paytda, Markaziy Osiyoda boshqa dinlar qatori teng huquqqa ega bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, ilk sinagoga Buxoroda VIII asrda qurilgan. XII asrgacha yahudiylar aholining himoya qilinuvchi qatlami – zimmiylar deb atalib, ularga alohida mahallalar qurib, o'z jamoalari bilan tinch–osuda yashashga sharoit yaratib berilgan. Sayohatchi Veniamin Tudelʼskiy o'z kundaliklarida yozib qoldirishicha, 1170 yilda birgina Samarqandda 30 000

yahudiy yashagan. XVI asrda Eronda yahudiylarga qarshi olib borilgan harakatlar natijasida ularning ko'pchiligi Markaziy Osiyodan panoh topgan. Bu Markaziy Osiyoda yashayotgan yahudiylar sonining yanada oshishiga zamin yaratgan.

Yahudiylarning Markaziy Osiyo mintaqasida uzoq vaqt mobaynida tinch–totuv yashashi va bu yerlarga bog'lanib qolishi ularning tarkibida “buxoro yahudiylari” deb ataladigan qatlamni vujudga keltirdi. Ular, asosan, fors tilining Samarqand–Buxoro dialektlarida so'zlashishgan.

Markaziy Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, Rossiyaning Yevropa qismidan savdo, tijorat qilish maqsadida ko'plab yahudiylar hozirgi O'zbekiston hududiga ko'chib kelishdi.

Yahudiylarning yurtimizga kirib kelishi Ikkinchi jahon urushi davrida yanada kuchaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, o'sha yillari Rossiya, Moldaviya, Ukraina va Belorussiyadan deyarli 180 ming yahudiy O'zbekistonga ko'chib keldi.

Bugungi kunda yahudiylar asosan Buxoro, Samarqand va Toshkent kabi yirik shaharlarda istiqomat qiladilar. Mamlakatimizda Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan 8 ta yahudiy sinagogasi, 5 ta yahudiy milliy–madaniy markazi, shuningdek, Yahudiylar tarixi muzeyi faoliyat olib bormoqda.

Buddaviylik. Diniy–falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelgan buddaviylik bugungi kunda e'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra, xristianlik, islom dinidan keyingi o'rinda turadigan jahon dinlaridan biri hisoblanadi.

Buddaviylik miloddan avvalgi VI–V asrlarda Shimoliy Hindistonda vujudga keldi. Bu davrga kelib ko'p xudolikka asoslangan vedachilik, braxmanlik, jayнизм yangi ijtimoiy sharoitga javob bera olmay qolgan edi. Buddaning bo'ysunish va itoatkorlik, azob–uqubatlardan qutulishning asosiy yo'li, aql farmoniga bo'ysunish orqali inson oliy saodatga erishishi mumkinligi haqidagi g'oyalari o'sha davr ijtimoiy–siyosiy va ma'naviy hayotini yorqin aks ettirar edi.

Buddaviylikning asoschisi Siddhartha (sanskritcha “ezguliklar keltiruvchi”) Gautama Shak'yamuni (mil. av. 567–488 y.) real tarixiy shaxs bo'lib, Hindiston va Nepal chegarasidagi Kapilavasta viloyatining Shak'ya qabilasi hukmdori oilasida tug'ilgan. Manbalarda uning ot minish, ov qilish, yugurish, kurash, she'r o'qish, husnixat va boshqa sohalarida mahoratli bo'lgani, bilimlarni oson o'zlashtirgani uchun donishmandlar unga saboq berishga ojiz qolganlari qayd etiladi.

Azob–uqubat, kasallik, qarilik va o'lim haqidagi haqiqatlardan ogoh bo'lgan Siddhartha umrini inson boshiga tushadigan azob–uqubatlardan sabablarini o'rganish va insoniyatni ulardan xalos qilish uchun bag'ishlashga qaror qilib, 29 yoshida oilasini tark etadi va sayyor darveshlarga qo'shiladi. Olti yil davomida Ganga daryosi qirg'oqlarida rohiblar orasida zohidona hayot kechiradi. Siddhartha bu yo'l uni o'z oldiga qo'ygan maqsad, ya'ni insoniyatni azob–uqubatlardan qutqarish sari

olib bormasligi, tana faolligini so'ndirish haqiqat yo'li emasligiga amin bo'lgach, rohiblar jamoasidan ajraladi.

Rivoyat qilinishicha, Siddhartha 35 yoshida mediatatsiya (lotincha – fikrlash, o'ylash, diqqatni bir joyga to'plab, ongini oliy haqiqatga erishish g'oyasiga qaratish) uchun bir daraxtning ostida dam olib o'tiradi va haqiqatni topmaguncha u yerdan turmaslikka qaror qiladi. Bu o'tirishning 49 kuni uning qalbidan “Sen haqiqatni topding” degan sado keladi. Uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U hech bir joyda osudalik yo'qligini, hamma joyda shoshilish, intilish, harakatni ko'radi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgani, yashash, mavjud bo'lish umidi barchaning tinchini buzib, halok qilayotgani va yana qayta yaratayotganini anglab yetadi. Siddhartha maqsadiga erishib, koinotning barcha sir-asroridan voqif bo'lgach, “Budda” (sanskritcha – xotirjam, nurlangan, oliy haqiqatga erishgan)ga aylangan, deb e'tirof etiladi. Shundan kelib chiqib, Budda soyasida dam olgan daraxt “boddxa” (sanskritcha – nurlangan daraxt) deb ataladi. Budda umrining so'nggi kunlarigacha Hindistonning turli joylarida bo'lib, o'z ta'limotini kishilarga yetkazishga harakat qildi va 80 yoshida dunyodan o'tadi. Buddaning jasadi kuydirilib, xoki sakkiz buddaviy jamoaga yuborildi. Uning hoki dafn etilgan joylarda ibodatxona (“stupa” – sanskritcha qabrlar qo'rg'oniga ko'tarilishdagi inshoot turi, murda saqlanadigan joy)lar barpo etildi.

Buddaning hayoti bilan bog'liq ko'plab voqealarga afsonaviy tus berilgan. Xususan, rivoyatlardan birida keltirilishicha, Budda 84 marta ruhoniylar, 58 marta shoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, quyon qiyofalarida 550 marta qayta tug'ilgan. So'nggi marta xudolar uni insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar.

Hind podsholari Magadxi Bimbisare va Ajatashatruning buddaviylikni qabul qilishi, keyinchalik imperator Ashoka va Kanishkaning qo'llab-quvvatlashi natijasida buddaviylik davlat dini darajasiga ko'tarildi. Buddaviy rohiblar jamoasi – “sangha” shakllandi.

Ma'lumki, braxmanlik va hinduiylikda kishilar “kasta”larga bo'linib, odamlar “past” va “oliy” tabaqaga ajratilgan. Bundan farqli ravishda Budda “inson kim bo'lishidan qat'i nazar, tug'ilishda teng huquqlidir, biri ikkinchisidan ortiq emas”, degan g'oyani ilgari surdi.

Buddaning shogirdlari Yer yuzida birinchi rohiblar, keyinchalik rohibalar jamoasi – “sangha”ni (bungacha ayollar ibodatxonaga jalb etilmagan) tashkil etdilar. Imperator Ashoka davrida “Txeri-gatxa” (sanskritcha – “Rohibalar qo'shig'i”) nomli tartib-qoidalar va axloqiy me'yorlar kitobi yozilishi esa bu jarayonni yanada mustahkamladi.

Umuminsoniy g'oyalarning targ'ib etilishi hamda har bir millatning Buddha ta'limotini o'z tilida o'qib–o'rganishi mumkinligi buddaviylikning turli hududlarga tarqalishiga zamin yaratgan. Milodning birinchi asrlarida buddaviylik butunlay boshqacha tus oladi. Buddha ilohiylashtirilib, xudo darajasiga ko'tariladi va unga sig'iniladi.

Buddaviylik milodning I asrida Xitoyga tarqalgan bo'lsa, IV asrda Koreyaga, VI asrda Yaponiyaga, VII asrda Tibetga yoyildi. Shunday bo'lsada, XII–XVI asrlarda Mo'g'ulistonga, XVI–XVII asrlarda Buryatiya va Tuvaga, XIX–XX asrlarda Amerika va Yevropa qit'asiga kirib bordi. XII–XIII asrlarda Hindistonning Shimoliy hududida boburiylar sulolasi xukmronligi o'rnatilishi va islomning tarqalishi, qolgan hududlarda hinduiylik dinining to'la qaror topishi natijasida buddaviylik o'zi paydo bo'lgan Vatani Hindistondan siqib chiqarilganini alohida qayd etish lozim.

Budda bilim orqali azob–uqubatlardan qutulish mumkinligini uqtirgan. Buddaviy donishmandlar fikricha, har bir inson juda ko'p ezgu va yaxshi ishlar qilish orqali Buddaga aylanishi mumkin.

Buddaviylik qoidalari va axloqiy tamoyillarini o'zida mujassam etgan va bugungi kunda din izdoshlari tomonidan muqaddas, deb e'tirof etiladigan "Tripitaka", sanskritcha – "Uch savat donolik") milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Hozirda "Tripitaka"ning ilk qo'lyozma nusxasi Shri Lanka (Tseylon) da saqlanadi. "Tripitaka" uchta katta bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim – "Vinaya–pitaka" (sanskritcha – "Axloqiy me'yorlar kitobi"), Ikkinchi bo'lim – "Sutta–pitaka" (sanskritcha – "Duolar kitobi"), Uchinchi bo'lim – "Abhidharma–pitaka" (sanskritcha – "Diniy–falsafiy masalalar kitobi")da diniy ta'limotning asosiy qoidalari ifodalangan.

Buddaviylikda olamlar va ularga xos xususiyatlar haqidagi qarashlar muhim o'rin egallaydi. Buddha ta'limotiga ko'ra, olam uch bosqichli bo'lib, uning birinchisi – eng yuqori mutlaq osoyishtalik hukm suradigan "nirvana" (sanskritcha – so'lish, o'chish) olamidir. Unda inson barcha tashvishlardan xalos bo'ladi, hech bir istak–xohish, ehtirolarga o'rin qolmaydi. Ikkinchi olam – "rupaloka" (sanskritcha – jannat) "boddhisattvalar" (sanskritcha – mohiyati bilim bo'lgan inson) istiqomat qiladigan joy hisoblanadi. Unda jannatning yaratuvchisi, Buddaning biri – Amitabha hukmronlik qiladi. Bu yerda savob ishlari tufayli ruhi gunohdan ozod bo'lgan va "nirvana"ga ko'tarilish huquqiga ega bo'lgan insonlar yashaydi. Uchinchi olam – "kamaloka" (sanskritcha – do'zah) eng quyi olamdir. Bu yerda odamlar va hayvonlar yashaydi.

Budda ta'limotining asosida "hayot – bu azob–uqubat" va "najot yo'li mavjud" degan g'oyalar yotadi. Inson o'ziga xos mavjudot bo'lib, tug'iladi, o'zini–

o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g'oyalar Buddaning ilk da'vatida ta'riflangan "to'rt oliy haqiqat" haqidagi qarashlarda o'z ifodasini topgan.

"Azob–uqubat haqidagi haqiqat". Buddaviylikka ko'ra, har bir tirik jon azob–uqubatni boshidan kechiradi. Shuning uchun ham, har qanday dunyoviy hayot qiynoq, azob–uqubatdir. Tug'ilish – qiynoq, kasallik – azob, o'lim – kulfat, qiyinchilikka duch kelish – mashaqqat, baxtsizlik, umidsizlik – azob, sevmagan kishi bilan yashash – azob, suyuqli odamingdan ajralib qolish – g'am, astoydil xohlagan narsangga erisha olmaslik – azob, orzu–havasga yetolmaslik – azob–uqubat.

"Azob–uqubat sabablari haqidagi haqiqat". Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlarni haqiqiy va doimiy, deb hisoblagani uchun ularga ega bo'lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib keladi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi orzu va intilishlar sababli kelajak hayot uchun "karma" hozirlaydi. Inson o'z nafsining xohish–istaklariga asir bo'lgani uchun azob – uqubat girdobida qoladi. Demak, qayta tug'ilish va yangi qiynoqlarga duchor bo'lish davom etadi. Aksariyat buddaviy donishmandlar fikricha, Buddadan boshqalar "nirvana" holatiga erisha olmaganlar.

"Azob–uqubatlardan xalos bo'lish haqidagi haqiqat". Har qanday o'y–niyat, orzu–havas va intilishlardan butunlay voz kechish "nirvana" holatiga olib boradi. Bu holatda inson qayta tug'ilishdan to'xtaydi. Buddaviylar "nirvana" ruhning oliy holati, deb hisoblaydilar. "Nirvana"da "hayot g'ildiragidan" ajralish ro'y beradi, ya'ni kishi barcha g'am–tashvishlardan xoli bo'ladi, istagi ham, tuyg'usi ham, ehtirolari ham ahamiyatsiz bo'ladi.

"Azob–uqubatlardan qutulishning najot yo'llari haqidagi haqiqat". Buddha "xaloskorlikning ajoyib sakkiz yo'li"ga amal qilish orqali azob–uqubatlardan qutulish yo'li mavjud bo'lib, bu yo'l sakkiz narsaga amal qilish ya'ni meditatsiya deb nomlanadi. Bular quyidagicha talqin etadi:

– to'g'ri maslak (dunyoqarash). "To'rt oliy haqiqat"ni bilish, idrok etish va unga ishonish;

– to'g'ri maqsad. Ta'magirlik, nafs, hirs, badxulqlik, bag'ritoshlik hislaridan xoli bo'lish, dunyoviy huzur–halovatdan xalos bo'lish, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar yetkazib qo'yishdan saqlanishga intilish;

– to'g'ri so'z. Yolg'on, tuhmat, haqorat, manmanlikdan xoli bo'lish, befoyda gaplardan saqlanish;

– to'g'ri sa'y–harakat. O'lim (qon to'kish), o'g'irlik, zinodan saqlanish, o'ziniki bo'lmagan narsaga ko'z olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik, o'zidagi yomon tuyg'ularni jilovlash hamda ezgu tuyg'ular va harakatlarni rivojlantirish;

– to'g'ri turmush tarzi. Noma'qul hayot tarzidan saqlanish, g'ayriixtiyoriy harakatlarsiz, birovlariga ziyon yetkazmay yashash;

– to'g'ri intilish. Erishilgan muvaffaqiyatlarni rivojlantirish, xaloskorlik yo'lida yig'ilgan tajribani asrashga erishish yo'lida tinmay harakat qilish;

– to'g'ri fikrlash (diqqat–e'tibor). Tanaga, hissiyotga, ong va ruhiy holatlarga diqqat–e'tibor qaratish, ularning mohiyatini aniq belgilash, ehtiros va iztiroblarga chek qo'yish,

– to'g'ri mulohaza (o'z fikr–xayollariga cho'mish).

Buddaviylar har oyda ikki marta “Tiyilish kuni” marosimini o'tkazadilar. Ibodatdan oldin muattar hid taralib turishi uchun Buddha haykali atrofiga gullar qo'yilib, shamlar yoqilgan. Ibodat Buddha haykaliga qarab bajariladi. Buddaviy rohiblar muqaddas kitobdan parchalar o'qishadi. Marosim tugagach, rohiblar ibodatga kelgan kishilar ustiga, ular o'z navbatida yerga suv sepadilar. Shu yo'l bilan rohiblar bilan oddiy kishilar o'zlaridagi yaxshi hislatlarni o'zaro baham ko'rishga intilishlarini namoyish etadilar. Ibodat paytida guldan foydalanishda ham chuqur ramziy ma'no bor. Zero, so'lib qolgan gul hayotning o'tkinchiligi, muattar hid esa buddaviylikka e'tiqod qiluvchilarning go'zal xulq–atvorli bo'lishi lozimligini eslatadi.

Buddaviylikda ibodatlar xoli (yakka holda) ham amalga oshiriladi. Bu insonning istagan paytda ibodat qilish, o'z ichki olamiga kirib, ishonch–e'tiqodining mohiyati haqida mushohada yuritishiga imkon yaratadi, deb hisoblanadi. Diniy urf–odat va marosimlarning oddiyligi buddaviylikning jahonning turli mamlakatlarida keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Buddaning tug'ilgan, nurlangan va vafot etgan kunlarini xotirlash bilan bog'liq marosimlar mavjud. Xususan, Buddaning tug'ilgan kuni ommaviy bayram sifatida nishonlanishini alohida qayd etish lozim. Aprel oyida 2–Z kun davomida nishonlanadigan “Yangi yil bayrami”da Buddha, avliyolar, ajdodlar yodga olinib, suv sepiladi. Suv seplash yomg'ir chaqirish va xotirjam hayot belgisi hisoblanadi.

Shimoliy Hindiston va Markaziy Osiyo hududlarining Kushonlar saltanati hukmronligi ostida birlashtirilishi natijasida buddaviylik Uzoq Sharqqa ham kirib bordi. Keyinchalik Sharqiy Turkiston, Xitoyga yoyildi. Kanishka, Vima Kadfiz va ulardan keyingi Kushon imperatorlari buddaviylik dini an'analari amalga rivojlantirish, boshqa xalqlar o'rtasida tarqatish uchun Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, O'sh, Bolosog'un, Koshg'ar va boshqa shaharlarda ibodatxonalar qurib, uning muqaddas kitoblari, sutra (sanskritcha – ip, to'plam, bayon, diniy–falsafiy ibora)larni o'rganish, tarjima qilish va sharhlash uchun sharoit yaratdilar.

Buddaning o'limidan so'ng shogirdlari orasida ajralish ro'y berdi. “Xinayana” (sanskritcha – kichik g'ildirak) yo'nalishi an'anaviy qarashlarga rioya qilishi bilan

birga Budda ta'limotiga qat'iy mantiqiy izchillik berishga intildi. "Mahayana" (sanskritcha – katta g'ildirak) yo'nalishi Budda ta'limotining barcha tomonlarini isloh qildi. Buddaga ilohiylik tusini berib, diniy marosim va ibodatlarni joriy etdi. Ushbu yo'nalishlarning mahalliy qadriyatlar va boshqa dinlar bilan sintezlashuvi esa "lamaizm", "vajrayana", "dzen (chan) buddizm", "tyantay", "dxiana" kabi yo'nalishlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

"Xinayana" yo'nalishi e'tiqodiga ko'ra, kishi rohiblar jamoasiga kirib, yakka–yolg'izlikda tarkidunyochilik va taqvodorlik bilan hayot kechirish orqali kundalik hayot tashvishlaridan xalos bo'lishi mumkin.

"Xinayana"da "Budda tishiga sig'inish", muqaddas joylarni ziyorat qilish kabi dabdabali marosimlar paydo bo'lgan. Buddaviylarning muqaddas joyi Shri Lanka bo'lib, bu yerga turli mamlakatlardan buddaviylikka ibodat qiluvchilar tashrif buyuradilar. Shri Lankaning avvalgi poytaxti bo'lgan Kandi shahrida dunyoda mashhur "Buddaning tishi" ibodatxonasi joylashgan. Bu yerda Buddaning tishi saqlanadi. Rivoyat qilinishicha, Budda vafotidan so'ng uning jasadi olovda kuydirilgan. Buddaning shogirdlaridan biri o'sha joydan Buddaning tishini topib olgan va bu tish ibodatxonada saqlangan. "Buddaning tishi" ibodatxonaning yer ostida, kumushdan yasalgan qo'ng'iroq ichida oltin idishlarda saqlanadi.

"Mahayana"da "xaloskorlikning ajoyib sakkiz yo'li"ga amal qilish orqali azob–uqubatlardan qutulish mumkinligi inkor etilib, bu yo'ldan voz kechilgan. Buning o'rniga boddhisattva – ustozlar va rohiblarga sig'inish orqali najot topishning yo'li ko'rsatilgan. "Mahayana"da "dunyo bir ro'yo (yo'qlik), faqat "nirvana" haqiqatdir, Siddhartha o'gitlariga amal qiluvchi, xudoga iltijo qiluvchi, rohiblarga moddiy yordam beruvchi, dunyoviy ishlar bilan shug'ullanuvchi har bir kishi najot topishi mumkin", deb uqtiriladi.

"Dzen buddizm" V–VI asrlarda Xitoyda paydo bo'lgan mahayana yo'nalishidagi maktablaridan biridir. Uning asoschisi afsonaviy rohib Boddixidharma hisoblanadi. "Dzen" (lotincha – mediatatsiya, fikrni jamlash, diqqat bilan mushohada qilish) buddizmning asosiy xususiyatlari sifatida nazariyadan ko'ra amaliyotga, diniy o'git va qonun–qoidalarini yodlash o'rniga mushohada qilishga alohida e'tibor berilishini, irratsionalizm va mistikaga moyillikni qayd etish mumkin.

Dzen buddistlar "yoga" mashqlarini bajarish, jismoniy mehnat qilish, san'at turi bilan shug'ullanishga katta ahamiyat beradilar. Har qanday aqida va e'tiqod shakllarini (hattoki, Buddani ham) inkor qilish, hech kimga taqlid qilmaslik va ruhiy erkinlikka erishish, "vaqt–abadiylik", "sub'ekt–ob'ekt", "hayot–o'lim", "haqiqat va yolg'on", "yaxshilik va yomonlik" kabi ziddiyatlarni bartaraf etishni kamolotga erishishning oliy yo'li, deb hisoblaydilar.

Dzen buddizmida tashqi olamdan uzilib, abadiy tashvishlardan chetlanish va fikrni bir nuqtaga jamlashga alohida e'tibor beriladi va "satori" (sanskritcha – yilt etib ko'rinish)ni targ'ib qilinadi. Trans holatiga tushgan kishining haqiqatga erishishi dzenning oliy maqsadi, deb bilinadi.

"Dzen buddizm" barchani irqi, millati, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, "hammaga mos jonli amaliy haqiqat" sirlaridan ogoh bo'lishga chaqiradi. Hozirda dzen buddistlar 10 milliondan ortiq, ularning 85 foizi Yaponiyada yashaydi. Unda ilgari surilgan g'oyalarning bevosita "dildan–dilga" uzatilishi, insonning o'z ruhiy mohiyati bilan yaqinligi, belgi va shakllarga qaram bo'lmaslik, ya'ni fikrning so'z va belgilersiz ifoda etilishi, insonning o'z ichki dunyosiga murojaat qilishi orqali Budda kabi barkamollikka erishish mumkinligi haqidagi qarashlar ommaviy tus olgan.

Hozirda Yaponiyada dzen ibodatxonalari diniy, siyosiy va madaniy markazga aylanib, yoshlar tafakkuri, turmush tarzi, faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, dzen san'ati xitoy va yapon madaniyati an'analaridan biriga aylangan. Samuraylar dzen buddizm targ'ibotchilari hisoblanadi.

Lamaizm (tibetcha – eng ulug') VII–XIV asrlarda Tibetda mahayana yo'nalishi ta'sirida vujudga kelgan. Lamaizm ta'limotiga ko'ra, inson buddaviylik aqidalariga tayanib, faqat lamalar yordamida najot topadi, gunohlardan poklanadi, lamalar yordamisiz oddiy kishilar jannatga tusha olmaydi. Buddaning Yer yuziga yana qaytishi va dunyoda adolat o'rnatishiga ishonch lamaizm ta'limotida muhim o'rin egallaydi. Xudolarning Yerdagi vakili hisoblangan lamalarga va dunyoviy hokimiyatga so'zsiz bo'ysunish, ibodat va rasm–rusumlarni dabdabali o'tkazish, muqaddas kitoblar talqinini teatrlashtirilgan tomoshalarda aks ettirish, xudolarning g'azabi, yovuz ruhlar ziyonini qaytarish uchun turli duo va afsunlar o'qish lamaizmga xos xususiyat hisoblanadi. Lamaizmning oliy diniy rahnamosi Dalay–Lama (tibetcha – "dengizdek ulug' lama") tug'ilgan mavjudotlarning eng ulug'i, "boddhisattva"ning Yerdagi ko'rinishi, tirik xudo hisoblanadi. "Lamaizm" tibetliklarning asosiy dini bo'lib, tibetda 3000 dan ortiq buddaviylik ibodatxonalari mavjud. Shuningdek, lamaizm Rossiyaning, Buryatiya, Tuva, Oltoy kabi hududlarida ham keng tarqalgan.

Neobuddizm XX asrning 40–50–yillaridan boshlab keng tarqala boshlagan diniy–ideologik oqim bo'lib, Birma, Tailand, Laos, Vyetnam mahalliy ziyolilarining ozodlik va milliy uyg'onish harakati bilan bog'liqdir. Uning asosida yangi zamon talabiga javob bera oladigan bunyodkor g'oyalarni targ'ib qilish, payg'ambar va avliyolarni yaratish, taqvodorlik va tarkidunyochilikni rad etish, "karma" kabi masalalar yotadi. Aql–idrokning ahamiyatsizligi, dinning najotkorligi e'tirof etilib, buddaviylik g'oyalarini tushuntirishda bilish nazariyasi, psixozanaliz usullaridan foydalaniladi.

Markaziy Osiyoda buddaviylik. G'arbda Orol va Kaspiy dengizi bo'ylari, Janubda Hind daryosining quyi oqimi, Sharqda Xo'tan (Xitoy)dan Banoras (Gang daryosi bo'yidagi shahar)gacha cho'zilgan Kushonlar imperiyasining boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining yaxshilanishi, savdo–sotiqning rivoji yangi shaharlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Kushonlardavrida buddaviylikka katta ahamiyat berilgani, diniy rasm–rusumlarni bajarishga alohida e'tibor bilan qaralgani bois maxsus ibodatxonalar bunyod etilib, buddaviylik xalq turmush tarzining muhim tarkibiy qismiga aylanib bordi, madaniyat rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Buni o'sha davrda Baqtriya–Toxaristonning eng taraqqiy etgan madaniyat markazlaridan biri bo'lgan Termizning madaniy–ma'naviy hayotida buddaviylikning o'rni misolida ko'rish mumkin.

Miloddan avvalgi 1–asrda Termizda buddaviylik ustuvor mavqega ega bo'ldi. Bunda shahar zodagonlarining buddaviylikni qabul qilishi va ibodatxonalar qurilishiga homiylik qilishlari muhim ahamiyat kasb etgan. Qoratepa va Fayoztepa ibodatxonalari eng katta sajdagohlardan hisoblangan. Ularda Buddaning loydan yasalgan katta haykali va stupalar bo'lgan. Ibodatxonalar odatda yer osti va yer usti qismlaridan iborat bo'lgan. Bu yerda alohida stupalar ham mavjud bo'lib, ular oq marmardan mahorat bilan ishlangan Buddha haykalchalari bilan bezatilgan “Zo'rmala” stupasi mahobati bilan ajralib turgan. Stupalar bir necha balandlikda to'rtburchak shaklda bunyod etilgan. Stupa usti gumbazsimon qilib ishlanib, unga yog'och yoki toshdan yasalgan langar o'rnatilgan. Bu langarlarda toshdan yasalgan bir necha soyabon bo'lib, buddaviylar uni “chatra” deb atashgan. “Chatra” muqaddas daraxt timsolidir.

Stupa koinot ramzi hisoblangan. Uylarda Buddha haykali qo'yilgan maxsus ibodat qiladigan xonalar bo'lgan. Keyinchalik Buddha haykallari yoniga boddhisattvalarning loydan pishirilgan kichkina haykalchalari qo'shilgan. Ushbu holat ham shahar aholisi hayotida buddaviylik alohida ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi.

Fayoztepa “vixara” (sanskritcha – kulba, boshpana, buddaviy rohiblarning yomg'ir mavsumi vaqtida yashaydigan kulba, hovli va bog'dan iborat bo'lgan joyi) uslubidagi ibodatxona bo'lib, uning markazida diniy marosimlar o'tkazilgan. Ibodatxona bilan yonma–yon joylashgan stupadan oltin suvi yurgizilgan, sopol va marmardan yasalgan haykallar topilgan. Bu yerdan marmartoshdan nafis ishlov berib yasalgan muqaddas “Boddxa” daraxti ostida o'tirgan Buddha va uning ikki tomonida turgan ikki rohib haykali ham topilgan.

Qoratepa xarobasidan shimoliy Baqtriyadagi eng katta va mahobatli stupa topilganini alohida qayd etish lozim. Bizgacha stupaning asosi hamda

zinapoyaning ikki tomonida joylashgan kichik stupalar, o'sha davrga tegishli yozuv namunalari saqlanib qolingan.

Kushon podsholigining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa o'rnida bo'lgan. Kushonlar hukmdori Kanishka davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakllanib, savdo–sotiq markazlaridan biriga aylangan. Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepa (qalinligi 10 metrgacha bo'lgan qudratli mudofaa devori bilan o'rab olingan qal'a shahar) majmuasidan Budda ibodatxonasi va aslzodalar dafn etilgan dahma, shuningdek, oltin xazina to'ldirilgan ikki yarim metrli sopol ko'za topilgan. Bular buddaviylikning o'sha davr xalqlari ijtimoiy–ma'naviy hayotidagi mavqei va boshqa mahalliy dinlar o'rtasida egallagan o'rnini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi va madaniyati rivojida buddaviylik muayyan o'rin egallaydi. Bunga Markaziy Osiyo hududida joylashgan Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzalaridan topilgan arxeologik qazilmalar, jumladan, Shak'byamuni sanamlari, haykalchalar, ramziy g'ildiraklar va stupa qoldiqlari, shuningdek, marmardan yasalgan va juda yaxshi saqlangan Budda haykali aniq dalolat beradi.

Qadimgi Termiz xarobalaridan topilgan yirik ibodat majmuasida 25 ta Budda kompleksi (Buddaning tikka turgan, o'tirgan va yotgan holdagi haykallari 3–4 metrgacha balandlikda loy–ganchdan ishlangan) borligi aniqlangan.

Qoratepada topilgan arxeologik yodgorliklar yer usti va g'or ichida joylashgan ibodatxona, saroy, rohib (zohid) uchun moslashtirilgan hujralardan iborat bo'lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan yodgorliklar buddaviylikning o'sha davrdagi mavqei haqida xabar beradi. Shuningdek, ajdodlarimizning yuksak moddiy madaniyati, dini, urf–odati, tafakkur tarzi haqidagi tasavvurimizni boyitishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda buddaviylik Janubiy, Janubiy–sharqiy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari Shri Lanka, Hindiston, Birma, Tailand, Laos, Mo'g'uliston, Kambodja, V'etnam, Xitoy, Singapur, Butan, Nepal, Malayziya, Koreya, Yaponiya, qisman Yevropa va Amerika qit'asi, Rossiyaning Tuva, Buryatiya, Qalmiqiston kabi hududlarida keng tarqalgan. 700 milliondan ortiq kishi buddaviylikning turli yo'nalishlariga e'tiqod qiladi. Hozirda buddaviylik Yaponiyaning davlat dini hisoblanadi.

Xristianlik. Xristianlik (yunoncha christos – «muqaddas yog' surtilgan», «xaloskor») milodning I asrida Falastinda yuzaga kelgan jahon dinlaridan biri. Mazkur din izdoshlari soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turib, xristianlik ta'limotining paydo bo'lishi Iso Masih shaxsi bilan bog'liq. Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi.

Xuddi shu davrda yahudiylar o'rtasida kutilayotgan haloskorning kelishi yaqinlashib qolgan edi. Iso Masih yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqqani bois Iso Masihni 33 yoshida fitnachilikda ayblab qatl etishga hukm qildilar.

Xristianlikning muqaddas manbai "Qadimgi Ahd" va "Yangi Ahd" deb nomlanuvchi ikki bo'limdan tarkib topgan "Bibliya" (yunoncha – "kitoblar") kitobi hisoblanadi. Bibliya so'zi grek tilida "kitob", "o'ram" ma'nolarini anglatadi.

"Injil" so'zi yunoncha "evangelion so'zidan kelib chiqqan bo'lib, xushxabar ma'nosini anglatadi. Unda Iso Masihning Yer yuziga yuborilganligi haqida hikoya qilinadi. Injil Iso Masihni ko'rib, uni yaqindan bilgan, uning ta'limotini sinchiklab o'rgangan mualliflar tomonidan yozilgan.

Xristianlik ota-xudo, o'g'il-xudo va muqaddas ruh – uch ko'rinishga ega xudo to'g'risidagi ta'limotni, jannat va do'zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi.

"IV asr boshlarida 324 (311) yili Rim imperiyasida rasmiy davlat dini sifatida tan olindi. Ilk Butun Olam Sobori 325 yil Nikeya shahrida o'tkazilib, unda e'tiqod timsoli deb nomlangan xristianlik ta'limoti asosini tashkil etuvchi bosh aqidalar majmuasi qabul qilindi. "E'tiqod timsolida" xristianlikning ta'limot asoslari 12 bandda belgilandi, bular:

1. Olamni yaratgan yagona Ota–Xudo – Muqaddas Uchlik-ning birinchi yuzi haqida;
2. O'g'il–Xudo, ya'ni Iso Masihga imon keltirish haqida;
3. Ilohiy mujassamlashuv, ya'ni Iso Xudo bo'la turib, bokira Bibi Maryamdan tug'ilgan va inson qiyofasiga kirganligi haqida;
4. Gunohlar kechirilishi – Isoning tortgan azoblari va o'limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunohlari kechirilishi haqida;
5. Isoning qayta tirilganligi haqida;
6. Isoning meroji haqida;
7. Isoning nuzuli (kelajakda ikkinchi marotaba yerga qaytishi) haqida;
8. Muqaddas Ruhga imon keltirmoq borasida;
9. Cherkovga yagona, muqaddas, havoriylar (apostollar) cherkovi sifatida munosabatda bo'lish haqida;
10. Cho'qintirish sirli marosimning gunohlardan forig' qilishi haqida;
11. O'lganlarning ommaviy tirilishi haqida;
12. Abadiy hayot haqida.

Xristianlikda sirli marosimlar asosiy o'rin egallaydi. Bular: cho'qintirish (xristianlik diniga kiritish), yevxaristiya (non va vino tamaddi qilish), ruhoniyluk unvonini berish, tavba qilish, miro surtish, yeley moyi surtish, nikoh.

Cho'qintirish (kremlenie— suvga botirish). Xristianlik ta'limotiga ko'ra, cho'qintirish orqali kishi dinga qabul qilinadi, ya'ni cherkov a'zosiga aylanadi.

Yevxaristiya (yun. non va sharob totish marosimi) xristianlikdagi eng muhim marosimlardan ikkinchisidir. Rus tilida bu marosim "Prichastie" deb nomlanadi. Yunon tilida "Evxaristiya" deb ataladigan mazkur marosim, xochga mixlanishdan oldin Isoning tanovul qilgan eng oxirgi kechki ovqat xotirasi sifatida e'tiqod qilinadi. Xristianlar non bilan sharobni tanovul qilar ekanlar, bu bilan ular Isoning tanasi va qonini tatib ko'rdik, endi xudoga yaqinroq bo'ldik, deb hisoblaydilar. Bu marosim ertalab yoki tushki ibodatda asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kunda yevxaristiya cherkovda yakshanba kuni amalga oshiriladi.

Miro moyi surtish marosimi (yun. Konfirmatsiya; ruschada — miropomazanie). Zaytun yog'idan tayyorlangan muqaddas moy surtish sirli marosimlardan biri bo'lib, havoriylar davrida yo'lga qo'yilgan.

Miro moyi — (yun. — xushbo'y moy) cherkov yepiskopi tomonidan oliy navli zaytun yog'iga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi mahsulotlarni qo'shib qaynatish orqali tayyorlanadi. Cho'qintirilgan bolaning, muqaddaslashtirilgan yog' (xushbo'y miro moyi) bilan vujudining turli joylariga surtish marosimi. Miro surtilgan bola, cherkovning bu ish uchun ajratilgan joyiga olib boriladi. U yerda unga konfirmatsiya noni yediriladi. Yeya olmas darajada kichik bo'lsa, lablariga tekkiziladi. Shunday qilib u, cherkovning bir a'zosiga aylanadi.

Tavba—tazarru qilish marosimi. Bunda inson o'zi qilgan gunohlariga iqror bo'lishi, keyinchalik shu gunohlarni qilmaslik uchun mag'firat so'rash marosimi.

Yeley surtish marosimi (rus. soborovanie). Muqaddaslashtirilgan zaytun yog'ining ham shifo, ham gunohlarning kechirilishi hamda bemalol o'lish uchun kasallarga surtish marosimidir. Bu bemorning peshona, yonoq, lab va qo'llariga muqaddas deb bilingan zaytun moyi surtish ko'rinishida kechadi.

Bu marosim ayni paytda tavbasiga tayanib ulgurmagan bandalarning gunohlardan xalos etib, osongina jon topshirishlariga yordam beradi, deb hisoblanadi.

Ruhoniy unvonini berish marosimi. Bu ruhoniyluk martabasiga ko'tarilish bilan bog'liq marosimdir. U "Xirotoniya" (yun. "xir" — qo'l va "tefimi" — qo'yaman) deb nomlanadi. Diniy ta'limotga ko'ra, ruhoniy bo'ladigan shaxsning boshiga yepiskop qo'l tekkizganidan keyin, u "Muqaddas Ruh" ning alohida marhamati bilan odamlar o'rtasidagi vositachilik qilish xususiyatiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, xristianlik dinida ruhoniyluk unvonlari – d'yakon, presviter, yepiskop kabi uch turli darajaga ega.

D'yakon (yunon. xizmatchi) – xristian cherkovidagi eng quyi ruhoniyluk darajasi. U marosimlarda yepiskop va presviterlarga yordamchilik qilish bilan shug'ullanadi.

Presviter (lot. oqsoqol) – xristian ruhoniylar ierarxiyasida yuqori darajaga ega ruhoniyl. Qadimda yepiskoplar ham shunday nom bilan atalgan. Jamoa tarafidan saylab qo'yiluvchi ruhoniyl bo'lib, dastavval, u pastor bilan birgalikda diniy marosimlarga rahbarlik qilgan.

Yepiskop (yunon. nazoratchi) – xristianlikdagi oliy darajadagi ruhoniyluk unvoni. Katolik e'tiqodiga ko'ra yepiskoplar havoriy Pavelning izdoshlari hisoblanadi. Shuningdek, yepiskop o'zi miro moyini tayyorlash, ruhoniyluk darajasini berish hamda diniy marosimlarni boshqarish huquqiga ega.

Nikoh marosimi. Xristianlikda kelin va kuyovlarning o'zaro xohishlari asosida kelgusi hayotlarida er-xotin bo'lib birga yashashlarini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan sirli marosim. Nikohda ham sirlik bor, erkin tarzda ruhoniyl va cherkov huzurida er va ayol tarafidan oilaga sadoqatli bo'lishga va'da beriladi. Ularning oilalariga Isoning ruhi birlashib ketishiga oq fотиha beriladi va ulardan sof e'tiqodli xristian bolalar tug'ilishi va tarbiyalanishi Xudodan so'raladi. Ushbu marosim XVI asrda paydo bo'lgan.

Rojdestvo. Isoning tug'ilishi munosabati bilan o'tkaziluvchi, eng muhim bayramlardan biridir. Katolik, protestant va pravoslav yo'nalishlarida 25 dekabrda nishonlasa, rus pravoslav cherkovlarida 7 yanvarda nishonlanadi.

Pasxa. Yahudiyluk va xristianlik dinlarida bahor bayrami hisoblanadi. Qadimda ko'chmanchi somiy qabilalari Pasxani chorva mollarining bahorgi bolalash vaqtida bayram qilganlar.

Katoliklar mazkur bayramni 22 mart-25 aprel oralig'ida, pravoslavlar esa 4 aprel-8 may oralig'ida nishonlaydilar. Yahudiylar Pasxani Misrdagi qullikdan ozod bo'lganliklari uchun bayram qilsalar, xristianlar Iso Masihning qayta tirilganini nishonlaydilar.

1054 yilda xristianlik dini doirasida ilk yirik bo'linish ro'y berib, natijada pravoslav (Sharqiy xristianlik) va katolik (G'arbiy xristianlik) cherkovlari yuzaga keldi.

Katoliklik xristianlik dinining eng yirik yo'nalishi hisoblanadi. "Katolik" so'zi butun jahon, butun dunyo (umumiy, dunyoviy) degan ma'noga ega. Bu yo'nalish asosan G'arbiy, Janubiy-G'arbiy va Markaziy Yevropa, Pribaltika, Ukraina va Belorussiyaning g'arbiy hududlarida, Lotin Amerikasi va AQShda tarqalgan.

Rim Papasi katolik cherkovining boshlig'i, diniy hayotda gunohsiz deb hisoblanadigan, yashirin ovoz berish yo'li bilan kardinallar kollegiyasi saylaydigan Papaning hokimiyati jahon soborlari hokimiyatidan ustun turadi. Papa cherkov davlati – Vatikaning cheksiz vakolatlarga ega rahbaridir.

Katoliklarda “Muqaddas Ruh” nafaqat Ota-xudodan balki O'g'il-xudodan ham kelib chiqqan, deb hisoblanadi. Cherkov zaruriy ezgu, hayrli ishlar xazinasiga – Iso, Bibi Maryam, avliyolar, taqvodor xristianlar tomonidan yaratilgan ezgu ishlar “zaxirasiga” ega. Cherkov bu xazinani tasarruf qilish, undan muhtojlarga ulashish, ya'ni gunohlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tuhfa qilish huquqiga ega. Bu huquq (“indulgentsiya” rahm-shavqat)lar to'g'risidagi ta'limotning, ya'ni pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarni kechirishning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Katoliklarning o'ziga xos xususiyatlari:

- nikoh qat'iy hisoblanishi, nikoh aqdi osmonda tuziladi va yerdagilar uni buzishga haqli emaslar;

- Bibi Maryamning xudodan gunohlarni so'rab beruvchi sifatlari ko'proq e'zozlanishi;

- Marosimlar teatrlashtirilgan tarzda dabdabali, kishilarning his-tuyg'ulariga ta'sir etadigan darajada musiqalardan foydalanib o'tkazilishi;

- ibodatxonalar rasm va haykallar bilan bezatilishini alohida qayd etish lozim.

Katolik ta'limoti Pravoslavlik ta'limoti singari yetti sirli marosimni tan oladi, ammo ularning talqinlarida farqlar mavjud. Masalan, “non va vino totish” marosimi katoliklarda xamirturush solinmagan non tamaddi qilish (Pravoslavlikda xamirturushli non bilan), ruhoni bo'lmagan dunyoviy kishilarga non va vino bilan, ba'zida esa faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho'qintirish sirli marosimini o'tash paytida cho'qintiriluvchi suvga botirilmaydi unga suv sepiladi. Miro surtish (konfirmatsiya) marosimi go'daklik yoshida emas, balki 7 – 8 yoshlik paytida amalga oshiriladi. Bu marosimda bolaga o'zi tanlagan yana bir ism beriladi, bola ism bilan birga avliyoning timsoli, amallari va g'oyalarini ongli ravishda qabul qiladi va ularga rioya qilishni niyat qiladi. Shunday qilib bu marosimning o'tkazilishi imon mustahkamlanishiga xizmat qilishi lozim. Pravoslavlikda nikohsizlik rusumini faqat qora ruhoniylar (monaxlar) qabul qiladi. Katoliklarda esa oila qurmaslik (tselibat), Papa Grigoriy VII tomonidan o'rnatilgan bo'lib, barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

Pravoslavlik (rus.chin e'tiqod) tarixan xristianlikning sharqiy yo'nalishi sifatida shakllandi. Asosan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon yarim orolida joylashgan mamlakatlarda tarqalgan.

Pravoslavlik diniy ta'limotida “Muqaddas uchlik” – xudoning bir vaqtning o'zida ham yagona, ham uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi deb ishonish, insonni

tug'ma gunohkor deb bilish, Isoning inson qiyofasiga kirib, o'z ummatlarini gunohdan xalos etish uchun o'zini qurbon qilganini tan olish, oxiratga va unda qayta tirilishga e'tiqod qilish, cherkovning xudo va odamlar o'rtasidagi vositachi ekaniga ishonish pravoslavlik diniy ta'limotining asosini tashkil etadi.

Pravoslavlikda:

- yangi tug'ilgan bola cho'qintirilayotganda suvga botirib olinadi;
- muqaddas moy surtish cho'qintirishdan so'ng ketma-ket mahalliy ruhoniylar tomonidan bajariladi;
- oddiy insonlar va ruhoniylar bir xil – kvasli non va vinodan totinadilar;
- nikoh marosimi cherkovda, ruhoniylar tomonidan amalga oshiriladi. Er-xotin faqat xiyonat tufayli ajrashishlari mumkin, nikohni faqat cherkov bekor qila oladi;
- ruhoniylar “qora” va “oq” ruhoniylarga ajratiladi, “qora” ruhoniylarda “tselibat”, ya'ni uylanmaslik amaliyoti mavjud;
- tavba marosimida katoliklikdan farqli ravishda tavba qiluvchi va ruhoniylar yuzma-yuz o'tiradi.

Protestantlik (lot.norozi bo'lish, kelishmaslik) Yevropa mamlakatlarida katoliklikda kechayotgan jarayonlarga qarshi qaratilgan reformatsiya (lotincha reformatio – qayta tashkil qilish, o'zgartirish) harakati natijasida vujudga keladi va ko'plab mustaqil cherkovlar va sektalarni o'z ichiga oladi.

Protestantlik AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Kanada, Shveytsariya, Skandinaviya mamlakatlari, Latviya, Estoniyada keng tarqalgan.

Germaniyada Vittenberg universiteti professori Martin Lyuter (1483–1546) indulgentsiya sotilishini tanqid qiladi, 1517 yilning 31 oktyabrida Lyuter Vittenberg cherkovi eshigiga gunohlarning kechirilishiga bag'ishlangan nomani qoqib qo'yadi, u 95 mulohazadan (tezisdan) iborat bo'lib, katoliklikni isloh qilish g'oyalari tarkib topgan edi.

Protestantlikda:

- cherkov va ruhoniylarning e'tiqod qiluvchilar bilan xudo orasidagi vositachi ekanini inkor etadi;
- ruhoniylar va oddiy kishilar orasidagi tabaqalanishni rad qiladi;
- xoch va ikonalar sig'inishni noto'g'ri deb hisoblaydi;
- ko'p mablag' talab qiladigan tadbirlarni asossiz deb biladi;
- tselibat (ruhoniylarning uylanmasligi)ni inkor etadi.

Protestantlik yo'nalishida sirli marosimlardan faqat cho'qintirish va non bilan tamaddi qilishni tan oladi. Dindorlar Rim Papasiga bo'ysunmaydilar, ibodat va'z o'qish, birgalashib ibodat qilish va diniy qo'shiqlar aytishdan iborat. Protestantlar Bibi Maryamni, a'rofni tan olmaydilar, tarkidunyochilik, ruhoniylar kiyadigan kiyimlarni, ikonalarini rad etadilar.

Protestantlik lyuteranlik, kal'vinizm, unitarizm, anabaptizm, anglikanlik va hokazo shakllari keng tarqalgan.

Xristianlik dinining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi ikki yo'l bilan kirib kelgan. Birinchisi, milodning III asrlaridan to bugungi kunga qadar xristianlikni targ'ib etuvchi missionerlarning targ'ibotchilik harakati bo'lsa, ikkinchi yo'l, mintaqaning Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e'tiqod qiluvchi aholining ushbu mintaqaga ko'plab ko'chib kelishi orqali amalga oshgan. Bu dinni mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Markaziy Osiyoning turli viloyatlariga milodning III asrlarida kirib kelganlar. Missionerlar faoliyati natijasida 280 yilda Talos (Marke) cherkovlari qurilib bo'lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotida (430 yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskoplik, missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotida (658 yillar) yepiskoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. IV asr boshlarida tashkil etilgan Marv yepiskopligi, V asr boshida mitropoliyaga aylangan. Xurosonliklar va sug'diyonaliklar zardushtiylar, monaviylar, buddaviylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qarashli yerlarda yashaganlar.

Markaziy Osiyoga ilk rus pravoslavlarining kirib kelishi XIX asrning 40–yillaridagi Chor Rossiyasining Turkistonning shimoliy hududlarini egallashi natijasida Turkistonga ruslarning ko'chib kelishi bilan bog'liq. Har bir polkda maxsus ruhoniylar bo'lib, askarlarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko'chma ibodatxonalar tashkil etilgan edi. 40–yillar oxiriga kelib doimiy ibodatxonalar mahalliy paxsa uslubida qurila boshlaydi va 1850 yili Kopalda birinchi muqim ibodatxona bunyod qilinadi.

Ruslar joylashgan hududlarda kichik diniy qarorgohlar vujudga keladi. Dastlabki qarorgohlar 1850–yillarda Fort №1 (Aral'sk shahri, Koraqalpog'iston), Perovsk (Qizil–O'rda, Qozog'iston), Katta Olma–Ota tumani (Olma–Ota, Qozog'iston), Sergiopol (Ayaguz), Lepsin (Lepsinsk), 1860–yillarda Toshkent, Jizzax, Samarqand, Chimkent, Avliyoota (Jambul), To'qmok, Katta–Qo'rg'onda rus pravoslavlarining diniy qarorgohlari mavjud edi.

1871 yilda Toshkent gospitali huzurida arxiepiskop Yermogen (Golubev) tomonidan pravoslav qarorgohi ta'sis etilgan. Bu ibodatxona hozirgi Uspenskiy kafedral sobori o'rnida bo'lgan.

Dastlab Turkiston Orenburgning tarkibida bo'lganligi bois Tomsk yeparxiyasiga bo'ysingan. Ko'p o'tmay mustaqil arxieriy kafedraga aylanadi.

1869 yil Turkiston mustaqil yeparxiyasini tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilingan. 1871 yil Toshkent va Turkiston yeparxiyasini tashkil etish to'g'risida imperator farmoni chiqadi. Biroq mahalliy imperator amaldorlari

Toshkentdagi kafedra faoliyati diniy avtoritetni kuchaytirib asl siyosiy maqsaddan chalg'itadi deb qarshilik ko'rsatgan. General-gubernator fon Kaufman "Toshkentda na arxiereylik, na jandarmiyaga o'rin yo'q" deb ta'kidlagan.

Uning ko'rsatmasiga binoan yepiskop kafedrasini qarorgohi Verniy (1854 yil asos solingan «Verniy» shaharcha, zamonaviy Olma-Ota) shahriga ko'chirilishi kerak edi. "Toshkent va Turkiston" nomini olgan yeparxiya yepiskoplari markazdan tashqariga chiqib boshqarish mantiqsizlik ekanligi va noqulay bo'lganligi bois ko'chishdan bosh tortadi. Imperatorlik davrida Toshkent arxiereyasi kafedraning Toshkentda bo'lishi uchun kurashganlar. Nihoyat 1916 yil oxirida arxiepiskop Innokentiy (Pustinskiy) harakatlari tufayli bu masala butunlay ijobiy yakun topgan.

Dastlabki cherkovlarning ko'pchiligi odmi bo'lgan va qo'ng'iroqlari ham bo'lmagan. Rus aholining ko'payishi XIX asr oxirlaridan boshlab bir nechta Rossiya cherkovlaridan qolishmaydigan cherkovlarning bunyod bo'lishiga olib keldi. Ular orasida Toshkent Svyato-Preobrajenskiy (1888 yili qurilgan, 1923 yili buzib tashlangan), Verniy (Olma ota)dagi Voznesenskiy (1907 yili qurilgan, 1995 qayta tiklangan), Samarqanddagi Svyato-Aleksievskiy (1911 yili qurilgan, hozirda ochiq va qayta tiklanmoqda) soborlari alohida ajralib turgan.

Markaziy Osiyoga katolik va protestant yo'nalishi vakillarining kirib kelishiga 1879 yil 27 martdagi Rossiya imperatorining maxsus qonuniga ko'ra birinchi jahon urushida asrga olingan nemis, polyak, eston, shved, litva, latish va boshqa yevropalik askarlarning Turkiston o'lkasiga surgun qilinishi turtki bo'ldi. Bu o'z navbatida, yevropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo bo'lishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati asrimizning taxminan 20–30 yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkistonda 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav to'g'ri kelgan yoki 5340 masjidga 306 cherkov to'g'ri kelgan. Bundan tashqari, 10,1 ming pravoslaviega mansub bo'lgan staroobryadchilar, 8,2 ming lyuterchilar, 7,8 ming katoliklar, 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar va 26 ming yahudiy diniga mansub kishilar tashkil etgan.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirlarida Toshkentda 2300 ga yaqin katoliklar bo'lgan. O'sha vaqtda rim katoliklari jamoalariga Yustin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 yilda qurila boshlanib, 1917 yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy obida sifatida qayta ta'mirlandi. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Arman apostol cherkovi eng qadimiy xristian cherkovlaridan biri bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda armanlar taxminan III–IV asrlarda paydo bo'lganligi qayd etilgan. 1890 yilga kelib ularning soni 3839 kishini tashkil etgan. XIX asr oxirlaridan boshlab Echmiadzin Sinodi Turkiston o'lkalarida ibodatxonalar qurishga qaror qilgan. Samarqand

cherkovi o'z faoliyatini 1903 yildan e'tiboran boshlagan. O'zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri protestantizmdir.

Johiliyat davri. Hozirgi Saudiya Arabistoni hududining G'arbiy qismi Hijoz deb ataladi. Qadimdan Hijozning asosiy markazi Suriya va Yaman savdo yo'llarini bir-biri bilan bog'lab turuvchi shahar Makka bo'lib kelgan. Bu yerning ham diniy, ham iqtisodiy markaz sifatida shakllanishida Ka'ba (Baytulloh – Allohning uyi) katta ahamiyat kasb etgan. Mintaqada istiqomat qiluvchi arablar Ibrohim (a.s.) dini ta'limotiga e'tiqod qilganlar. Ular o'zlarini "hanif"lar (arabcha, "to'g'ri yo'l") deb ataganlar. Yillar o'tishi bilan makkaliklar yakkaxudolik ta'limotini unutishib, yulduz va farishta hamda turli sanamlarga sig'ina boshlaganlar. Ayni shu jarayon islom tarixida "johiliya davri" deb ataladi.

Mazkur davrda Makkada Hubal bosh iloh hisoblangan. Shuningdek, Manot, Lot, Uzzo kabi ilohlarga ham sig'inilgan. Turli qabilalar o'z obro'–e'tiborini boshqalarga ko'rsatish maqsadida Ka'baga but o'rnata boshlaganlar. Natijada, Ka'ba ichidagi butlar soni 360 taga yetgan. Johiliyat davri arablari butlarni shafaotchi deb bilib, ular oldida hokisorlik bilan turar, qurbonliklar qilar va ular sharafiga qasidalar to'qib, iltijo qilar edilar. Tijorat va ekinzorlardan olingan ma'lum daromaddan butlarga ajratilar, oilada qiz farzand tug'ilsa, tirikligicha ko'milar edi.

Muhammad ibn Abdullloh (s.a.v)ning tavalludi. Muhammad ibn Abdulloh ibn Abdul-Muttalib alayhis-salom Ara- biston tarixida "Fil voqeasi" nomi bilan mashhur jangdan 50 kun keyin tavallud topgan. Ko'pchilik tarixchilar fikriga ko'ra bu sana milodiy 571 (ba'zi adabiyotlarda 570 yil deb ham ko'rsatiladi) yilga to'g'ri keladi. Otasi Abdulloh o'z o'g'li Muhammad tug'ilmasidan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib Yasribda (hozirgi Madina shahrida) vafot etgan. Onasining ismi Omina bint Vahb edi.

Manbalarda Payg'ambar alayhis-salomning tavalludi bilan bog'liq turli mo'jizalar ro'y bergani qayd etiladi. Jumladan, u kishining onasi homilador bo'lganida tushida "Sen butun insonlarning ulug'iga homilador bo'lding, u dunyoga kelgach, ismini Muhammad qo'ygin" degan ovoz eshitadi. Shunga ko'ra tug'ilgan paytida bobosi "Muhammad", ya'ni "g'oyat maqtoqli" degan ismni qo'ydi. Islom ta'limotiga ko'ra, Muhammad payg'ambar nomi zikr etilganda "sollallohu alayhi vasallam" (qisqacha: s.a.v.: "unga Allohning rahmat va salomi bo'lsin") yoki "alayhis-salom" (qisqacha: a.s.: "unga salom bo'lsin") iborasini aytish zarur.

Bo'lajak payg'ambar tavallud topgach arablarning odatiga ko'ra, Muhammad alayhis-salom Bakriy qabilasidan bo'lgan Halima ismli ayolga emizish uchun beriladilar. Xalima ona xonadonida Rasululloh 4 yil yashaydi.

Muhammad alayhis-salom besh yoshga to'lganida onasi Omina bilan birgalikda Yasribga, otasi qabrini ziyorat qilish uchun boradilar. Mazkur safardan qaytishda, Abvo degan joyda onasi Omina ham vafot etadi. Shundan so'ng uni sakkiz yoshgacha bobosi Abdulmuttalib o'z qo'lida tarbiyaladi. Abdulmuttalib vafotidan so'ng Muhammad alayhis-salomni amakisi Abu Tolib o'z qaramog'iga oladi.

Payg'ambar (a.s.) yoshlik chog'larida Abu Tolib bilan birga bir necha bor tijorat safarlariga chiqqanlar. Shomga birinchi marta 12 yoshga to'lganda, ikkinchi marta 25 yoshga, Yamanga 17 yoshga to'lganda safar qildi. 12 yoshga yetganda amakisi Abu Tolib Shomga safarga otlandi va yosh Muhammadni ham birga olib ketishga qaror qiladi.

Safar davomida karvon Busra nomli mavzeda to'xtaydi. Mana shu joyda Abu Tolib Buhayro ismli rohibni uchratadi. Mazkur uchrashuv islom tarixida juda mashhur bo'lib, rohib yosh Muhammadga bo'lajak payg'ambar alomatlarini ko'radi. Shundan so'ng, u Abu Tolibga jiyanining porloq kelajak egasi ekanini bashorat qiladi va uni ehtiyot qilishni uqtiradi.

Rasululloh (a.s.) 25 yoshga to'lganida Banu Asad urug'idan bo'lgan Xadicha bint Xuvaylid u kishidan o'zining savdo karvoni bilan birga Shomga safar qilishni so'radi. Muhammad alayhis-salomning to'g'riso'z, halol, sadoqatli ekanini ko'rgan Xadicha yoshi ancha katta bo'lishiga qaramay, taomilga zid ravishda ularga sovchi qo'yadi. Bir tomondan amakilari Abu Tolib, ikkinchi tomondan Xadichaning amakivachchasi Varaqa rozilik berib nikoh o'qildi.

Xadicha bintu Xuvaylid (r.a.)dan Rasulullohning yetti farzandlaridan oltitasi, ya'ni Zaynab, Ummu Kulsum, Ruqiya, Fotima, Qosim, Abdullohlar dunyoga kelgan. Faqat bitta o'g'il – Ibrohim Moriya Qibtiyya (r.a.)dan tug'ilgan edi.

Manbalarda Muhammad (a.s.) ning qirq yoshga yaqinlashib qolganida yolg'izlikni xohlab qolgani qayd etiladi. Ular, asosan, Makkadan ikki chaqirim uzoqlikda joylashgan Nur tog'idagi Hiro g'origa chiqib ketib, Ramazon oyini taxannus ibodati bilan o'tkazardi. Qirq yoshga kirganida Qur'oni karimning "Alaq" surasining dastlabki besh oyati ilk vahiy sifatida nozil qilindi. Tarixchilarning ta'kidlashicha, bu voqea 610 yil 10 avgust, yigirma birinchi Ramazon dushanba kuniga to'g'ri kelgan.

Hadislarda keltirilishicha, vahiyning dastlabki ko'rinishlari o'ngidan keluvchi tushlar bo'lgan. Muhammad (a.s.) tushlarida biror narsa ko'rsalar o'ngidan kelar edi. Ilk vahiydan qo'rqib ketgan Muhammad (a.s.) ayollari Xadichaning amakivachchasi Varaqa ibn Navfal oldiga borib bu haqda so'raydi. Navfal bu Muso(a.s.)ga tushgan "Nomus" (Jabroil) deb javob berdi.

Muhammad (a.s.)ning Makkadagi faoliyati tarixchilar tomonidan ikki qismga, ya'ni maxfiy va oshkora da'vatga bo'lib o'rganiladi. Ilk vahiydan so'ng ilk

islomdagi “yashirin da’vat davri” boshlangan. Birinchi bo’lib Rasululloh chaqiriqlarini qabul qilgan, ya’ni “ilk imon keltirganlar” – bu ayollari Xadicha bint Xuvaylid va Ali ibn Abi Tolib edi. Ulardan so’ng qullari Zayd ibn Horisa va do’stlari Abu Bakr Siddiq bo’ldilar. Ular jamiyatning turli tabaqalaridan ekanliklari islom dinining barcha uchun ochiq din ekanini ko’rsatardi. Vaqt o’tishi bilan musulmonlarning soni 30kishiga yetdi. Ular qurayshliklarning yangi dinga qarshi ekanliklarini bilganliklari uchun o’z e’tiqodlarini yashirin saqladilar. Bu holat uch yil davom etdi.

Shundan so’ng “oshkora da’vat” davri boshlanadi. Islom dinini qabul qilmagan makkaliklar ham Muhammad payg’ambarning yuksak axloq egasi ekanini tan olar edilar. Musulmonlar safi kengayib payg’ambar amakilari Hamza, undan so’ng Umar ibn Xattobning imon keltirishlaridan makkaliklar sarosimaga tushib qoldilar. Ular musulmonlarga tazyiq o’tkazishni yanada kuchaytirib yubordilar. Makkada “Isro va Me’roj” voqeasi yuz berdi, mazkur voqea Makkadan Madinaga hijrat qilishdan o’n olti oy oldin sodir bo’lgan deb ta’kidlanadi.

Hijrat va Madina davri. O’sha paytlarda Yasrib deb nomlanadigan Madina shahri ahlidan bir guruhi Makkaga, Rasululloh huzuriga kelib islomni qabul qiladilar. Ular bilan makkalik musulmonlar o’rtasida do’stlik aloqalari o’rnatildi. Makka mushriklarining musulmonlar ustidan tazyiqlari kuchaygach, Payg’ambar ko’rsatmasiga binoan avval musulmonlar undan so’ng o’zlari Yasribga hijrat qildilar.

Madinalik “ansor” (“yordamchi”)lar makkalik “muhojir” (hijrat qilgan)larni do’stona va samimiy kutib oldilar. Payg’ambarning hijrati Rabi’ ul–avvalning 8–kuni – milodiy 622 yil 20 sentyabrda bo’ldi. Shu yildan boshlab hijriy yil hisobi boshlandi. Ushbu yili birinchi musulmonlar masjidi qurildi.

Madina Arabiston yarim orolining yirik shaharlaridan bo’lib, unda Avs va Xazraj deb ataluvchi arab hamda Banu Qurayza, Banu Qaynuqo, Banu Nadir kabi yahudiy qabilalari yashar edilar. Makkalik mushriklar musulmonlarni Madinada ham tinch qo’ymaydilar. Natijada, ikki orada “Badr” va “Uhud” kabi bir necha janglar bo’lib o’tadi.

Hijratning oltinchi yilida Makka qurayshiylari bilan tuzilgan Hudaybiya shartnomasi eng muhim tarixiy hujjatlardan biri bo’ldi. Bu sulh bitimi tuzilishi arafasida musulmonlardan 1500 jangchi o’q–yoy va nayzalar olmasdan, faqat qilich taqib, Ka’ba ziyorati vaqtida qurbonlikka so’yiladigan 70 tuyani haydab, Makka shahriga yaqin keldi. Bu kichik qo’shin Makka mushriklariga ko’p ko’rinib, ular musulmonlarni jang qilishga, urushga kelgan deb gumon qilib, shaharga kiritmadilar. Har ikki taraf bir necha bor elchilar almashib, vaziyatni tushuntirdilar. Musulmonlarning tinch maqsadda kelganiga ishonmasdan, Makka mushriklari urushga tayyorlanib turdilar. Ammo johiliya zamonlarida ham Baytu–

l-haramda, ya'ni Ka'ba va uning atrofida jang qilish, qon to'kish man qilingan edi. Shuning uchun ham bu qoidaga amal qilgan holda musulmonlardan Usmon ibn Affon yetakchiligida navbatdagi elchilar yuborildi. Makka mushriklari bularni garovga, asir olganday qaytarib jo'natmadilar. Musulmonlar ham Makka vakillarini vaqtincha ushlab turdilar.

Oradagi keskin vaziyatni yumshatish uchun Makka raislari Hudaybiya degan joyda 10 yillik sulh shartnomasi tuzishni taklif etdilar. Hudaybiya shartnomasi musulmonlar uchun murakkab vaziyatda tuzildi. Unda asosan quyidagi shartlar belgilangan edi:

1. Ikki o'rtadagi dushmanlik tugatiladi, talonchilik va makr-hiylalarga yo'l qo'yilmaydi;

2. Istagan odamlar Muhammad alayhis-salom bilan shartnoma tuzib, ittifoqqa qo'shilaveradi, istagan odamlar qurayshiylar bilan shartnoma tuzib, ittifoqqa qo'shilaveradi.

3. Muhammad (a.s.) o'sha yili Makkaga kirmay qaytib ketadi va kelasi yili Haj qiladi. Mazkur mavsumda, makkaliklar shahardan chiqib turadi va musulmonlar uch kun Makkada bo'shatib beriladi.

Hijratning sakkizinchi yili, Ramazon oyining 17-kunida Makka shahri musulmonlar tomonidan fath etiladi.

Muhammad (a.s.) 632 yili Haj ibodatini bajarishga qaror qildilar, bu oxirgi haj bo'lgani bois islom tarixida "Hajjat ul-vido" (Vidolashuv haji) deb nomlandi. Zulhijja oyining 9-kuni Arofat tog'ida Rasululloh tomonidan islom dining asosiy shartlari bayon etilgan "Vidolashuv xutbasi" o'qildi. Hajdan Madinaga qaytgach, ko'p o'tmay, 632 yilning 8 iyun kuni vafot etdilar va o'z uylariga, ya'ni Masjidun-nabaviy (Payg'ambar masjidi)ga dafn qilindilar.

Islom dini ta'limoti. Islom so'zining arab tilidagi lug'aviy ma'nosi – taslim bo'lish, bo'ysunish, istilohda esa yagona Allohga bo'ysunish ma'nolarini beradi. Islom dini ta'limoti bo'yicha Muhammad payg'ambar (a.s.) avvalgi payg'ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar (Xotam al-anbiyo) – nabiy va rasul deb tan olinadilar.

Imon, namoz, zakot, ro'za, haj islomning besh asosiy sharti – rukni hisoblanadi.

"Imon" so'zining lug'aviy ma'nosi ishonmoq, tasdiqlamoq bo'lib, istilohda esa "La ilaha illallohu Muhammadun rasululloh" ("Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad – Allohning payg'ambari") kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlash demakdir. Hadislarda imonning yetti sharti borligi ta'kidlanadi. Ular:

– Allohning borligi va birligiga, Qur'on va hadislarda bayon qilingan barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytargan narsalaridan qaytish.

– farishtalarning borligiga imon keltirish. Farishtalar (maloika) Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini soʻzsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalaridir. Ulardan Jabroil, Mikoil kabi buyuk farishtalarning nomlari Qurʼonda zikr etilgan;

– ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh Muhammad paygʻambarga (a.s.) Qurʼonni nozil qilganidek, boshqa paygʻambarlarga ham kitoblar tushirgan. Ulardan bizga maʼlum boʻlganlari: Ibrohim paygʻambarga “Sahifalar”, Muso paygʻambarga “Tavrot”, Dovud paygʻambarga “Zabur” va Iso paygʻambarga berilgan “Injil” kitoblaridir. Islom taʼlimotiga koʻra, oldingi ilohiy kitoblar buzilib ketganligi sababli Qurʼon ularning taʼlimotini tiklab kelgan;

– paygʻambarlarning haqligiga imon keltirish. Alloh insonlarga toʻgʻri yoʻlni koʻrsatish uchun paygʻambarlar yuborgan. Barcha paygʻambarlar bir zanjirning boʻgʻinlari kabi dirlar. Qurʼonda 25 paygʻambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda paygʻambarlarning umumiy soni 124 ming ekani bayon qilingan;

– oxirat kuniga ishonish. Islom taʼlimotiga koʻra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud;

– taqdirga – inson boshiga tushgan yaxshiligi yomonlik Allohdan ekaniga eʼtiqod qilish;

– oʻlimdan keyin qayta tirilishga ishonish. Islom taʼlimotiga koʻra, qiyomat kuni boʻlganda barcha insonlar qabrdan turadilar va mahshargoh maydoniga yigʻiladilar. U yerda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (doʻzax)ga mahkum etiladilar.

Islom taʼlimotiga koʻra, har bir inson vafot etadi. Bunga Qurʼondagi Oli Imron surasining 185–oyati dalil boʻla oladi: “Har bir jon oʻlim (achchigʻi)ni totuvchidir”.

Qiyomat (arabcha–tik turish, oʻrindan turish) oʻliklarning qayta tirilishi va oʻrnidan turishi maʼnosida ishlatiladi.

Islom dinida qiyomatning yaqin qolganligi masalasi juda dolzarb boʻlsada, uning aniq qachon sodir boʻlishini faqatgina Alloh bilishi, hatto farishtalar ham bu haqda hech qanday ilmga ega emasligi, paygʻambarlar ham uning aniq vaqtini bilmaganlari, ularga faqatgina uning alomatlari bildirilganligiga eʼtiqod qilinadi.

Islom taʼlimotiga koʻra, qiyomat kuni har bir odamning bu dunyoda qilgan amallari tarozuda oʻlchanadi. U mutlaq adolat tarozusi boʻlib, hammaga bir xil munosabat qilinadi. Hech bir kishining foydasidan kamaytirilmaydi, zarariga qoʻshilmaydi.

Islom eʼtiqodiga koʻra, doʻzax ustiga sirot nomli koʻprik qurilgan boʻlib, mahshar (qiyomat kuni bandalar yigʻiladigan va savol–javob boʻlib oʻtadigan

joy)da turish tamom bo'lganidan keyin odamlarga o'sha ko'prikdan o'tishga amr qilinadi.

Jannat (arabcha – bog', bo'ston) taqvodor dindorlar narigi dunyoda rohat va farog'atda yashaydigan joy. Jannat vasfi Qur'oni karimning ko'pgina suralarida, jumladan, Oli Imron, Hadid, Qof, Najm, Rahmon, Voqea, Muhammad, G'oshiya, Inson va boshqa suralarda keltirilgan.

Diniy aqida bo'yicha, bu dunyodagi hayoti davrida imonli holida ezgu ishlar bilan shug'ullangan kishilarga Alloh tomonidan jannatdan joy beriladi. Qur'onda jannat daraxtzorlari ostidagi ariqlarda zilol suvlar oqib turadi, deb ta'riflanadi. U yerda insonlar qarimaydi va kasal ham bo'lmaydi. Jannatda eng oliy ne'mat – Allohning diydorini ko'rishlik hisoblanadi.

Do'zax – din talablarini bajarmagan gunohkorlar oxiratda jazolanadigan joy. Islom dinidagi asosiy tushunchalardan biri. Do'zaxni Alloh kofirlarga va gunohkor bandalarga jazo berish uchun yaratgan. Diniy tasavvurga ko'ra, do'zax dahshatli chuqurlik, ichida olov yonib turadi. Do'zaxga mahkum qilingan bandalar shu olovga tashlanadi, ular qaynoq suv ichadi, u yerda o'sadigan Zaqqum daraxtining mevasi bilan ovqatlanadi, cheksiz azob chekadi, terilari kuyadi. Do'zax azoblaridan yana biri achishtiruvchi sovuqdir. Do'zax bir necha tabaqadan iborat bo'lib, har bir gunohkor o'z gunohiga qarab tabaqalarda azoblanadi. Islom diniga ko'ra, do'zaxning Hoviya, Jahim, Saqar, Lazo, Xutama, Sair, Jahannam kabi yetti darvozasi bor.

Islom dinida diniy amallar ahamiyatiga ko'ra bir necha kategoriyalarga bo'linadi. Ulardan asosiylari quyidagilardir:

Farz deb islom dini ta'limotiga ko'ra, inkor qilib bo'lmaydigan darajada qat'iy dalil bilan bajarilishi talab qilingan amalga aytiladi. Masalan, besh vaqt namoz o'qish, Ramazon oyida ro'za tutish, zakot berish, ilm o'rganish kabi amallar farz hisoblanadi. Farzni bajarish shart hisoblanadi.

Vojib - atamasi hanafiy mazhabi ta'limotiga ko'ra, Qur'oni karimda to'g'ridan-to'g'ri buyruq kelmagan holda bajarilishi shart bo'lgan amallarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, vitr, hayit namozlarini ado etish. Vojibning darajasi farz bilan deyarli barobar.

Sunnat – islom shariatiga ko'ra, Rasululloh (a.s.) buyurgan zimmaga yuklanmagan, lekin bajarilishi talab qilingan amal. Sunnatga amal qilish vojibga amal qilish kabi talab etiladi.

Mandub – bajarilishi afzal bo'lgan amal. Masalan, Fitr (Ramazon hayiti) kuni taom yeyish, misvok va g'usl qilish, xushbo'y surtish va eng yaxshi kiyimlarni kiyish mandub hisoblanadi. Bu ishlarni amalga oshirgan kishi savobga erishadi, lekin uni tark qilgan kishi gunohkor hisoblanmaydi.

Muboh - islom shariati qilish yoki qilmaslikni kishilar ixtiyoriga qo'ygan amallar. Masalan, Ramazon oyida kechasi yeb-ichish kabi. Bunda shariat belgilagan chegaradan chiqmay tasarruf etish muboh sanaladi. Mubohda uni qilgan ham, qilmagan ham – barobar, savob ham, gunoh ham bo'lmaydi.

Makruh - bajarilishi yomon sanalgan amaldir. U ikki xil bo'ladi: makruhi tahrimiy(harom hisoblangan makruh) va makruhi tanzihiy (pok hisoblangan makruh). Makruhi tahrimiy deb e'tiroz bildirilishi mumkin bo'lgan dalil bilan bajarilishi taqiqlangan amalga aytiladi. Masalan, birovning sovchiligi ustiga sovchi yuborish, erkaklarning tilla taqishi va ipak kiyim kiyishi makruhi tahrimiy hisoblanadi.

Makruhi tanzihiy bajarilishi qat'iy hujjatlar bilan taqiqlanmagan, ammo qilinmasligi qilinishidan afzal bo'lgan amaldir. Mushuk, yirtqich qushlar tekkan suvda tahorat olish bunga misol bo'ladi.

Harom atamasi islom ta'limotiga ko'ra, inkor qilib bo'lmaydigan darajada qat'iy dalillar bilan bajarilishi taqiqlangan amal. Masalan, odam o'ldirish, zino qilish, o'g'rilik kabi amallar harom hisoblanadi.

Boshqa dinlarda bo'lgani kabi islom dinida ham o'ziga xos marosim va tantanalar mavjud. Shulardan biri "Iyd al-fitr"yoki "Iyd Ramazon"deb nomlanuvchi musulmonlar bayrami hijriy oyi hisobida ramazon oyi tugashi bilan nishonlanadi.

"Iyd al-adho" – Qurbon hayiti deb nomlanuvchi ushbu bayram iyd al-fitrdan taxminan 70 kun keyin nishonlanadi. Ushbu bayram Ibrohim payg'ambar nomi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bayramda qo'y, mol va tuya so'yilib nishonlaniladi. "Iyd al-adho" kuni hojilar islom dinining besh ruknidan biri bo'lgan haj ibodatini amalga oshiradilar.

Juma kuni – hafta kunlari orasida ajralib turadigan, "kunlarning sayyidi" deb nom olgan kun. Bu kunda musulmonlar chiroyli kiyimlarni kiyib, xushbo'y atirlarni sepib masjidga boradilar va juma namozini o'qiydilar. Shuningdek, yaqinlarining hollaridan xabar oladilar, kasallarni ziyorat qiladilar va shu kabi savob ishlarni ko'proq bajarishga harakat qiladilar.

Qur'oni karim. Qur'oni karim – Alloh tarafidan 23 yilga yaqin muddat mobaynida Muhammad payg'ambarga (a.s.) Jabroil farishta (a.s.) orqali ba'zan oyat-oyat, ba'zan esa to'liq sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitobdir. Bu kitob islom dinining muqaddas manbasi hisoblanadi.

Mazkur ilohiy kitobning bir necha nomlari bo'lib, ulardan "Qur'on" (arabcha – o'qish), "Furqon" (farqlovchi), "al-Kitob" nomlari mashhur. Qur'on 114 ta sura, 6236 oyatdan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta, eng ko'pi 286 oyatni o'z ichiga oladi.

Qur'ondagi suralar o'z mazmuniga yoki nozil bo'lgan vaqtiga, ya'ni xronologik tartibiga qarab emas, balki Muhammad (a.s.) belgilab bergan tartib asosida payg'ambar vafotlaridan keyin jamlab yozilgan.

Muhammad (a.s.) Qur'on oyatlarini Jabroildan qabul qilar, boshqa musulmonlar u kishidan eshitib, yodlab olardilar. Yozishni biladigan odamlar, jumladan, Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abi Tolib, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka'b xurmoning po'stlog'i, yapaloq tosh, katta suyak, teri va shunga o'xshash narsalarga Qur'onni yozib borganlar. Nozil bo'lgan Qur'on oyatlarini yozib boruvchilar "Kuttabu-l-vahy" (Vahiyini yozib oluvchi kotiblar) deb nomlangan.

Shu tariqa Qur'on 13 yil Makkada va 10 yil Madinada nozil bo'ldi. Sura va oyatlar nozil bo'lish vaqti va joyiga ko'ra ikkiga bo'linadi: Makkiy (payg'ambarlikning Makka davrida nozil qilingan) suralar va Madaniy (Madina davrida nozil qilingan) suralar.

Makkiy sura va oyatlar qisqa, lekin keng ma'noni o'zida qamrab olgan, eshitgan kishini larzaga keltiruvchi balog'atli va jarangdor lafzlar bilan yozilgan bo'lib, mazmun jihatdan yakkaxudolikka va Allohning o'zigagina ibodat qilishga targ'ib, risolat (payg'ambarlik)ni, qayta tirilish va hisob-kitobni tasdiqlash, qiyomat va undagi holatlar, do'zax va uning azobi, jannat va undagi ne'matlar, borliqdagi mo'jizalar haqidagi oyatlar.

Madaniy sura va oyatlar esa uzunroq bo'lib, mazmunan shariatning umumiy asoslarini o'rnatish, jamiyat amal qilishi lozim bo'lgan ahloq normalari, yetimlarning molini zulm bilan yeyish, qizlarni tiriklayin ko'mish kabi johiliyatni yomon illatlarini o'z ichiga olgan. Shuningdek, ibodat va muomalot (tijorat), had, oilaviy munosabatlar, meros taqsimoti, jihad, jamoat namozining fazilatlari, xalqaro aloqalar, shariat masalalarini yortishga qaratilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Payg'ambar alayhissalom davrlarida Qur'on jamlanmagan edi. Bunga sabab, birinchidan, Payg'ambar hayot bo'lgan ilk davrda Qur'on oyatlari vaqti-vaqti bilan doimiy ravishda nozil bo'lib, uni jamlab kitob holiga keltirish hali dolzarb masala darajasiga ko'tarilmagan edi. Ikkinchidan, bu davrda odamlar orasida «hali vahiy tushishi uzoq davom etadi», degan kayfiyat hukmron edi.

Bu boradagi ishlar Abu Bakr Siddiq va Usmon ibn Affon davrlarida amalga oshirildi.

Payg'ambarning (a.s.) vafotlaridan so'ng ba'zi arab qabilalari dindan qayta boshladilar. Abu Bakr Siddiq tomonidan ularga qarshi olib borilgan "ridda" urushlarida musulmonlardan bir ming ikki yuz kishi, shu jumladan yetmishga yaqin murattab (Qur'onni to'lib, tartib bilan yod olgan) qorilar shahid bo'ldilar. Buning xabari Madinaga yetib kelgach, Umar ibn Xattobning tashabbusi va

tavsiyasi bilan Abu Bakr Siddiq Rasulullohning vahiy kotiblaridan bo'lgan Zayd ibn Sobitni chaqiradilar va Qur'on oyatlarini sahifalarga jamlashni buyuradilar. Shu tariqa xalifa Abu Bakr Siddiq davrlarida Qur'on ilk bor sahifalarda jamlandi.

Uchinchi xalifa Usmon ibn Affon davrida Qur'on ikkinchi marta jamlanib, kitob holatiga keltirildi. Qur'oni karimning Usmon roziyallohu anhu tomonidan jamlanishidagi eng ahamiyatli jihati uning qiroatini yagona shaklga keltirilgani edi. Bundan «Ilk Qur'on oyatlari yozilgan nusxalar orasida har xillik mavjud bo'lganmi?» degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javoban Qur'on ilmlariga oid «etti xil qiroat» haqidagi ma'lumotni keltirib o'tish joizdir. Usmon ibn Affon davrida islom dini Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqib, turli xalqlar orasida tarqaldi, musulmonlar soni ko'paydi. Yangi islomga kirgan aholi o'sha yerga borgan qori sahobalardan Qur'on qiroatini o'rganar edilar. Mazkur sahobalar esa o'z lahjalariga xos qiroatni o'rgatardilar. Ikki xil qiroat sohibi bir joyda jam bo'lib qolsa, har bir tomon o'zining qiroati to'g'ri va afzal deb, da'vo qilar, natijada tortishuv yuzaga kelardi.

Mazkur Mushafni jamlash ham Abu Bakr Siddiq davridan tajribaga ega bo'lgan sahoba – Zayd ibn Sobitga yuklandi.

Mazkur ish amalga oshirilgach, Qur'ondan yozilgan boshqa har xil lahjalardagi sahifalar kuydirib yuborildi. Yagona mushafdan bir necha nusxa ko'chirildi va har bir mintaqaga bittadan yubordilar.

Usmon ibn Affon turli yurtlarga yuborgan Mushaflarning soni oltita bo'lib, ular Makkiy, Shomiy, Basriy, Kufiy, Madina ahli uchun umumiy bo'lgan Madaniy va xalifaning o'zi uchun xos bo'lgan Madina Mushaflaridir.

“Imon” deb nomlangan asl nusxa esa Madinada, xalifa Usmon huzurida qoldi. Ko'chirilgan nusxalar “Mushafi Usmon” deb ataldi.

Usmon mushafi. Arab tarixchilarining xabar berishicha, 656 yilda xalifa Usmon Qur'onni mutolaa qilib o'tirganlarida o'ldirilgan. U kishining qoni Qur'onga to'kilgan. Shu tufayli ham Usmon Qur'oni asl nusxaligi va xalifa qoni to'kilgani bilan musulmon dunyosida alohida e'tibor bilan qaraladi. Toshkent shahridagi Usmon Qur'onida ham qon izlari bo'lib, shu nusxa xalifa Usmonga tegishli degan fikrlar mavjud.

Usmon Qur'oni Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xoja Ahror madrasasida saqlanar edi. Qur'onning Samarqandga keltirilishi haqida ham xalq o'rtasida har xil rivoyatlar mavjud.

Ko'pchilik olimlarning fikricha mazkur musxaf sohibqiron Amir Temur tomonidan Basradan ko'plab qo'lyozma kitoblar va boshqa o'ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va mashhur Temur kutubxonasiga qo'yilgan. 400 yil davomida bu muqaddas kitob Samarqandda saqlanadi.

1868 yilda Rossiya askarlarining Samarqandga bostirib kirishi bilan xalqimizning moddiy, ma'naviy boyliklariga tajovuz boshlandi. Bu tajovuzdan qabr toshlari, maqbara ichidagi yodgorliklar ham, musulmonlar diniy e'tiqodining shohona mulki Usmon Mushafi ham chetda qolmadi. Musulmonlar Qur'onini tezlikda bekitib Buxoroga jo'natmoqchi bo'ladilar. Biroq bu xabar Zarafshon o'lkasining boshlig'i general Abramovga yetib, "fan uchun bunday nodir, bebaho, qadimiy yodgorlikni qo'ldan chiqarmaslik uchun hamma chora ko'rilsin" deb polkovnik Serovga buyruq beradi. Serov Qur'onni general Abramovga keltiradi. Abramov esa uni zudlik bilan Turkiston general-gubernatori K.N.Kaufmanga yetkazadi. U o'z navbatida zudlik bilan 1869 yil 24 oktyabrda Peterburgga – Imperator kutubxonasiga alohida kuzatuvchilar bilan yuboradi.

1917 yil Oktyabr to'ntarishidan so'ng Butunrossiya musulmonlar jamiyati nomidan RSFSR Xalq Komissarlari Sovetiga murojaat qilib, muqaddas Usmon Qur'oni o'z egalariga, ya'ni musulmonlarga topshirilishini talab qiladi. RSFSR (XKS – Xalq komissarlari soveti) tomonidan musulmonlarning talabi qondirilib, Qur'on musulmonlar ixtiyoriga beriladi. 1917 yil 29 dekabr kuni Peterburgdagi podsho kutubxonasining "nodir qo'lyozmalar" bo'limidan olinib, Ufa shahriga jo'natiladi. Qur'on 1923 yilgacha Ufada saqlanadi.

1923 yil 23 iyulda Butunittifoq Markaziy Ijroqo'mi Usmon Qur'onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlikni Ufadan Toshkentga maxsus komissiya kuzatuvida olib kelinadi. Usmon Mushafi Toshkentdagi Eski shahar muzeyiga keltiriladi va maxsus po'lat sandiqda saqlana boshlanadi. 1926 yilning 1 yanvaridan Eski shahar muzeyi O'zbekiston davlat muzeyiga aylantirildi. Muzey ochilgandan so'ng 1926 yilning faqat bir oyi ichida bu yerni 4000 kishi ziyorat qilgan. 2000 yilda YuNESKO tashkiloti tomonidan maxsus sertifikat bilan "eng bebaho yodgorlik" deb e'tirof etilgan Usmon Mushafi bugungi kunda O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi.

Hadis. Hadis – Islom dinining Qur'oni karimdan keyingi o'rinda turuvchi muqaddas manbasidir. U Muhammad payg'ambarning (a.s.) aytgan so'zlari, qilgan ishlari, taqrirlari (ko'rib yoki eshitib qaytarmagan ishlari) yoki u kishiga berilgan sifatlarni o'zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlardir. «Hadis» so'zining lug'aviy ma'nosi – «so'z, xabar, hikoya; yangi narsa».

Sunnat hadis so'zidan kengroq ma'noni bildiradi. Sunnat Rasululloh (a.s.)ning pokiza siyratlari, turmush tarzlari, diniy yo'llariga nisbatan ishlatilgan. Hadislar tarkib jihatidan ikki qismdan: aynan xabar beruvchi matn va uni rivoyat qilgan roviylar zanjiri – isnod yoki sanaddan iborat. Isnod hadisning tarkibiy qismi bo'lib, uni uning aytuvchisiga bog'lash, ya'ni matnga olib boradigan kishilar (roviylar) zanjiri. Hadisning boshlanishida uni birinchi aytgan va eshitgan kishidan hadis yozayotgan musannifga qadar barcha roviylarning nomlari birma–bir

ko'rsatib chiqiladi, mana shu hadisning tayanadigan asosi isnod bo'ladi. Isnod kuchli deb topilsa matn ham ishonchli hisoblangan. Shuning uchun muhaddislarning asosiy vazifalaridan biri hadislarning isnodini kuchli yoki kuchsiz ekanini ko'rsatib berish bo'lgan.

Hadislar o'zidagi ma'lumot xarakteriga qarab ikkiga bo'linadi:

– **al-hadis al-qudsiy**. Ma'nosi Alloh taolodan bo'lib, aytilishi, ya'ni lafzi Rasululloh (a.s.)dan bo'lgan hadislar. Shuningdek, u «Hadisi Rabboniy», «Hadisi ilohiy» deb ham aytiladi. Uni Alloh taolo o'z nabiyiga ilhom berish, tushida ko'rsatib bildirish orqali xabar beradi, qudsiy hadisning martabasi Qur'oni karim bilan hadisi nabaviy o'rtasidadir;

– **al-hadis an-nabaviy** (bunda ma'no ham, lafz ham Payg'ambarniki deb hisoblanadi). Ilk hadis to'plami xalifa Umar ibn Abdulaziz ko'rsatmasiga binoan muhaddis Muhammad ibn Shihob Zuhriy (670–721) tomonidan yozilgan. Shu davrdan e'tiboran hadis to'plamlarini yozish odat tusiga kirib, boshqa olimlar ham bu ishni davom ettirdilar.

Milodiy IX asr hadis ilmi tarixida oltin davr hisoblanadi. IX asr asosan mavjud hadis to'plamlari qayta ishlagan holda ularni boblar bo'yicha tasnif qilib, musannaflar yozish davri bo'ldi. Musannaflar tuzilishi mobaynida hadislar, asosan ularning isnodlari tanqidiy o'rganilib, sahih (ishonchli)lari hasan va zaif (ishonchsiz)laridan ajratildi. Bu esa hadislardan foydalanish uchun qulaylik tug'dirdi. Islom olamida shunday musannaflardan oltitasi alohida e'tiborga molik sanaladi. Ular – eng katta obro'ga ega bo'lgan Imom Buxoriy (810-870) va Imom Muslimning (vaf. 875 y.) “Al-Jomi' as-sahih” to'plamlari, undan keyingi eng muhim asarlar – Abu Dovud, Termiziy (vaf. 892 y.), Nasoiy (vaf. 915 y.) va Ibn Mojaning (vaf. 886 y.) “as-Sunan” asarlaridir.

“Al-Jomi' as-sahih” kitoblari o'z ichiga biografik ma'lumotlar, Qur'on oyatlariga tafsirlar, diniy qonun-qoidalar, ijtimoiy va shaxsiy axloq mezonlarini ham qamrab oldi. “Al-Jomi' as-sahih”ning ishonchlilik darajasi boshqa to'plamlardan ko'ra ancha yuqori hisoblanadi.

Islom ta'limoti va qoidalarining asosiy manbalari – Qur'on va hadislardan tashqari ikkinchi darajali manbalari ham mavjud. Ulardan biri ijmo bo'lib, u Qur'on va hadis matnlarida aniq ko'zda tutilmagan masalalar yuzasidan mashhur islom ulamolarining mazkur mo''tabar manbalarga zid bo'lmagan bir fikrga ittifoq qilishlarini bildiradi. VII asrning ikkinchi yarmidan yo'lga qo'yilgan ijmoning islom ahkomlarini bir me'yorda bo'lishi hamda musulmonlar orasida turli ixtiloflar kelib chiqishining oldini olishdagi ahamiyati beqiyosdir.

Shuningdek, yana bir manba sifatida qiyos qabul qilingan bo'lib, u ilk islomdan keyingi davrlarda vujudga kelgan, Qur'on yoki hadisda hukmi aytilmagan muammolarni avvalgi hukmlarga qiyoslab hukm chiqarish uslubidir.

Bunda olimlar tarafidan mo''tabar manbalar matnida o'rganilayotgan muammoga o'xshash masalalar tadqiq qilinadi. Shu asosda mantiqiy javob topilib, hukm qilinadi. Qiyos jamiyatda vujudga keluvchi turli muammolarni mantiqiy jihatdan oson hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqida ilmi. «Aqiyda» so'zi arabcha «aqada» fe'lidan olingan bo'lib, bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lash ma'nosini anglatadi. Bu so'zning ja'mi (ko'plik shakli) «aqoid» bo'ladi. Islom aqiydasi musulmon insonni ma'lum bir narsalar bilan mahkam bog'lab turadigan e'tiqodlar majmu'asidir.

Aslida biror narsaga e'tiqod qilish uchun uni hech qanday shubha qoldirmaydigan darajada yaxshi bilish kerak. Buning uchun avvalo o'sha narsani idrok qilish kerak. Keyin esa o'sha hissiy idrok ilmiy ma'rifatga aylanishi lozim. So'ngra zamon o'tishi, boshqa dalillarning sobit bo'lishi ila o'sha ilmimiz tasdiqlanadi va unga bo'lgan ishonchimiz kuchli bo'ladi. Mazkur ilmga bo'lgan ishonch ongimizda mustahkam ravishda qaror topganidan so'ng u bizning aqlimizga va qiladigan ishlarimizga o'z ta'sirini o'tkazadigan bo'ladi.

Qachonki ma'lum bir ilm bizning fikrimizga aylanib, his tuyg'ularimizni yo'llaydigan va harakatlarimizni boshqaradigan holga yetganda aqiydaga aylangan bo'ladi. Demak, aqiyda ilmga asoslangan bo'lishi lozim. Bu ilmning maqsadi – dinga bo'lgan ishonchni, diniy aqiydalarni qat'iy dalillar ila isbotlash va ular to'g'risidagi shubhalarni rad qilishdir. Din asoslarini shubhalaridan va adashtirishlaridan muhofaza qilish.

Moturidiya ta'limotining asoschisi Abu Mansur Moturidiy melodiy XI asrning o'rtalarida Samarqandning «Maturid» qishlog'ida 870 yil dunyoga keldi. Moturidiy o'z ta'limotini an'analarini va ilmiy asarlari bilan Movarounnahr ilohiyot maktabi rivojlanishiga katta ulush qo'shdi. Ilohiyot ilmlari to'la shakllanib kamol topishiga xizmat qildi. Ularni qayta ishlab chiqib, ma'lum tizimga solishdek bir ishni amalga oshirdi va hanafiy talimotini O'rta Osiyo xalqlarining urf-odatlarini bilan bog'liqligini o'z qarashlari orqali ko'rsatib berdi. U yaratgan ta'limot islom dinining buyuk aqidaviy oqimidan biri sifatida tanildi.

Moturidiyning "Ta'vilot al-ahli sunna" yoki "Ta'vilot alQur'on" nomi bilan tanilgan tafsiri bo'lib, u zod haqida yozganlarning barchasi bu kitoblarni eslab o'tishadi. Mazkur kitob Moturidiya aqidasi ma'lum-u mashhur kitob bo'lib, Moturidiya aqidaviy yo'nalishidagi kishilar uchun bu tafsir avvalda ham, keyin ham bemisl deb sanalgan.

"Kitob at-tavhid" Moturidiyning bu kitobi kalom ilmiga oid asarlarining eng ahamiyatga molikligi hisoblanadi. Zero, bu asarda u zotning kalom ilmiga tegishli qarashlari qaror topgan va yana eng muhim e'tiqodiy masalalarni bayon qilgan. Shu boisdan "Kitab ut-Ta'viy Moturidiya aqidasi"ni tanitgan asosiy manbaga

aylandi. Moturidiylik aqidaviy yo'nalishida Abu Mansur Moturidiydan so'ng kelgan kishilarni barchasi u kitobga tayanishadi.

Ash'ariylik islomga oid kalom maktabi bo'lib mu'tazilikdan chiqqan Abul Hasan Ash'ariyga mansub bo'lib, u zot Basra shahrida 873 yil tavallud topgan.

Abul Hasan al-Ash'ariyning vafot etgan sanasi haqida ham turli ixtiloflar mavjud. Ba'zi manbalarda 330/941 yil deb ko'rsatilsa, ba'zilarida 330/941 yillardan keyin vafot etgani aytib o'tilgan. Lekin aksariyat manbalarda Ash'ariy 324/936 yil vafot etgani va Bag'dodda dafn qilingani haqida ma'lumotlar mavjud. Islom olamida "ahli sunna val-jamoa" e'tiqodida ko'plab ulamolar mavjud bo'lsa-da, uning aqidaviy qarashlari "Ash'ariya" nomi bilan alohida ta'limot sifatida e'tirof etilgan. Abu Mansur al-Moturidiy va Abul Hasan al-Ash'ariylarning ta'limotlari o'rtasida faqatgina juz'iy farqlar bo'lgan va ular asosan bir-birini to'ldirib kelgan. Shuning uchun ham ushbu ikki ta'limot islom ilohiyotida to'g'ri ta'limot sifatida e'tirof etilgan.

Yuqorida zikr etilganidek, Ash'ariy va Moturidiy ta'limoti asosan o'sha davrda keng tarqalgan va ulamolar tomonidan "adashgan guruhlar" deb e'lon qilingan mo'taziliya, qadariylar, jabariylar, mushabbiha ta'limotlariga raddiyalar berishga qaratilgan.

Moturidiya aqidasi bilan Ash'ariya aqidasi o'rtasida bir necha masalalarda farqli jihatlar bor. Ularni ba'zi olimlar 15 ta, boshqalari 40 ta, hatto, 50 tagacha sanab yetkazganlar. Ulardan asosiylari — Allohning sifatlarini zotiy va fe'liy sifatlarga bo'lish, sifatlari ayni zotmi yoki g'ayri zotligi, Muso (a.s.) Allohning kalomini bevosita eshitganmi yoki bilvositami, iroda bilan rizo birmi yoki tafovutlimi, Allohni ko'rish joizligiga Ash'ariy aqliy dalil keltirgan, Moturidiy naqliy, qabih ishning sodir etilishi bandadanmi yoki u ham Allohdanmi — bunga Moturidiy husnu qubh hammasi Allohdan, faqat behikmat emas, deyдилar. Inson o'z toqatidan tashqari ishga taklif etilishi mumkin, deb Ash'ariy, mumkin emas, deb Moturidiy aytadilar. Shuningdek, Allohni aql bilan tanish vojibmi yoki naql bilanmi degan masalada Moturidiy aql bilan deganlar. Imon bilan islom bir narsa ekani, baxtli va baxtsiz insonlar oxir-oqibatda o'zgarib-almashib qolishlari mumkinligi, qilinadigan yaxshi va yomon amallar bandaning kasbi va Allohning yaratishi bilan hosil bo'lishi, muqallidning imoni maqbul ekani, imonning o'zi emas, balki uning nuri, quvvati ortib yoki kamayib turishi, imonning ruknlari ikkita, ya'ni iqror va tasdiqdan iborat ekani, amallar imon tarkibiga kirmasligi, balki savoblar va gunohlar alohida hisobga olinishi kabi masalalarda Imom Ash'ariy bizning moturidiya aqidamizning xilofini taqrir etganlar.

Har ikkala ta'limot "Ahli sunna val-jamoa" yo'nalishida tan olingan bo'lib, o'rtalaridagi farqlar biri boshqalarini kuforda va adashishlikda ayblamaydi. Har

ikkala ta'limot islom dinining eng nozik va daqiq jihati xisoblangan aqida va kalom ilmiga doir masalalarni hal etishda o'ziga xos usul bilan yondoshadilar.

Abul Muin Nasafiy o'zining ma'naviy ustozlari, buyuk mutakallim imom Abu Mansur Moturidiy ta'limotini yanada rivojlantirib, uning butun Sharq mamlakatlariga tarqalishida beqiyos xizmat ko'rsatgan olim sanaladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Abu Muin Nasafiy ilmiy merosini o'rganish bo'yicha joriy yilda samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan allomaning maqbarasi ta'mirdan chiqarilib, katta ziyoratgohga aylantirish ishlari davom etmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 apreldagi tegishli qaroriga muvofiq, Abu Muin Nasafiyning boy ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish bo'yicha izchil sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Abu Muin Nasafiy 1027 yili tavallud topgan hamda 1114 yili zulhijja oyining yigirma beshinchi kuni (21 may) vafot etgan. Ulug' ajdodimiz Qarshi tumanining Qovchin qishlog'ida dafn etilgan.

Aqida ilmi peshvosi bo'lgan buyuk mutafakkir bobomiz Abul Muin Nasafiy hayoti va qoldirgan boy ilmiy merosi to'lig'icha ibrat maktabidir. Ushbu bobokalonimiz moturidiya ta'limoti vakillarining eng yorqin vakili bo'lgan. Bu zotning shonli tariximizdagi ikkita ulkan xizmatini alohida ta'kidlashimiz zarur. Birinchidan, uning moturidiya ta'limotining diyorimizda saqlanib qolishidagi eng katta xizmati bo'lsa, ikkinchi jihatdan, o'sha davrda diyorimizda turli buzg'unchi oqimlarning rivojiga katta qarshilik ko'rsatganligi tufaylidir.

Alloma bobomiz o'z asarlarida turli buzg'unchi, adashgan oqimlarga keskin raddiyalar berib, ularning diyorimizda rivojlanishiga qarshilik qilgan. O'sha davr ulamolari Abu Muin Nasafiyning o'z asarlarida illatlarni fosh etib, haqiqatni bayon qilgani uchun unga arab tilida "Sayf ul-haq", ya'ni "Haqiqat qilichi" degan sharaflilik nom berganlar.

Nasafiy o'zining samarali ijodi davomida kalom ilmiga oid o'ndan ortiq asarlar yozib qoldirgan. "Tabsirat al-adilla", "Kitob at-tamhid li qavoid at-tavhid", "Bahr al-kalom", "Manohij al-aimma fil-furu'", "Izoh al-Manhaj li kavn al-aql hujjatan", "Qasid al-qavoid fi ilm al-aqoid", "al-Ifsod li xad' al-ilhod" hamda "al-Umda fi usul al-fiqh" asarlari ana shular jumlasidandir. Bizning davrimizgacha ulardan faqat uchta, ya'ni "Tabsirat al-adilla", "Kitob at-tamhid li qavoid at-tavhid" va "Bahr al-kalom" nomli asarlari yetib kelgan hamda nashr etilgan. Mazkur asarlar orasida "Tabsirat al-adilla" allomaning eng katta ijod mahsulidir.

Muhammad (a.s.) 632 yilda Madinada vafot etganlaridan so'ng u kishining to'rtta safdoshi – Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Toliblar musulmonlarga rahbarlik qilishda payg'ambarga vorislik qildilar.

Ular “Xalifat Rasulillah” (“Payg’ambarning o’rinbosari”) ma’nosida “Xalifa” deya ataldilar. Keyingi davr manbalarida mazkur to’rt xalifa “al-Xulafo ar-roshidun” («To’g’ri yo’ldan boruvchi xalifalar») deb nomlanadi. Xulafoi roshidin, ya’ni «chahoryor» (yoki «choriyor» – Payg’ambarning to’rt hamrohi, do’sti, sahobasi)ning xalifalik davrlari quyidagi tartibda bo’lgan:

- 1) Abu Bakr Siddiq – 632–634;
- 2) Umar ibn Xattob – 634–644;
- 3) Usmon ibn Affon – 644–656;
- 4) Ali ibn Abu Tolib – 656–661.

Ilk ikki xalifa davrida musulmonlar orasida birlikka erishilgan bo’lsa, xalifa Usmon ibn Affon davriga kelib jamoa orasida fitnalar paydo bo’ldi.

656 yili Basra, Kufa va Misrlik bir necha ming fitnachilar Madina atrofini o’rab olib bir qator talablarni qo’yadilar. Xalifa Usmon (r.a.) ularning barcha talablarini qondiradilar. Shunga qaramay, qo’zg’olonchilar “Usmon bizni o’ldirmoqchi bo’ldi”, deb yolg’on xabar tarqatadilar va halifaning uyiga bostirib kirib, uni qatl etadilar. Aynan Usmon ibn Affonning (r.a.) o’ldirilishi keyingi bo’linishlar, ixtiloflar va fitnalarning boshlanishi bo’ldi.

Musulmon davlatining to’rtinchi rahbari etib Rasululloh (a.s.)ning jiyani va kuyovi bo’lgan Ali ibn Abu Tolib (r.a.) saylandi. O’sha davrdagi qoidaga binoan xalifa Madinada saylanar, keyin esa boshqa hududlarning barchasi o’sha xalifaga bay’at berishi lozim edi. Xalifa Aliga Misr va Shom (Suriya) voliylari (hokimlari)dan tashqari barcha hudud ahli bay’at qiladi. Misr voliysi Amr ibn Oss (r.a.) va Shom amiri Muoviya ibn Abu Sufyon (r.a.)lar qarindoshi Usmon ibn Affonning o’ldirilishidan qattiq qayg’uga tushdi va uning qotillaridan qasos olinmaguncha yangi xalifaga bay’at qilmaslikka qaror qiladi.

Xalifa Ali (r.a.) esa davlat ichidagi nozik ijtimoiy–siyosiy vaziyatni inobatga olgan holda fitnachilarga nisbatan chora ko’rishni kechiktiradi. Shu payt, Makkada Oisha (r.a.), Zubayr ibn Avvom (r.a.), Talxa ibn Ubaydulloh (r.a.)lar boshchiligida bir qator sahobalar qo’shin to’plab Usmon (r.a.)ning qotillaridan o’zlari qasos olishga qaror qilib, xalifa ruxsatisiz Basra va Kufaga yo’l oladilar. Bundan xabar topgan Xalifa Ali ularni bu ishdan qaytarish uchun yo’lga chiqadi va Kufa shahri yaqinida ularga yetib olib muzokaralar o’tkazadi. Natijada, ikki tomon kelishuvga erishib makkaliklar ortga qaytishga va bundan buyon xalifaning izmidan chiqmaslikka kelishadilar. Biroq, o’sha tuni bir guruh odamlar ikki tomonga ham hujum qilib hazrat Ali va makkaliklar qo’shinini urishtirib qo’yadi. Mazkur voqea tarix kitoblarida “Jamal voqeasi”, yoki “Jamal jangi” deb ataladi.

657 yilda Xalifa Ali va bay’at qilishni istamagan Shom (Suriya) hokimi Muoviya o’rtasida «Siffin» deb ataluvchi joyda jang bo’lib o’tadi. Bu voqea, islomdagi ilk bo’linishlarning boshlanishiga sabab bo’ldi. Musulmonlarning qoni

to'kilishini istamagan ikkala taraf sulh tuzishga va xalifalik saylovini qaytadan o'tkazishga kelishib oldilar.

Xorijiylik. Hazrat Alining yon berganidan norozi bo'lgan uning 12ming askari bo'ysunishdan bosh tortib, Harura nomli qishloqqa ketdilar. Bu guruh keyinchalik «Xorijiyalar» (yoki al-xavorij, xorijiya) deb ataldi.

Xavorijlar o'zlariga Abdulloh ibn Vahb Rosibiyni amir etib saylab, Ali va Mu'oviyani yo'q qilish payiga tushdilar. Xalifa Alini 660 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o'ldirgach, xavorijlar ikki firqaga bo'linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xavorijlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xavorijlar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar va o'lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749–1258) qo'liga o'tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o'z kuchini yo'qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so'nggina xavorijlar inqirozga yuz tutdi.

Xavorijlar ta'limotlari asosi quyidagilardan iborat:

- ular gunohkorni «kofir» deb e'lon qildilar. Shunga ko'ra xalifa Usmonni Abu Bakr va Umar yo'lidan yurmagan uchun kofir deyishadi. Ali, Muoviya, Abu Muso Ash'ariy, Amr ibn Oslar muxolif guruhlarda qatnashganlari uchun ular nazdida kofirlar;

- «zolim» podshohga qo'lda qilich bilan qarshi chiqishni diniy vazifa (vojib) deb biladilar. O'z e'tiqodini yashirish tamoyili (taqiya) rad etadilar. O'zlari harbiy jihatdan zaif bo'lsalar ham, qudratli «zolim» podshohga qarshi chiqish vojib bo'laveradi, deb hisobladilar;

- xalifalikka har qanday odam, Quraysh qabilasidan yoki arab bo'lishligidan qat'i nazar, musulmonlar tomonidan saylanishi mumkin. Xalifalik, shialar aytganidek, ma'lum jamoat (sulola) ichida cheklanmagan;

- namoz, ro'za, zakot va boshqa amallarni imonning bir bo'lagi, deb hisoblaydilar. Kishi to barcha amallarni bajarmaguncha, dili bilan tasdiqlab, tili bilan aytishi musulmon deb tan olinishi uchun kifoya emas.

VII asr ikkinchi yarmida xavorijlar orasida yigirmaga yaqin turli guruhlar paydo bo'ldi. Ular ichida eng yiriklari – ibodiyalar, azoriqalar hamda sufriylar bo'lib, o'z yo'l boshchilari nomi bilan shunday atalganlar.

Shialik. Siffin jangi natijasida haruriylar bilan deyarli bir paytda o'zini “shiatu Ali” (Alining guruhi) deb atagan aliparast oqim ham yuzaga keldi. VII asr oxirlariga kelib Shialik, Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo'nalishga aylangan. Shialik boshda har qanday ixtilof va aqidaviy farqlardan xoli

holda, faqat siyosiy harakat sifatida namoyon bo'lgan edi. Keyinroq diniy ixtiloflar, aqidaviy farqlar vujudga kelgan.

Shia so'zining to'liq shakli "ash-Shia" (tarafdorlar, guruh, partiya) yoki "Shiatu Ali" (Ali tarafdorlari) bo'lib, bu nom hazrat Aliga ergashganlar va ularning avlodlariga nisbatan berilgan.

Shialikda imomat asosiy diniy ruknlardan hisoblanib, u jamiyat manfaatlaridan emas, balki din ruknlaridan kelib chiqadi deb e'tiqod qilinadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, rahbar xalq tomonidan saylanmay, balki rahbarlik meros sifatida o'tadi. Rasululloh Alini xalifa etib tayinlagan, undan keyin esa xalifalik uning avlodlarida qonuniy meros sifatida vasiyat yo'li bilan uzatiladi. Ular Alining xalifalikka haqli ekanligini ilohiy deb biladilar, imomlik ularda payg'ambarlik kabi ilohiy mansab hisoblanib, Alloh bandalari orasidan payg'ambarlarini tanlab, ularni gunohlardan saqlagani va ularga "ilmi ladun" (Alloh huzuridan berilgan ilm) bergani kabi, xalifalarni ham shunday tanlaydi deyдилar. Abu Bakr, Umar va Usmonlar esa bu huquqni Alidan zo'rlik bilan tortib olishgan, Ali o'sha davrda xalifalikni boshqarganmi yoki yo'qmi bundan qat'i nazar, Alining xalifaligi Rasululloh vafotlarining birinchi kunidan boshlangan, deb da'vo qiladilar.

Shialik imomiylar va ismoiliylar kabi ikki yirik oqimga bo'linib ketgan.

Imomiylar yoki "Isno ashariya". Ushbu firqa e'tiqodicha, imomlik Ali ibn Abu Tolibdan boshlanadi, so'ng uning Fotimadan bo'lgan o'g'lilari Hasan va Husaynga o'tadi va nihoyat o'n ikkinchi imom Muhammad Mahdiyga borib tugaydi. Shuning uchun bu firqa Isno ashariylar-o'n ikki imomga e'tiqod qiluvchilar deb ham nomlangan.

Imomiylar e'tiqodiga ko'ra, so'nggi – o'n ikkinchi imom Muhammad Mahdiy hali o'lmagan, balki u 873–874 sanada g'oyib bo'lgan va oxir zamonda paydo bo'lib, zulm va fasodga to'lgan Yer yuzini tinchlik va adolatga to'ldiradi.

Zaydiylar. Mazkur firqa asoschisi Zayd ibn Ali Madinada tug'ilgan (698–740). Zayd ibn Ali ilm yo'lida Basraga borib mo''tazila, qadariya, jahmiya va boshqa turli firqalar aqidalari asoslarini o'rgandi.

Zaydiylar e'tiqodiga ko'ra:

- bir vaqtning o'zida ikki o'lkada ikki imomga bay'at qilish joiz;
- imomlar begunoh emas;
- taqiya (sharoit og'irlashgan paytda e'tiqodni sir tutish) nojoiz;
- sahobalar haqida nолоyiq so'zlarni aytish mumkin emas;
- Abu Bakr, Umar va smon (r.a.)lar ham xalifalikka loyiq bo'lganlar.

Imom Zayd ibn Alining "Majmu'" nomli kitobidagi qarashlari zaydiya fiqhining asosini tashkil qiladi. U ham boshqa faqihlar kabi birinchi o'rinda

Qur'onni, keyin esa sunna, ijmo, qiyos, istihson, so'ngra aqlni shariat asoslaridan deb hisoblaydi.

Ja'fariya. Shialikning imomiya firqasidagi imomlardan biri Abu Abdulloh Ja'far as-Sodiq 699 yil Madinada tug'ilgan. U Imom Muhammad ibn al-Boqirning o'g'li bo'lib, ota tarafidan nasabi Ali ibn Abu Tolibga, ona tarafidan nasabi Abu Bakr as-Siddiqqa boradi. U Islomda birinchilardan bo'lib falsafa yo'nalishiga asos solgan. Bundan tashqari u fiqh, hadis, kalom ilmlarida ham peshqadamlardan bo'lgan.

Ja'fariya mazhabining sunniylik mazhablaridan farqli tomoni shundaki, ularda qiyos bilan fatvo chiqarish usuli tan olinmaydi, hadislardan faqat payg'ambar xonadonidan bo'lgan ahli bayt rivoyat qilganlarinigina qabul qiladilar. Bundan tashqari ularda vaqtinchalik nikoh – "mut'a" va taqiya halol deb hisoblanadi.

Ismoiliya. Islomdagi shia oqimining asosiy shahobchalaridan biri bo'lib, Islom tarixida juda muhim o'rin tutgan. Ushbu firqa vakillari turli mamlakatlarda "botiniya", "sab'iya", "qarmatiya", "ta'limiya", "mulhidiya" va hokazo nomlar bilan atalganlar.

Ismoiliyaning paydo bo'lishi VIII asrda shialar orasidagi bo'linishdan boshlandi. Shialarning keyinchalik "imomiylar" deb atalgan bir guruhi Ja'far as-Sodiqning kichik o'g'li Muso al-Kozimni yettinchi imom deb tan oldilar. Chunki Imom Ja'far ichkilik va maishatga berilgan katta o'g'li Ismoilni vorislikdan mahrum etib, imomlikni kichik o'g'liga vasiyat qilgan edi.

Ammo, shunga qaramay, boshqa bir guruh Ja'far as-Sodiqning katta o'g'li Ismoilni imomlikning merosxo'ri sifatida tan oldilar. Ismoil otasi tirikligida vafot etganligi sababli, keyinchalik uning o'g'li Muhammad ibn Ismoilni yettinchi imom sifatida qabul kildilar. Imomiya shialaridan farqli ravishda imomatning davomchisi Ismoildir deb da'vo qiluvchi ushbu firqa o'zlarini "ismoiliylar" deb atadilar.

Ismoiliya mafkurasi shakllanishining ilk davrdayoq uning ikki qirradi "tashqi" – ekzoterik (az-zohir) va "ichki" – ezoterik (al-batin) namoyon bo'ldi. "Tashqi" ta'limot o'z ichiga barcha urf-odat va jamoaning oddiy a'zolariga majburiy bo'lgan shariatning huquqiy qonunlarini olgan edi. "Ismoiliya" ta'limotining bu jihati imomiylar ta'limotidan kam farq qiladi. "Ismoiliya"ning "Ichki" ezoterik aqidasi ikki qismdan iborat:

1. "At-Ta'vil" – Qur'on va shariatni allegorik tarzda sharhlash;
2. "Al-Haqoiq" – "maxfiy", "oliy" haqiqatlarni tafsir qilishga asoslangan falsafiy va ilohiy bilimlar tizimi.

Bu firqa vakillari Hindiston, Pokiston, Arabiston yarim orolining janubi va boshqa joylarda mavjud.

Sunniylik (Ahli sunna val-jamoa) yo'nalishi 657 yilgi voqealar va ularning natijasida kelib chiqqan firqabozlik sharoitida ham o'rta yo'lni tutgan, davlat

rahbarlariga qarshi bormagan, o'zlarini sunnatga amal qiladigan va jamoatdan ajralmaydiganlar guruhi sunniylar yoki "ahli sunna val jamoa" deb ataldi. Bugungi kunda sunniylar dunyo musulmonlarining 92,5 foizini tashkil etadi.

Sunniylik doirasida to'rt fiqhiy mazhab (arab. yo'l) va ikki aqidaviy ta'limot mavjud bo'lib, xavorij va shia firqalaridan farqli ravishda ular bir-birlarini rad etmaydilar. Bugungi kunga qadar ham, sunniy ulamolar to'rttala fiqhiy va ikkala aqidaviy mazhablarning to'g'ri ekani, ularning bir-birini to'ldirishi, bunday farqlilik tarixiy, ijtimoiy omillar mahsuli ekani va bu musulmonlar uchun osonlik yaratishiga ittifoq qilishgan.

"Ahli sunna val-jamoa" tarkibiga kiruvchi fiqhiy mazhablar quyidagilardir:

Hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifa kunyasi bilan mashhur an-Nu'mon ibn Sobit al-Kufiy (699–767)dir. U kishi o'zlarining aql zakovati bilan ajralib turgan bo'lib, ustozlarining alohida e'tiboriga noil bo'lgan. Ustozlari Abu Ismoil Hammod ibn Abi Sulaymon (vaf. 738) vafotidan so'ng uning o'rniga dars bera boshlaganlar. Abu Hanifa Abbosiylar davrida o'z mazhablariga asos soladilar. Bunda turli sohalarda mutaxassis bo'lgan shogirdlari yordam bergan. Shu sababli ham hanafiy mazhabi jamoaviy mazhab sifatida baholanadi.

Movarounnahrda hanafiy mazhabi Muhammad ibn al-Hasanning buxorolik shogirdi Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriy olib kelgan. Keyinchalik Abu Sulaymon al-Jo'zjoniy Xurosonda hanafiy mazhabini tarqatgach, uning shogirdi Abu Bakr al-Jo'zjoniy Samarqandga kelib joylashadi va bu yerda "Dor al-Jo'zjoniya" nomli ilm markazini tashkil etadi. Buxoro olimlari asosiy e'tiborni fiqhga qaratishgan bo'lsa, Samarqand olimlari aqid va kalom ilmiga moyil bo'lishadi.

Hanafiy mazhabi "nass"lardan (ya'ni Qur'on va hadis) tashqari hadislarni qabul qilishda alohida shartlarni belgilaganligi, qiyos (analogiya), istehson printsiplaridan foydalanishi, Movarounnahr maktabi mahalliy urf-odatlarini huquq manbai sifatida qabul qilishi bilan ajralib turadi. Boshqa mazhablardan farqli jihatlar mazkur xususiyatlar negizida yuzaga keladi.

Molikiy mazhabi asoschisi, imom Abu Abdulloh Molik ibn Anas ibn Molik ibn Abi Omir al-Asbahiy 711 yilda tavallud topganlar. Imom Molik onasi ta'siri ostida yoshlik davridanoq ilmga qattiq berilgan. Imom Molik mazhabining asosi u kishi yaratgan "Muvatto" asarida o'z ifodasini topgan. Mazkur mazhabda birinchi manba Qur'oni karim, ikkinchi manba Sunnati nabaviyadir. Ba'zi olimlar, imom Molik fiqhining uchinchi manbasi sahobalarning gapi bo'lgan, degan fikrlarni ham berishadi. Chunki, u kishi Muhammad (a.s.) yashagan shaharda bir umr yashaganlar. Payg'ambar tarbiya qilgan insonlarni tarbiyasini olgan. Shuning uchun Molikiyya mazhabida shar'iy masalalarda Madina hayoti va odatlari ko'p narsalarda ayniqsa Hanafiylarning fikriy qarashlaridan ham ustun turgan.

Shofe'iy mazhabi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ibn Usmon ibn Shofe' al-Qurayshiy al-Hoshimiy al-Muttalibiy (150/767–204/804) Abu Hanifa vafot etgan yili Falastinning G'azza shahrida tug'ilib, 29–rajab/19–yanvar juma kuni tunda Misrda vafot etagan buyuk olim.

Imom Shofe'iyning fiqh bo'yicha “Al-Hujja”, “Kitobul-Umm”(ona kitob, ya'ni asosiy kitob) va usulul-fiqh bo'yicha “Ar-Risola” kabi asarlari mavjud. Bu asarlar islom olamida mashhur va shofe'iy mazhabi va ulamolarining eng zarur asosiy manbasi hisoblanadi. Shofe'iylik mazhabi fiqhiy hukm chiqarishda Qur'on, sunnat, ijmo va qiyosga suyanadi.

Uchinchi-to'rtinchi hijriy asrlarda Markaziy Osiyoda Shofe'iy mazhabi Hanafiy mazhabi bilan raqobat qilardi. Uning yirik vakili toshkentlik buyuk olim Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy (291–365 h.y) edi. U kishi fiqh, hadis, lug'at va adabiyot bo'yicha o'z davrlarining mashxur olimlaridan edilar. Usulul fiqh bo'yicha ularning asarlari mashhurdir. Toshkentda vafot etib, qabrlari Hastimom (Hazrati Imom) madrasasi yonida joylashgan.

Hanbaliy mazhabi asoschisi imom Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbalning onasi O'rta Osiyoning Marv shahridan va otasi Saraxsdan bo'lib, hijriy 164 (780 m) yil Bag'dod shahrida tug'ilgan va hijriy 241 (855 m) yil Bag'dod shahrida hayotdan ko'z yumgan.

Ahli sunna va jamoaning fiqhiy mazhabboshilaridan to'rtinchisi Ahmad ibn Hanbaldir.

Imom Ahmad Abu Hanifaning bosh shogirdlaridan bo'lgan Abu Yusufdan dars olgan. Keyinchalik, Bag'dodda katta muhaddis Hushayt ibn Bashir al-Vositiyda to'rt yil muntazam o'qib, u kishidan uch mingta hadis yozib olgan. Ilm talabida Yaman, Kufa, Bas ra, Madina, Makka va boshqa joylarga safar qilgan. Makkai Mukarramada imom Shofe'iydan dars olgan.

Ahmad ibn Hanbal hadis ilmida juda ham ilgarilab ketgan alloma bo'lgan. Ko'pchilik ulamolar u kishining hadisdagi “Musnad” kitobini eng mo'tabar oltita hadis kitobi jumlasiga kiritadilar.

Imom Ahmad ibn Hanbal mazhabida Qur'on va sunnat asosiy manba hisoblanadi. Keyingi o'rinlarda ijmo' va sahobalarning gaplari o'rin oladi. Qiyosni boshqa iloj qolmagandagina ishlatishga ruxsat beriladi.

Fiqhiy mazhablar diniy firqalardan farq qiladi. Sunniylikdagi to'rttala mazhab ham teng hisoblanadi, yirik musulmon universitetlarida to'rt mazhab bo'yicha alohida dars o'qitiladi. Mazhablar umuman an'anaviy diniy hukuq doirasidan chiqmagani holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozir islom mamlakatlarida hanafiylik (Turkiya, Pokiston, Hindiston va h.k.), molikiylik (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya), shofe'iylik (Misr, Indoneziya va h.k.), hanbaliylik (Saudiya Arabistoni)

mazhablari, shuningdek, shialik tarqalgan mamlakatlar (Eron, Iroq, Yaman va h.k.)ning huquqiy hayotida ja'fariylik mazhabi o'z mavqeini ma'lum darajada saqlab kelmoqda. O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda hanafiylik mazhabi keng yoyilgan.

VIII–IX asrlarga kelib Islom dini doirasida aqidaviy ixtiloflar ham yuzaga keldi. Islom dinida Alloh taolo, uning sifatlari, insonlarning taqdiri, qiyomat, jannat va do'zax, gunoh va savob kabi mavzular aqidaviy masalalar sirasiga kiradi. Zikr etilgan unsurlarni o'rganuvchi fan yana kalom ilmi deb ham ataladi. Qur'onda ham hadislarda ham bu borada tortishish, o'zicha hukm chiqarish qoralangandir.

“Mo’’tazila”, “jabariyya”, “qadariyya”, “mushabbiha” kabi bir qator adashgan oqimlar yuzaga kelgach oddiy musulmonlarga sof aqidani tushuntirib berish ehtiyoji tug'igan edi. Shundan so'ng kalom ilmi bilan shug'ullanishga ruxsat beriladi.

Kalom borasida bahs yuritgan ilk oqim “mo’’tazila” hisoblanadi. Ushbu ta'limot islom tarixidagi adashgan firqalardan bo'lib, Hasan al-Basriyning (v. 728 y.) sobiq shogirdlari bo'lgan Vosil ibn Ato (v. 748 y.) va Amr ibn Ubaydga (v. 761 y.) borib taqaladi. Umaviy xalifa Hishom ibn Abdimalik davrida ushbu ikki shogird Hasan al-Basriy davrasidan o'zlarining “manzila baynal manzilatayn” (arosat) mavzuidagi aqidalari bilan ajralib chiqadi va «mo’’tazila» (ajralganlar) nomini oladi. Mo’’taziliylar abbosiylar xalifaligi davrida muhim o'rin tutgan.

Mo’’taziliylar abbosiy xalifa Xorun ar-Rashid davrida ta'qib ostiga olingan bo'lsa, Ma'mun, al-Mo’’tasim va al-Vosiq davrlarida (813–847) suyukli peshvolarga aylanadi va yirik davlat mansablariga ham sazovor bo'ladi. Ma'mun davrida mo’’taziliylar “mihna” degan jamoa tuzib, o'zlarining aqidaviy qarashlarini mahalliy ulamolarga majburlab sindirishga harakat qilgan.

Mo’’taziliylar ta'limoti “al-adl” (Allohning adolati), “tavhid” (Allohning yagonaligi), “al-va'd val va'iyd” (va'da va jazolash), “manzila baynal manzilatayn” (Oraliq holatda qolish), “al-amr bil ma'ruf van nahiy anil munkar” (Yaxshilikka chaqirish va yomonlikdan qaytarish) deb nomlanuvchi besh tamoyilga tayanadi.

Xalifa Mutavakkil davriga kelib mo’’taziliylar yana siquvga olindi va bora–bora butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Mo’’taziliylar bilan deyarli bir davrda yuzaga kelgan aqidaviy oqimlardan biri “qadariya”dir. Qadariylar iroda erkinligini mutlaqlashtirib, inson barcha amallarini o'z ixtiyori bilan qiladi, avvaldan taqdir belgilab qo'yilmaydi, degan aqidani ilgari surdilar. Mo’’taziliylar mazkur fikrni qo'llab quvvatlagani bois, ular ham taqdir masalasida qadariylar deya ataldi. Ularga nisbatan ulamolar tomonidan: «Qadariylar ushbu ummatning majusiylaridir», degan hadis keltiriladi. Zero, taqdirga ishonish imonning yettita shartidan biri hisoblanadi.

Keyinroq shakllangan jabariylar esa insonning barcha qiladigan ishlari Alloh tomonidan avvaldan belgilab qo'yiladi degan aqidani mutlaqlashtirdilar. Bu insoniyatni taraqqiyotga intilishdan to'xtatib qo'yadigan aqida bo'lgani sababli ulamolar bu fikrni qo'llab-quvvatlamadilar.

Allohning zoti va sifatleri masalasida esa "mushabbiha" (o'xshatuvchilar) yoxud "ahlu-t-tashbih" (o'xshatish ahli) yuzaga keldi. Ular Allohning Qur'oni karimda kelgan sifatlerini to'g'ridan-to'g'ri o'z aqlari bilan talqin qila boshladilar. «Allohning «qo'li» ularning qo'llari uzradir» (Fath surasi, 10), «Uning Kursiysi osmonlar va Yerni (ham) o'z ichiga sig'dira olur» (Baqra surasi, 255) kabi oyatlardagi «qo'li», «kursiysi» so'zlaridan Allohning ham inson kabi badan va a'zolari bor ekan, u ham inson kabi o'tirish uchun kursiylga muhtoj ekan, deya xulosa chiqardilar.

Ismlari zikr etilgan oqimlarning buzg'unchi g'oyalariga bir qator ahli sunna ulamolari raddiyalar berganlar.

Mazhabsizlik va uning oqibatlari. Bugungi kunda turli guruhlar tarafidan mazhablarni inkor qilish holatlari uchrab turibdi. Ular mazhabsizlik g'oyasini ilgari surib, asosiy maqsadlari asrlar davomida amal qilinib kelinayotgan fiqhiy mazhablarni inkor qilish hisoblanadi.

Mazhabsizlik g'oyasi deyarli 12 asrdan ortiq vaqt mobaynida yashagan minglab ulamolarning butun umrlarini sarflab olgan ilmlari va qoldirgan meroslarini, yozgan asarlarini bekorga chiqaradi. Shu bilan birga asrlar davomida amal qilinib kelinayotgan an'analar noto'g'ri, ularga amal qilgan musulmonlar esa adashgan ekan degan xulosaga olib keladi. Bundan tashqari musulmonlar birligini xavf ostiga oladi. Zero Muhammad payg'ambar (a.s.) hadislarida: «Alloh ummatimni zalolatda jamlamaydi», «Musulmonlar yaxshi deb bilgan narsa Allohning huzurida ham yaxshidir» (hadislarni Hokim Naysapuriy rivoyat qilgan), deyilgan. Mazhablar ham musulmonlarning birligi.

Olimlar butun umrini shariat ilmiga bag'ishlab, undagi o'ta nozik masalalarni o'rganish uchun o'nlab yil umrlarini o'tkazganlar, Qur'on va hadislarda uchraydigan va barcha insonlar tushunishi qiyin bo'lgan joylarni fahmlash va tushunishga oson shaklga keltirib so'ngi xulosalarni berganlar.

Mazhabsizlik g'oyasini soxta salafiylar ilgari surmoqda. Ularning fikricha, fiqhiy mazhablar tomondan ishlab chiqilgan qoidalarni to'g'ri tushunish usuli sifatida tan olinmaydi, balki shariat ahkomlarini to'g'ridan-to'g'ri amalga tadbiq etish lozim deb hisolanadi. Boshqacha qilib aytganda, mazhabsizlarning da'vosi bo'yicha har bir kishi, o'zi Qur'ondan yoki hadisdan hukm olishi mumkin. Chunki mujtahidlarning xulosasi boshqalar uchun asos bo'la olmaydi, har bir odam o'zi fatvo berishi mumkin. Ularning g'oyasiga amal qilinadigan bo'lsa, barcha Qur'on va hadisdan hukm olishga o'tsa, jamiyatdagi boshqa sohalar izdan chiqib ketadi.

Chunonchi tibbiyot, arxitektura va hokazo soha egalari ham o'zlari mustaqil tarzda Qur'on yoki hadislarini o'rganib o'z masalalarini xal etishlari lozim bo'lib qolar edi.

Mazhabsizlarning aytayotgan da'volaridan yana biri faqat sahih hadisga amal qilish lozim, chunki mujtahidlar har xil fatvo chiqarganlar, shuning uchun bu bo'linish hisoblanadi deyдилar. Aslida mazhablardagi bir masalaga turlicha qarash mujtahidning o'sha masalani qanday tushunishiga bog'liq. Arab tili boy til bo'lgani sababli, bir olim Qur'ondagi so'zning bir ma'nosini qabul qilgan bo'lsa, ikkinchi mujtahid boshqa ma'nosini olgan. Hukm ham shunga yarasha bo'lgan. Hadislardan hukm olish ham shunga yarasha bo'lgan. Bir mujtahid bir hadisni olgan va unga qarshi bo'lgan hadisni esa, hukmi o'chgan deb bilan, boshqa mujtahid esa, o'sha hadisni hukmi o'chmagan deb qabul qilgan. Bulardan tashqari payg'ambar tomonidan sahobalarga ham o'z o'rniga qarab turlicha masalalar berilgan. Sahobalar esa, turli joylarga tarqalib, borgan joylarida o'zlari bilgan ilm bilan boshqalarni tanishtirganlar. Shu va boshqa sabablar bilan mazhablar orasida bir masalaga turlicha fatvolar berish kelib chiqqan. Shunday bo'lsada mazhablar bir birlarining hukmlarini xato deb hisoblamayдилar va o'sha boshqa hukmni hurmat qiladilar.

Soxta salafiylar tarafidan ilgari surilayotgan mazhabsizlik g'oyasi, mujtahidga emas, balki Payg'ambar (a.s)ga ergashish lozim deb hisoblayдилar. Chunki salafi-solihlar payg'ambar (a.s)ga ergashgan, ular davrida mazhablar bo'lmagan, degan da'voni amalga oshirdilar.

Shu o'rinda fatvo va muftiy haqida to'xtalib o'tish o'rinli. Fatvo deb lug'atda «mushkul ishga javob qidirish», «savolga javob berish», «shariat masalalari yuzasidan fatvo chiqarmoq», «maslahat bermoq», «muftiyning xulosasi» degan ma'nolarni bildiradi. Istilohda esa, «dalilga asoslanib, shar'iy hukmni so'rovchiga bayon qilib berish»ga fatvo deyiladi. Hanfiy mazhabi olimlaridan Taqiy Usmoniy fatvoni «Diniy masalalarga javob berishdir», degan.

«Muftiy» deb shariat hukmlari borasida fatvo beradigan odamga aytiladi. Faqih Qarofiy shunday degan: «Muftiyalar Alloh taoloning tarjimonlaridir. Chunki ular nass (Qur'on va hadis)ga tayangan holda hukm chiqaradilar». Imom Shotibiy esa: «Muftiyalar ummat uchun Rasululloh (alayhis-salom) maqomlarida bo'ladilar. Bunga dalil qilib: «Olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir. Payg'ambarlar dinor yoki dirham emas, balki ilmni meros qilib qoldirganlar» (imom Termiziy rivoyati), hadisini keltiradilar» deb sharhlagan.

Hanafiylar olimi Taqiy Usmoniy shunday deydi: «Mohir ustozlarning huzurida fiqhni o'rganmagan kimsaning fatvo berishi mumkin emas. Ustozlar huzurida fiqhni o'rgangan kishining har birga fatvo berishi mumkin bo'lmaganidek, o'zi (mutaqil ravishda) fiqhiy kitoblarni mutolaa qilgan kimsaga ham fatvo berishi

mumkin emas. Hatto u ahkom usullari, qoidalari va illatlari bilan tanishib chiqib, malaka hosil qilgan bo'lsa ham, mo''tabar kitoblarni boshqalardan ajratib olsa ham mumkin emas». Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, barcha odamlarga, hatto u diniy kitoblarni o'qib tushunsa ham diniy masalalarda fatvo berish mumkin emas.

Odamlar shariat bilimlarini bilish darajasiga ko'ra: xos va ommaga bo'linadi. Xos kishilar muayyan soha bilan shug'ullanib, uni mukammal o'rgangan mutaxassislar hisolanadi. Omma esa, o'zlarining kasblari bilan mashg'ul bo'lib, kerakli vaqtda mutaxassisga murojaat qilib, o'z masalasini xal qilgan. Shariy hukmlar masalasida ham xos kishilar – mujtahid-faqihlar shug'ullanib, ommaga uning masalalarini yetkazib, tushuntirganlar. Omma esa unga amal qilgan. Shariy nuqtai nazardan odamlar: mujtahid va muqallidga bo'linadi.

Mujtahid deb manbalarda, ijti hod qilish (muayyan iliy salohiyatga ega faqih olimning shariatning mufassal dalillaridan shariy hukmlarni chiqarib olish, ya'ni istinbot qilish janayoni) faoliyati bilan shug'ullanadigan kishiga aytilgan. Mujtahid olimlar shariatning mustaqil manbasi emas. Balki mujtahid shariat qonunlarini sharhlovchisi va uning manbalarni tushuntiruvchisi deb tan olinadi.

Omma esa, ijti hod qila olmaydigan, boshqacha qilib aytganda, mustaqil tarzda shariat manbalarini tushunmaydi va ulardan qanday hukm olinishini bilmaydigan kishi. Ular mujtahidga taqlid qiladi va u muqallid-taqlid qiluvchi deyiladi. Taqlid qiluvchi mujtahidning hukmiga amal qiladi. Musulmonlarning asosiy qismi shu guruh - taqlid qiluvchilar guruhidan iborat.

Shu kungacha yashagan musulmon olimlarining faoliyati natijasida mazhablar jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan. Mazhabsizlik va shunga o'xshash fikrlar faqat islom dushmanlari musulmonlar orasida tarqatishga harakat qilmoqda. Tarixda bunday holat kuzatilmaganini musulmon olimlari ta'kidlamoqda.

Olimlardan Shoh Valiulloh Dehlaviy to'rt mazhabdan biriga taqlid qilish haqida: «Bilginki, ushbu to'rt mazhabning birini ush lashda (taqlid qilishda) ummat uchun katta foyda va afzallik bor. Ulardan yuz o'g irishda katta fasod bor», degan.

Aslini olganda esa, musulmonlar Payg'ambar (a.s.)ga ergashadi, mujtahidlarga taqlid qiladi xolos. Ulamolarning tutgan yo'llari haqida mashhur muhaddis Zahabiy: «Biz, to'rt imom (Abu Hanifa, Molik, Shofei y, Ahmad), ikki Sufyon (Sufyon Savriy va Sufyon ibn Uyayna), Avzoiy, Dovud Zohiriy, Ishoq ibn Rohuvayh va boshqa imomlar haq yo'lda bo'lganlar, deb ishonishimiz lozim. Ular o'zlari haqda aytilayotgan ayb (gap)lardan pok bo'lib, u gaplarga e'tibor qaratilmaydi. Boshqa mujtahid muayyan bir mazhabga ergashishi shart. Ikki haram imomi (Juvayniy) ta'kidlaganidek, sahoba va tobeinlarga ergashib bo'lmaydi, chunki ularning mazhabi yozilmagan va shakllantirilmagan. Qozilik masalalari va fatvo berishda to'rt mazhabdan boshqasiga taqlid qilinmaydi», degan. Boshqa bir

olim Tojuddin Subkiy shunday yozadi: «Ushbu to'rt mazhab (hanafiy, molikiy, shofeiy, hanbaliy), Alloh rahmati ila, e'tiqodda bir bo'lgan. Ularning izdoshlaridan ayrimlari mo'taziliylar va mujassimaga qo'shilib ketganlariga qaramasdan, uarning mutlaq ko'pchiligi haqiqatga rioya qilganlar...». «Ahli sunna val-jamo'a» olimlari to'rt mazhabdan biriga taqlid qilish shart ekani borasida ixtilofga bormaganlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, islomdagi fiqhiy mazhablar musulmonlarning birligini saqlashga va omma xalqning diniy ishlarni amalga oshirishidagi qiyinchiliklarini oldini olishga xizmat qilgan. Biroq mazhablarni inkor qilish g'oyalari musulmonlar oldiga turli shubhalarni solib sof islom g'oyalarini inkor qilib jamiyatda ixtilofli vaziyatni keltirib chiqarishga harakat qilmoqda.

Mavzuga oid savollar

1. Tangrichilik qadimiy turkiylar hayotida qanday o'rin tutgan?
2. Tangrichilikning ta'limotlarining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Zardushtiylik qachon va qaerda vujudga kelgan?
4. Zardushtiylik asoschisi kim?
5. Zardushtiylik muqaddas manbasi qaysi va u haqida nimalarni bilasiz?
6. Moniylik dinining asoschisi haqida qanday qarashlar mavjud?
7. Moniylikning muqaddas manbalari haqida gapirib bering.
8. Yahudiylik dini qachon yuzaga kelgan va uning o'ziga xos jihatlari nimada?
9. Yahudiylik ta'limoti haqida nimalarni bilasiz?
10. Buddaviylik dini qachon paydo bo'lgan?
11. Siddhartha Gautama haqida nimalarni bilasiz?
12. Buddaviylikning qanday muqaddas kitoblari mavjud?
13. Markaziy Osiyo hududidagi xristianlik bilan bog'liq yodgorliklar?
14. Islomdagi ilk bo'linishlar nimalar bilan bog'liq bo'ldi?
15. Xorijiylik ta'limoti qanday bo'lgan?
16. Shialikda qanday mazhablar mavjud?
17. Sunniylikda qanday mazhablar mavjud?
18. Mazhabsizlik da'vo qilayotgan g'oyalarning qanday salbiy oqibatlar bor?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Zardushtiylikda muqaddas sanalgan unsurlar va ularni e'zozlash amallari haqida referat tayyorlang.

- 2.Zardushtiylik dinining bugungi kundagi qoldiqlari haqida gapirib bering.
- 3.Mavzu bo'yicha ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).
- 4.Markaziy Osiyoda yahudiylik va Buxoro yahudiylari mavzusida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).
- 5.Katoliklik va pravoslavlik ta'limotlaridagi mushtarak va farqli jihatlar haqida qiyosiy ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).
- 6.O'zbekistondagi xristian diniy tashkilotlari va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganing.

Adabiyotlar:

1. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>
2. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma / Muratov D., Alimova M., Karimov J., Najmiddinov J., Juraev Sh. -Toshkent, 2019.
3. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma / A.Ochildiev va boshqalar.-Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
4. Dunyo dinlari tarixi / tuzuvchilar: S.Agzamxodjaev, D.Rahimjonov, N.Muhamedov va b. – T.: ToshDShI, 2011.
5. Len Woods. Handbook of World Religions. Barbour Publishing, Ohio. 20086.
6. Isokjonov R. Islom falsafasi. - Toshkent: Complex Print, 2019.
7. Nizomiddinov N. Sharqiy Osiyo diniy - falsafiy ta'limotlari va Islom / Nizomiddinov N.G', Hasanov A. – T.: O'zR FA davlat Adabiyot muzeyi, 2006.
8. Saidjalolov S. Dinlardagi okimlar va sektalar. Ukuv kullanma. - Toshkent: Complex Print, 2019.
9. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar.-Toshkent: "Sharq", 2014.
10. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya: yordamchi o'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir A.Hasanov.-Toshkent: "Movarounnahr", 2016.
11. Religiovedeniya. Uchebnoe posobie.4-izd., ispr. idop. Nauchnyy redaktor d.f.n.prof. A.V.Soldatov. –Spb.:Izd-vo "Lanb", 2003.
12. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – T.: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014.

Internet saytlari

1. <http://www.religion.uz>

2. <http://www.iiu.uz>.
3. <http://www.muslim.uz>
4. <http://www.ziyo.uz>
5. <http://www.hidoyat.uz>

3-mavzu: Dinshunoslikning zamonaviy muammolari

1. Missionerlik va prozelitizm: tarix va bugun, targ'ibot usullari
2. Diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, qarshi kurash strategiyasi
3. Yangi diniy harakatlar va sektalar
4. Kibermakonda din omili

Missionerlik so'zi asli lotincha bo'lib, «yuborish», «vazifa topshirish» degan ma'nolarni anglatadi.

Missionerlik bilan yonma-yon ishlatiladigan prozelitizm esa, to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga qaratilgan harakatlarni anglatadi. U o'z mohiyatiga ko'ra missionerlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini xristian missionerlari tashkil etadi. Dastlabki xalqaro xristian missiyalari, 1910 yilda Shotlandiyaning Edinburg shahrida paydo bo'lgan edi. Bugungi kunda yuzlab shunday maqomga ega missiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularni yanada rivojlantirish, yetarli moddiy, ma'naviy va inson resurslari bilan ta'minlash juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Odatda, xalqaro missiyani tashkillashtirishda ma'lum bir konfessiyaning barcha shaxobchalari qatnashadi. Masalan, tashkilotning nashriyoti uni tegishli adabiyotlar bilan ta'minlasa, tadqiqot markazi muayyan mamlakat aholisi, uning hayot tarzi, urf-odatlarini, zaif tomonlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va diniy adabiyotlarni mahalliy tillarga tarjima qilish bilan shug'ullanadi. Missiyani moddiy-moliyaviy ta'minlashda ishlab chiqarish tuzulmalarining, missioner kadrlar tayyorlash va ko'ngilli homiylarni topishda missionerlik bazalarining ahamiyati beqiyosdir. Mana shunday kuch va tayyorgarlik bilan xalqaro missiya istalgan mamlakatda tegishli targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etishiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Ayni damda, missionerlik faoliyati bilan faol shug'ullanishga harakat qilayotganlar orasida bahoiylar, krishnachilar bilan bir qatorda yangi paydo bo'lgan sektalar borligini ham ta'kidlash zarur. Sekta bu – faqat o'zini haq din, insonlarni najotga yetkazuvchi deb da'vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydigan guruh hisoblanadi. Psixologlar mazkur sektalarni «ommaviy ijtimoiy-psixologik qirg'in quroli» deb ta'riflaydilar.

Diniy sekta deganda ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar tushuniladi. Bugungi kunda missionerlik faoliyati bilan asosan turli sektalar shug'ullanadi. Hozirgi kunda taxminan 5000 ta sektaning faoliyati aniqlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz bilan chegaradosh bo'lgan davlatlarda «Bogorodichiy sentr», «Tserkov' ob'edineniya», «Tserkov' Iisusa», «Tserkov' Novogo Zaveta», «Beloe bratstvo», «Bojestvennyy orden Pervogo Angela», «Farxat ata», «Dianetika» kabi yuzlab diniy sektalar faoliyat olib bormoqda. Iblisga ibodat qilishga asoslangan «Satanizm» sektasi ham ayrim qo'shni respublikalarda keng tarqalmoqda. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan mazkur sektaning Rossiyada 100 ming, Yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdori bor.

Mazkur sektalar aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo'lganlar ichida tashviqot olib borish yo'li bilan o'z tarafdorlarini ko'paytirishga harakat qilmoqda.

Missionerlik faoliyatida ijtimoiy tabaqalar bilan ishlash strategiyasi. Missionerlar makon va zamonga moslashgan holda o'z uslub va vositalarini doimiy takomillashtirib kelganlar. So'nggi vaqtlarda ular ma'lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olib, maqsadli ish olib borishga intilmoqdalar. Jumladan, missionerlar asosiy e'tiborni aralash millat vakillaridan iborat oilalarning a'zolari, ilgari hech bir dinga e'tiqod qilmagan, og'ir xastalikka, judolikka, moddiy qiyinchilikka duch kelgan, axloq tuzatish muassasalaridan chiqib kelgan, ya'ni moddiy va ma'naviy ko'makka muhtoj kishilarga qaratmoqdalar.

Ziyolilarning turli qatlamlari ichida san'at sohasi xodimlari, kutubxonachilar, o'rta maktab o'qituvchilari, turli idoralar xizmatchilari faol missionerlik targ'iboti ob'ekti sifatida tanlanayotganini ham qayd etish lozim. Bunday yondashuvda o'ziga xos mantiq bor. Masalan, prozelit san'atkor san'atning hissiy-emotsional ta'sir quvvatidan foydalanib, e'tiqodiy bosim o'tkazishda yuqori samaradorlikka erishishi mumkin bo'lsa, e'tiqodini o'zgartirgan kutubxonachida esa «o'lja» sifatida tanlanganlar bilan yakka tartibda ishlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Missionerlarga tabiatan ishonuvchan, tashqi ta'sirga moyil bo'lgan va ayni paytda, hayotda sabr-bardoshli va fidoiy bo'lish bilan bir qatorda hamisha ma'naviy-ruhiy ko'makka, qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan ayollarga ham alohida e'tibor bilan qaramoqdalar. Ularning maqsadi jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarish, ijtimoiy va milliy totuvlik asoslariga rahna solishdir.

Qayd etilgan misollar ham missionerlik ob'ekti sifatida tanlanayotgan qatlamlar doirasi muntazam ravishda kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Missionerlikda yoshlarga alohida e'tibor berilishining sabablari. Yoshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarning asosiy ob'ektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali yetarli tajribaga ega bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

Missionerlikning taniqli nazariyotchisi Patrik Djonstoun talaba yoshlarni missionerlik faoliyatining asosiy ob'ekti deb qarab, o'zining «Dunyo operatsiyasi» kitobida shunday yozadi: «Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko'plari 20 yildan so'ng yirik mansablarni egallashadi». Ushbu fikrlar missionerlarning jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni ko'zlab ish yuritayotganini anglash imkoniyatini beradi.

Xayriya yordamlari ko'rsatish ham missionerlikdagi eng qadimiy va samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda turli tadbirlar uyushtirilib, ularga asosan yoshlar jalb etiladi. Beg'araz deya taqdim etilayotgan, aslida jamiyatning yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlash va so'ngra ular bilan maqsadli ish olib borishni ko'zlaydigan bunday harakatlar hatto «Yangi yil», «Navro'z», «Xotira va qadrlash kuni» kabi xalqimizda keng nishonlanadigan bayramlar davomida ham g'arazli maqsadlarda amalga oshirilishi kuzatilgan. Missionerlar o'zlari ko'rsatayotgan «yordamni» shu bayramlar ruhiga moslashtirishga ham harakat qilmoqda.

Uyma-uy yurib «Xushxabar» yetkazish usulining o'ziga xos xususiyatlari. Bu usul missionerlarga odamlar bilan kunning dolzarb masalalari haqida suhbatlashish, ularning dardlariga qiziqish bildirish va ushbu muammolardan chiqish yo'llarini ko'rsatib berishni taklif qilib, o'z tashkilotlariga jalb qilishga asoslanadi. Bu missionerlikni amalga oshirishda eng yaxshi samara beradigan va katta mablag' talab qilmaydigan usullardan biri hisoblanadi. Masalan, ushbu usuldan faol foydalayotgan «Iegovo shohidlari» oqimi a'zolari, o'zlarini go'yoki, Iso Masih o'z havoriylariga buyurgan yo'ldan foydalanayotganlarini da'vo qilib, muayyan hududda «tayanch nuqta»ni shakllantirish va unga suyangan holda yaqin qo'shnilar orasida uyma-uy yurib adabiyotlarni tarqatish, maktab o'quvchilari va yoshlar orasida targ'ibot ishlarini olib borishga alohida e'tibor bermoqda. Bunday maqsadli faoliyat natijasida iegovochilar soni yildan yilga ortib bormoqda va bugungi kunda dunyo bo'yicha qariyb 7 millionni tashkil etmoqda.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi missionerlikdan ko'zlangan maqsadlar. Ta'lim tizimi bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tufayli g'oya va qarashlarni singdirishdagi tadrijiylik ta'minlanadi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida amalga oshirilgan targ'ibot natijalarini bevosita tekshirib ko'rish va uni takomillashtirib borish imkoniyati ham mavjud. Bu kabi xususiyatlar missionerlarning ta'lim tizimiga alohida e'tibor bilan qarashini keltirib chiqarmoqda. Adventistlarning

dunyo bo'yicha 5000 dan ortiq o'quv markazlariga, pyatidesyatniklikning eng yirik oqimlaridan biri – «Xudo assambleyalari» cherkovlari bir necha kollej va Bibliya maktablariga egalik qilayotgani ham aynan shu bilan izohlanadi.

Jumladan, O'zbekiston istiqlolining dastlabki yillarida missionerlar turli volantyor tashkilotlar niqobi ostida mamlakatimiz ta'lim tizimiga kirib olishga uringanlari kuzatilgan. Ular yurtimizdagi mavjud ta'lim muassasalarida turli til, kompyuter, sport to'garaklari tashkil etish niqobi ostida talaba va o'quvchilar orasida o'z dinlarini targ'ib qilishga harakat qilgan.

Shuningdek, missionerlik tashkilotlari o'z dinlarini targ'ib qilishda audio, video va elektron mahsulotlar, gazeta va jurnallar, teledasturlar, internetda onlayn o'quv kurslari tashkil etish yo'llaridan ham foydalanmoqda. Ommaviylik, davriylik, o'quvchilar auditoriyasining kengligi tufayli gazeta va jurnallar missionerlar tomonidan o'z qarash va g'oyalarini singdirish quroli sifatida qo'llanilmoqda.

Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari. Mutaxassislarining fikricha, bugungi kunda dunyo bo'yicha 5000 ga yaqin diniy sekta faoliyat ko'rsatmoqda. Ularga xos xususiyatlar haqida gap ketar ekan, ayrim sektalar muayyan konfessiya doirasida shakllanib, asosiy e'tiborni sobiq e'tiqoddoshlari orasida targ'ibot olib borishga, ba'zi sektalar esa boshqa konfessiyaga mansub insonlar orasidan ham o'z tarafdorlarini shakllantirishga harakat qilishini ta'kidlash zarur.

Ayni paytda, hech bir konfessiyaga mansub bo'lmagan, muayyan shaxs – «ustoz», «yo'l boshchi» yoki «rahnamo» tomonidan asos solingan va aholining duch kelgan ijtimoiy va konfessional qatlami bilan ish olib boradigan sektalar ham mavjudligini qayd etish lozim.

Afsuski, yuqoridagi kabi ko'rinishlarda chiqadigan sektalar faoliyati natijasida bir qator salbiy, ba'zi hollarda fojiaiy hodisalar kelib chiqmoqda. Jumladan, o'tgan asrning 70-yillarida AQShning San-Frantsisko shahrida Jim Jons ismli shaxs bir necha ming kishilik mahalliy protestantlarni o'z ichiga olgan «Xalq ibodatxonasi» nomli jamoa tuzishga erishadi. Sekta asoschisining turli «qiliq»lari shahar jamoatchiligiga ma'lum bo'lib qolgach, Jons «chirkinliklarga to'la shahar»dan ketib, Gayana changalzorlarida «Xudo Podshohligi»ni qurish lozimligini e'lon qiladi.

1978 yili «Xudo Podshohligi»dagi holatni o'rgangani borgan AQSh Kongressi komissiyasi sekta izdoshlari «podshohlikda» juda og'ir sharoitlarda yashayotgani, ularga qullardek munosabatda bo'linayotgani, Jons barcha «banda»larini o'ziga ibodat qilishga majbur qilganiga guvoh bo'ladi. Kirdikorlari fosh bo'lib qolganini bilgan sekta rahbari bir kunning o'zida barcha izdoshlarini o'z jonlariga qasd qilishga majbur qiladi. Oqibatda Jonsga ishongan 912 kishi halok bo'ladi.

Shunga o'xshash holat AQShning Texas shtatidagi Ueyko shahrida Devid Koresh tomonidan adventislik zamirida shakllantirilgan «Dovud avlodi» nomli sekta tarafdorlari bilan ham sodir etiladi. O'zini «Xaloskor» deb e'lon qilgan, jamoada o'zining mutlaq hokimiyatini o'rnatib, barchaga o'z mulkidek munosabatda bo'lgan sekta rahbari Ueyko shahrida qurilgan maxsus ranchoda izdoshlari bilan rohibona hayot kechiradi.

1993 yilda politsiya tomonidan uni qo'lga olish bo'yicha amalga oshirilgan tadbir davomida, qamalishni istamagan «payg'ambar» o'zi va barcha sekta a'zolari joylashgan ranchoni portlatib yuboradi. Oqibatda 100ga yaqin kishi, shu jumladan, 25 nafar bola halok bo'ladi.

Bunday sektalar qatoriga 1992 yilda Xitoyda Lyu Xunchji tomonidan tuzilgan va 2 milliondan ortiq tarafdori bo'lgan «Falun'gun» sektasini ham kiritish mumkin. Lyu Xunchji faqat o'zinigina zaminni halokatdan, kishilarni qiyinchiliklardan qutqaruvchi, jismoniy va ma'naviy yetuklikka boshlovchi, gunohlardan forig' qilishga qodir, deb hisoblaydi. Jannat faqat uning tarafdorlarigagina nasib qilarmish. Oxirat bilan qo'rqitish markaziy o'rinni egallagan Lyu Xunchji ta'limotiga ergashish 2000 dan ortiq kishining halok bo'lishi, yuzlab odamlarning ruhiy kasallikka chalinishiga sabab bo'lgan.

Buddizm doirasida shakllangan «Aum Sinrikyo»ning 1995 yilda Tokio metrosida tinch aholiga nisbatan gaz hujumi uyushtirishi oqibatida 12 kishi halok bo'lgani, AQShda paydo bo'lgan «Osmon darvozasi» sektasi a'zolaridan 60 dan ortiq kishi o'z joniga qasd qilgani, Ugandada yuzaga kelgan «Xudoning o'nta buyrug'ini qayta tiklash harakati» sektasi qurbonlari soni 1000 dan ziyodni tashkil etgani ham bunday sektalar faoliyatining mudhish oqibatlaridan dalolat beradi.

Hozir ayrim rasmiy ro'yxatdan o'tgan yoki norasmiy faoliyat yuritayotgan noislomiy diniy jamoalarning vakillari tomonidan ham missionerlik faoliyati amalga oshirilishi kuzatilmoqda. Missionerlar aksariyat holatlarda o'z jamoasiga jalb qilishda turli o'qish kurslarini ochib, o'z diniga targ'ib qilish, xorijga o'qishga yoki ishga jo'natish, yoz faslida bolalarni dam olish lagerlariga jalb qilish, hayriya yordam ko'rsatish, bepul tibbiy yordam berish va gazeta, jurnal, kitoblar tarqatish kabi usullardan foydalanmoqda. Ularning diniy ta'limotida Davlat ramzlarini humat qilish, Konstitutsion burchni bajargan holda harbiy xizmat o'tash, jamoat ishlarida qatnashish man etilgan. Bunday holat xalqimiz uchun noan'anaviy bo'lgan diniy jamoa va sekta vakillarining maqsadi jamiyatimiz a'zolarini fuqarolik faolligini so'ndirish va qaram qilib olishga yo'naltirilganidan yaqqol dalolat beradi. Shuningdek, ayrim noislomiy diniy jamoalarda ushbu jamoaga a'zo bo'lgan shaxs bilan oila qurishi, jamoadan tashqaridan kelayotgan barcha ma'lumotlarni yolg'on va zararli deb bilish belgilab qo'yilgan, ba'zilarida oila qurish umuman ma'qullanmay, ular daromadlarining deyarli barchasini ushbu

jamoa rahbariyatiga topshirishi lozim. Ushbu faktlar mazkur diniy jamoalardagi tartib shaxs, oila va jamiyat uchun naqadar zararli ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, yuqoridagi kabi sektalar, missionerlik tashkilotlari faoliyatiga chek qo'yish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bir qator mamlakatlarda sektalar va missionerlar faoliyati natijasida jabr ko'rganlarga moddiy va ma'naviy ko'mak berish maqsadida maxsus markazlarning tuzilgani, afsuski, yuqoridagi kabi holatlarning ko'payib borayotgani va xatarli ko'lam kasb etib, jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatayotganini kuzatamiz.

Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari. O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlariga olib kelishini hisobga olgan holda bu borada tegishli qonuniy asoslar ishlab chiqildi. Qonunlarda missionerlik harakatlari taqiqlandi.

Ma'lumki, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun (yangi tahriri) kishilarning vijdon erkinligini huquqiy kafolatlash bilan birga diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan hamda davlat va din munosabatlarini tartibga soladigan muhim hujjat hisoblanadi. Qonunga binoan «Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar» (5-modda, 3-band).

Mazkur moddadan kelib chiqib, «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»ga noqonuniy diniy xatti-harakatlarning oldini olish bilan bog'liq bir qator moddalar kiritilgan. Jumladan:

- diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish;

- diniy yig'ilishlar, ko'cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o'tkazish qoidalarini buzish;

- O'zbekiston Respublikasida g'ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash;

- nolegal diniy faoliyat bilan shug'ullanish;

- diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortishi;

- dindorlar va diniy tashkilotlar a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning maxsus yig'ilishlari, shuningdek diniy marosimga aloqasi bo'lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to'garaklar hamda guruhlarini tashkil etish va o'tkazish;

- bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati;

-maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish bilan bog'liq harakatlar sodir etilganda belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdoridagi jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi haqidagi qoidalar mustahkamlab qo'yilganini ta'kidlash zarur.

Amaldagi qonunchiligimizga ko'ra, muayyan hollarda birinchi marta qonunni buzgan shaxs yoki tashkilotga ma'muriy jazo qo'llaniladi. Agarda o'sha shaxs yoki tashkilot shundan keyin ham qonunni buzishda davom etsa, unga endi jinoyat kodeksidagi choralar qo'llaniladi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi» normalariga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»ning yuqorida qayd etilgan bandlaridagi harakatlar ma'muriy jazo qo'llangandan keyin yana sodir etilsa, bu «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da belgilanganidan ko'ra og'irroq jazolar qo'llanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi»da «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da nazarda tutilmagan bir qator harakatlar uchun ham jazolar belgilanganini qayd etish zarur. Jumladan:

- voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish;
- voyaga yetmagan bolalarni ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitish;
- dindorlardan majburiy yig'im undirish va soliq olish;
- diniy ta'lim olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o'z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog'liq diniy faoliyat yuritish;
- g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish yoki ularning faoliyatini tiklash;
- g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki tashkilotlari faoliyatida faol qatnashish bilan bog'liq harakatlar belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdorida jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga axloq tuzatish ishlari, yoki qamoq yohud ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda missionerlik va prozelitizmning oldini olish, ayniqsa yoshlarni bunday zararli oqimlar domiga tushib qolishlarining oldini olish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda yosh avlodni hozirgi davrda mamlakatimizda din sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, yaratilgan imkoniyatlar bilan muntazam asosda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, qiziqishlari, bilim darajalarini inobatga olgan va differentsial yondashgan holda yoshlarning din, shu jumladan, xalqimiz asrlar davomida e'tiqod qilib kelgan islom dini haqidagi bilimlarni va milliy-diniy an'analar asoslarini sog'lom asosda egallashlariga ko'maklashish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi va o'z mohiyatiga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Yoshlarimizning missionerlikning mohiyati haqida xolis va yetarli bilimga ega bo'lishlari unga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan xoli emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi. Egallangan bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zahirida yuzaga keladigan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Shakllangan qadriyatlar tizimi esa turli tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi.

Ekstremizm (lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddaviylik, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Fundamentalizm – (lotincha – «asos») tushunchasining ma'nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko'rinishini anglatadi.

Diniy fundamentalizm – «ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish ta'limotini anglatadi. Istilohda aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladi.

«Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog'liqdir. Fundamentalizm iborasi birinchi bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantlikdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshladi. Bunda «fundamentalizm» atamasi – Qur'on va hadislarni so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi yo'nalishga nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirdi.

Shunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog'lash mutlaqo asossiz. Xususan, islom dini, u bilan bog'liq turmush tarzi va qadriyatlar majmui hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go'yo din va musulmon jamoasi ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go'yoki, keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag' yig'ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydi.

Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uyushmalar va mutaassib harakatlar turli dinlar, shu jumladan, islom, xristianlik, yahudiylik dinlari ta'limotlaridan foydalanmoqdalar.

Aqidaparastlik (arab. – «aqida» – «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog'lash») muayyan sharoitda, biron-bir g'oyaga qat'iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llash yoki shunga urinishni anglatadi. U

muayyan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo'ladi.

Mutaassiblik (arab. – «g'uluv ketish», «chuqur ketish») o'z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonib, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy mutaassiblik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihati dinni siyosiy lashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dindan odamlar orasiga nifoq solish, qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g'arazli manfaatlarni ro'yobga chiqarishda foydalanishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o'rin qayd etish joizki, ko'p manbalarda «aqidaparastlik» so'zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib «mutaassiblik» so'zi bilan almashtirilgan holda istefoda etilmoqda.

Terrorizm (lotincha – «qo'rqitish», «vahimaga solish») – aholining keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.

Terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlikdan hamda zo'ravonlik qilish bilan tahdid solishdan muntazam foydalanishdir. Shunday qilib, «terror» dushmanni jismoniy zo'ravonlik yo'li bilan qo'rqitish, hatto uni jismonan yo'q qilishni anglatadi. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralash maqbul bo'lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo'lmay, bugungi kungacha asrlar qo'ynidan yetib kelgan, deb hisoblash mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida «terrorizm»ga quyidagicha ta'rif berilgan: «Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsni biron bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishni ta'minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok

etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat».

Yuqorida keltirilgan ta'riflarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalariga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta'kidlangan. XX asrning 60-yillaridan boshlab, terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati, butun-butun mintaqalar yo'nalishi turlicha bo'lgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat ko'rsatgan joylarga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining ko'lamigina emas, balki metodlari ham o'zgardi. Uning eng dahshatli ko'rinishlaridan biri – o'zini avvaldan o'linga tayyorlagan terrorchi-kamikadzelar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin.

Musulmon mamlakatlarida terrorchi uyushmalar ommaviy bo'la olmagan uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg'otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Demak, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

«Xalqaro terrorizm» tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og'ir jinoyatlardan bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm fenomeni, ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi, ya'ni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934 yilda Madridda bo'lib o'tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan konferentsiyada terrorizmning «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashuvni yo'q qilish maqsadida biror bir vositani qo'llash» degan ma'nodagi ta'rifi qabul qilinishiga erishilgan. 1937 yilda 20dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konventsiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab tasodifiy kishilarning qurbon bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo'lganlardan ko'ra, uning guvohlariga qaratilgan.

Xalqaro terrorchilik harakatlarining asosiy belgilari:

- xalqaro huquq himoyasidagi ob’ekt yoki sub’ektlarga qarshi qaratilgani;
- davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- a’zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo’lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo’poruvchilik harakatlari bo’yicha xorijlik yo’riqchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a’zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko’rishi;
- tayyorgarlik ko’rish va qo’poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog’ savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo’lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko’rilishiga olib keladi.

Din niqobidagi ekstremizm va u bilan bog’liq terrorizm dunyoning 15 dan ortiq mamlakatlariga alohida tahdid solmoqda. Yer kurrasining turli qit’alarida joylashgan bunday mamlakatlarni shartli tarzda bir necha guruhga bo’lish mumkin.

Birinchi guruhga mansub Shimoliy Afrikada joylashgan ayrim arab mamlakatlari, jumladan, eng katta arab davlati bo’lgan Misr Arab Respublikasi uchun diniy ekstremizm bilan bog’liq terrorchilik harakatlari haqiqiy muammoga aylandi. 1970-1980 yillarda bunday jarayon Tunisni ham qamrab oldi. Mazkur mintaqada joylashgan yana bir arab davlati – Jazoiridagi diniy-ekstremistik tashkilotlarning qo’poruvchilik faoliyati tufayli o’n minglab begunoh insonlar halok bo’lgan bo’lsa, radikal oqimlar Sudanda ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning mutlaqo izdan chiqishiga, Darfur mintaqasining dunyoning eng fojiali nuqtalaridan biriga aylanishiga sabab bo’ldi.

Ikkinchi guruhga Osiyo qit’asida joylashgan yana bir necha arab davlatlarini kiritish mumkin. Turli-tuman siyosiy, iqtisodiy va diniy-mafkuraviy sabablarga ko’ra, Falastin hududlari, Suriya, Iroq Respublikasi diniy ekstremizm bilan bog’liq terrorchilik harakatlaridan katta talafot ko’rmoqda. Ayniqsa, Suriya davlatining iqtisodiyotiga 5 yillik urush 255 milliard AQSh dollari miqdorida zarar keltirdi. Mamlakatning o’nlab shaharlaridagi 2 milliondan ziyod bino va inshootlar poydevorigacha yo’q qilingan, neft-gaz qazib chiqaruvchi quvvatlarning ko’p qismi «IShID» jangarilari qo’lida qolmoqda. Shu sababli, 85% suriyaliklar qashshoq holatga tushib qolgan. BMT ma’lumotlariga ko’ra, Suriyani tiklash uchun yiliga 100 milliard AQSh dollari lozim bo’ladi. Shundan keyingina 9 yil ichida davlat 2010 yilgi darajaga chiqishi mumkin. Suriyaning sobiq Bosh vaziri va hozirda BMTning iqtisodiy va ijtimoiy Komissiyasi ijroi kotibining o’rinbosari bo’lgan Abdulloh al-Dardoriy aytishicha, 2010 yili Suriyaning yalpi ichki

mahsuloti 62 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan. Ammo, fuqarolar urushidan so'ng yalpi ichki mahsuloti 27 milliard AQSh dollariga tushib ketgan. Faqatgina ishlab chiqarish maydonlarining o'zi 90% vayron qilingan. Turar-joy binolarining yarmi esa buzib tashlangan.

Diniy-ekstremistik faoliyatning uchinchi o'chog'i Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida joylashgan deyish mumkin. Ushbu xatarning olovli nafasi, ayniqsa, Pokiston, Indoneziya, Malayziya hamda Hindiston va Filippinning ayrim hududlarida o'zining halokatli oqibatlarini namoyon etmoqda. Boshqacha aytganda, qadim-qadimlardan buddaviylik, hinduiylik, islom va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar tinch-totuv yashab kelgan ulkan hududda ham ekstremizmning qo'poruvchilik salohiyati o'zini ko'rsatmoqda.

Islom mafkura sifatida musulmonlarni birlashtiruvchi kuchli omil bo'lib kelgan. Asrlar davomida turli ijtimoiy tabaqalar va millatlarni qamrab olishi natijasida, bugungi kunda islom o'z rivojlanishida katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Islom dini doirasida yuzaga kelgan turli qarama-qarshiliklar oqibatida jangari millatchilik va diniy ekstremizmga asoslangan siyosiy kuchlar va ittifoqlar paydo bo'lmoqda.

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash olib borishda kompleks va tizimli, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy chora-tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Albatta, bunday chora-tadbirlarni qo'llash katta vaqt, tegishli reja va yirik mablag'lar talab qiladi.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro birdamlik va kelishuvlar ham katta ahamiyatga ega. Xususan, o'z hududida diniy ekstremistlar va terrorchilar faoliyatiga yo'l ochib bermaslik, ularga yordam ko'rsatmaslik va siyosiy boshpana bermaslik hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Arab – musulmon davlatlari ichida Misr Arab Respublikasi birinchi bo'lib terrorizm muammosiga 1940-yillarda, «Musulmon birodarlar»ning o'z faoliyatida ishontirish usullaridan radikal terrorchilikka – davlat, politsiya va armiyaning ko'zga ko'ringan arboblarni jismonan yo'q qilish yo'liga o'tishi natijasida duch keldi. Ushbu davlatning diniy mutaassiblikka qarshi kurashdagi bir necha o'n yillik tajribasi radikal diniy guruhlariga xayrixohlik bilan qarash, ularni pinhona rag'batlantirish ekstremistik harakatlarning yanada faollashuviga, yangilarining paydo bo'lishiga imkon yaratishini ko'rsatadi.

Musulmon mamlakatlarining diniy ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi umuman olganda, har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlaridan qat'i nazar, bilvosita va bevosita qarshilik ko'rsatish usullarini o'z ichiga oladi.

Bilvosita choralarga rasmiy diniy tashkilotlar bilan hamkorlik, zo'ravonlikka qarshi kurashda diniy arbob va muassasalarning ahamiyatini oshirish, shuningdek,

ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan dasturlarni kiritish mumkin.

Bevosita qarshilik ko'rsatish o'z ichiga huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan ko'riladigan choralarni, aksilterrorchilik qonunlarini qabul qilish, ulardan keng foydalanish kabi tadbirlarni oladi. Shu o'rinda, masalan, Misr qonunchiligi diniy asosda partiyalar tashkil etishni taqiqlashini ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, davlat noqonuniy ravishda qurol saqlaganlar, zo'ravonlikni targ'ib etuvchilar, radikal guruhlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlovchilarga nisbatan qattiq ma'muriy-jinoiy choralarni qo'llashini ham qayd etish lozim.

1990-yillarda zo'rlik va terror harakatlarining kuchayishi esa Misr hukumatini «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun kabi, bir qator yangi huquqiy hujjatlarni qabul qilishga majbur qildi. Bunday maxsus Qonunning qabul qilinishi xavfsizlik idoralariga ko'proq erkinlik berish va ular olib borayotgan faoliyatning samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq edi.

Musulmon mamlakatlari diniy ekstremizm va zo'ravonlik muammolarini ilmiy va keng qamrovda yechish bo'yicha amaliy ishlarni tashkil etmoqda. Jumladan, ilmiy-tekshirish institutlari va strategik markazlarda bu muammoning ilmiy-tizimli tahliliga katta e'tibor berilmoqda. Bu jarayonda har bir mamlakatda muayyan o'ziga xosliklar kuzatilishi, tabiiy, albatta. Masalan, Indoneziyada ekstremizmga qarshi olib borilayotgan kurashda ekstremistlarning yirik vakillari, jumladan, qamoqda bo'lgan Abu Bakar Bashir tomonidan tashkil etilgan «islom maktablari»ni yopish choralari ko'rilayotgani bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, 2002 yilda Bali orolida sodir etilgan va 200 dan ortiq kishining umrini xazon qilgan portlashlarning tashkilotchilaridan biri Imom Samudra tomonidan yozilgan va jangarilik g'oyalariga boy bo'lgan kitoblarni bosish va tarqatish man etilganini ham qayd etish zarur.

Bunday harakatlar hozirda hukumat va ulamolarning diniy ekstremizmga qarshi birgalikda olib borayotgan ishlarining bir qismi sifatida qaralmoqda. Umuman olganda, Indoneziyada «Politsiya ishtirokida kuchga va musulmon ulamolarning faol ishtirokida mafkuraga tayanib ish olib borish – ekstremizmga qarshi kurashning ikki fronti» sifatida e'lon qilinganini ta'kidlash lozim. Radikal qarashlarga qarshi kurash bo'yicha yetakchi musulmon ulamolari ishtirokida guruh shakllantirilgani ham bu yo'lda amaliy ishlarga o'tilganining isboti bo'la oladi.

Diniy ekstremizm va terrorizm muammosi bilan duch kelayotgan musulmon mamlakatlari ushbu masalani turli xalqaro forumlarda ko'tarish bilan dunyo jamoatchiligi diqqatini uni hal etishga qaratib kelmoqda. Shuningdek, radikal kayfiyatdagi mutaassiblar yashayotgan davlatlar bilan xavfsizlik sohasida hamkorlik qilish va jinoyatchilarni almashish bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlarni imzolashga ham alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, arab

davlatlari o'rtasida xavfsizlik sohasidagi siyosatni tartibga solish va terrorizm muammosini arab davlatlari Ichki ishlar vazirlari majlislarining dolzarb mavzusiga aylantirish yo'lidagi harakatlar ham shu yo'nalishdagi ishlarning uzviy qismi hisoblanadi.

Dinni qurol qilib olgan bunday ekstremistik harakatlar bugun umuman kishilik jamiyati hayotiga jiddiy tahdid solmoqda. Zamonaviy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda o'zaro hamkorlik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan terrorizmga qarshi kurashmagan davlatlar zaiflashib, o'z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi.

Bugungi kunda terrorizm xavf solishi mumkin bo'lmagan davlatning o'zi yo'q. Shunday ekan dunyoning barcha davlatlari bir-birlariga yordam berib, bir-birlarining yordamlariga suyanagan holda terrorizmga qarshi kurashmoqdalar.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining rahbarlari faqat 2000-2004 yillar davomida ko'p marta uchrashdilar va xavfsizlikni ta'minlash masalalarini muhokama qildilar. Jumladan, 2000 yil aprel oyida Toshkentda, 2000 yil avgust oyida Bishkekda, 2001 yil Ostonada, 2004 yil oktyabr oyida Dushanbeda bo'lib o'tgan uchrashuvlarda mintaqada xavfsizlikni ta'minlashga asosiy e'tibor qaratildi. Xususan, «Terrorchi guruhlar faoliyatini to'xtatish, ularning rahbarlari ro'yhatini tuzish, rahbarlarni tutib jazolash» haqida muhim hujjatlar qabul qilindi.

Terrorizm va ekstremizmning tarqalishi va foliyatini amalga oshirilishi moliyaviy jihatdan ta'minlanishiga bog'liqligini har bir odam chuqur idrok etishi lozim.

Respublikamizda din va davlat munosabati, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyat yuritishi bo'yicha huquqiy asos yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi hamda 2018 yil 30 iyulda 24-moddadan iborat "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida" O'RQ-489-sonli Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. 11-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining hududiga ekstremistik materiallarni, ekstremistik tashkilotlarning atributlari va ramziy belgilarini olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etish, shuningdek ularni ommaviy axborot vositalarida yoxud telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish va namoyish etish taqiqlanadi.

Shuningdek, mazkur moddaga ko'ra, O'zbekiston hududiga olib kirilayotgan, tayyorlanayotgan, saqlanayotgan, tarqatilayotgan va namoyish etilayotgan, ommaviy axborot vositalarida yoki telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu

jumladan, Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatilayotgan va namoyish etilayotgan materiallar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekstremistik materiallar deb topiladi.

Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida yuksak minbardan turib, butun dunyoga "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz" deya murojaat qilgan edi. Ushbu ezgu maqsad yo'lida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizda diniy sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilganligi, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi va uning qoshida Islom akademiyasi faoliyati yo'lga qo'yilayotganligi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi ochilganligi, masjid va madrasalar qurilib, mavjudlari rekonstruktsiya qilinib, muqaddas qadamjolar obod bo'layotganligi, har bir viloyatda hadisshunoslik, islom huquqshunosligi, tasavvuf, kalom va aqida ilmi kabi diniy-ma'rifiy yo'nalishlarni o'rganish bo'yicha maktablar tashkil etilayotganligi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan ekstremizm g'oyalari ta'siriga adashib tushib qolgan fuqarolarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, ularni sog'lom hayotga qaytarish bo'yicha ishlarni yanada takomillashtirib, yurtimizda har qanday qonunbuzarlikka insonparvarlik, kechirimlilik, bag'rikenglik tamoyillari asosida ish olib borayotganligi,

yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni yanada ta'minlash, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning ongu tafakkurini diniy ekstremistik tajovuzlardan, turli yot g'oyalardan himoya qilish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish lozimligini namoyon etmoqda.

Din jamiyat hayotining tarkibiy qismi sifatida kishilarning ijtimoiylashuviga, ularning turmush tarzini tashkil etish va tartibga solishga xizmat qiluvchi me'yoriy omillardan biri bo'lib kelgan. Dinning bunday roli uning tarixan shakllangan o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Chunki, din, birinchidan, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan; ikkinchidan, odamlarning bahamjihat yashashiga ko'maklashgan; uchinchidan, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan; to'rtinchidan, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishga yordam bergan va shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Bugungi kunda dinga bo'lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashuv jarayonlarining o'ziga xos in'ikosi deyish mumkin. Zero, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan

millat va jamiyatlar darajasida o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda. Bu jarayonlar o'z navbatida inson ma'naviyatining uzviy qismi bo'lgan dinning mohiyatini tushunish, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini anglashga bo'lgan e'tiborning kuchayishini keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, dinga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bugungi kunda kishilik jamiyati oldida turgan muammolar, insonning ularni hal qilish yo'llari haqidagi o'y-izlanishlari, dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlagan holda bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topishga intilishi bilan bog'liq ekanini ham alohida qayd etish lozim.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo'lgan. Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi.

Yangi diniy harakatlar deganda odatda XX asrning 70 yillarida Yevropa va AQShda tarqalgan noan'anaviy diniy guruhlar va oqimlar nazarda tutiladi. Tadqiqotchilar bunga an'anaviy dinlardagi inqiroz davri sabab bo'lganligini ta'kidlaydilar. YaDH liderlari jamiyat kayfiyatidagi o'zgarishlarni, bu "o'tkinchi dunyo"ning nuqsonlarini fosh qilib, o'zlarini "xaloskor", yuksak axloqli "haqiqatgo'y" sifatida ko'rsatdilar. YaDH to'riga ko'proq yoshlar ilindilar. YaDH qat'iy ta'limotga ega bo'lmagan tashkilot bo'lib, uning faoliyati lider roli bilan belgilangan.

Liderlar an'anaviy diniy qadriyatlarga qarshi tashviqot ishlarini olib borganlar. Diniy hayot maxsus ishlab chiqilgan tartib qoida va nizomlar orqali amalga oshirilgan. YaDHLarning ba'zilari dunyoning turli burchaklarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan, biznes bilan shug'ullanuvchi yirik xalqaro korporatsiyalarga aylandi. YaDHLar meditatsiya amaliyotini keng qo'llaydilar, tashkiliy jihatdan piramida shaklida boshqariladi. YaDHLarning aksariyati noqonuniy faoliyat yurituvchi, kriminal tashkilotlardir.

Sekta so'zi, eng umumiy ma'noda, muayyan diniy, siyosiy yoki falsafiy qarashlarga ergashuvchilar guruhini anglatadi. Diniy sekta deganda ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar tushuniladi. Bugungi kunda har ikkala yo'nalishga mansub bo'lgan ko'plab sektalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mutaxassislar ularning sonini taxminan 5000 atrofida, deb baholaydilar.

Zamonaviy voqelik diniy-ekstremistik xarakterdagi sektalarning inson ongi va qalbi uchun kurash yo'lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, bizga qo'shni bo'lgan davlatlarda "Bogorodichiy sentr", "Tserkov' ob'edineniya", "Tserkov' Isusa", "Tserkov'

Novogo Zaveta", "Beloe bratstvo", "Bojestvennyy orden Pervogo Angela" kabi o'nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. "Satanizm" deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, Yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor.

Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo'lganlar ichida ish olib borish yo'li bilan o'z tarafdorlarini ko'paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan "avliyo"lar o'z izdoshlarini aldash yo'li bilan ularning mol-mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar.

Yashirin faoliyat olib borishi, sekta ichida bo'layotgan voqealarning ko'pchilikka ma'lum bo'lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi, ular faoliyatidan jamoatchilikning bexabar qolishini keltirib chiqarmoqda.

Ugandadagi "Oxirat kuni" sektasi boshliqlarining faoliyati bunga misol bo'ladi. Oxiratni 1999 yilning 31 dekabriga "belgilagan" ushbu sekta rahbarlari o'z tarafdorlarini mol-mulklarini sotish, tushgan mablag'ni ularga berishga va shu yo'l bilan gunohlardan forig' bo'lishga chaqirgan. Qiyomatning 2001 yil 1 yanvarga "ko'chirilishi" sekta rahbarlariga nisbatan shubha uyg'onishiga olib kelgan. Shundan so'ng rahbarlar Kanungu qishlog'ida 500 dan ortiq o'z tarafdorlarini aldab bir joyga to'plab, ustlaridan yopib binoga o't qo'yib yuborishgan. Ommaviy axborot vositalari xabarlariga ko'ra, tezkor tadbirlarni o'tkazgan politsiya yana to'rt joyda ommaviy qabrlarni topgan. Umuman bu sektaning qurbonlari 1000 ortiq bo'lgani qayd qilingan.

Jahon xristianlarini birlashtirish yo'lidagi Muqaddas Ruh assotsiatsiyasi (Assotsiatsiya Svyatogo Duxa za ob'edinenie mirovogo xristianstva (ASD-OMX) bo'lib, Mun San Men birlashtirish cherkovi, Birlashtirish harakati, munchilar (munisty) kabi nomlar bilan ham ataladi.

Tarixi: BCh asoschisi Sun Mbyung Men 1920 yilda Shimoliy Koreyada mahalliy presviterian cherkoviga e'tiqod qiluvchi dehqon oilasida tug'ilgan. Maktabda o'qish davrida u pyatidesyatniklar yig'inlarida qatnashardi. 1936 yili Pasxa bayramida unga "vahiy" keladi: Iso Masih unga ko'ranib, uni taxminan 2000 yil avval boshlagan missiyasini yakunlash uchun "tanlangan"ini aytgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu voqea sodir bo'lganda osmondan: "Sen insonlarni halokatdan qutqarasan, sen Masihning ikkinchi bor zoxir bo'lishisan!". Shu voqea sabab u o'z ismining birinchi bo'lagi - Sun (ajdarho)ni -San (nur taratuvchi (svetyayciysya)ga o'zgartirdi va bu bilan u o'zini "ilohiy" kelib chiqishini bildirdi. Shu yo'l bilan yangi "payg'ambar"- Mun San Men vujudga keldi.

Munchilarning ta'kidlashlaricha, bo'lg'usi payg'ambar Yaponiyada elektrik kasbini egallagan, ammo u o'z iste'dodi bilan muhandis diplomini olishi ham mumkin edi. Biroq u "ilohiy yo'l"ni tanlashni afzal bilgan.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin Mun 1948 yilda ma'naviy buzuqligi, "jamoat tartibini buzganligi" uchun 100 kunga, keyinroq esa ikki xotinga ega bo'lganligi uchun 5 yilga qamalgan. 1950 yil kuzda u Janubiy Koreyaga o'tadi va 1954 yilda o'z tashkilotiga asos soladi.

1957 yilda uning muallifligida Muqaddas kitoblarga "Bibliya"ga qo'shimcha ravishda "Ilohiy printsiplar" ("Bojestvennye Printsipy") nomli kitobini chop etadi.

1955 yilda Mun 10 dan ortiq ayollarning nomusiga tajovuz qilishda ayblanib sudga tortilgan.

Ayblarni yumshatish, janjallarga barham berish uchun o'sha ayollardan biri Seuldagi "Rixva" universiteti talabasi 18 yoshlik Xak Xok Djaga 1960 yilda uylanadi ("svadba agntsev").

To'y sovg'asi sifatida "payg'ambar" o'z rafiqasiga "olamni yaratuvchi ona" ("mat' mirozdaniya") unvoni-titulini beradi va "Ilohiy printsiplar"ni sovg'a qiladi.

1976 yildan boshlab BCh bir necha bor moliyaviy masalalar bo'yicha janjalli voqealarga sabab bo'lgan. 80-yy. Boshlarida dunyo bo'ylab BChning 150 dan ortiq korporatsiyalari bo'lib, ularga turli sohalarga oid korxonalar qarashli bo'lgan. Korxona xodmlari past maosh olib, yuqori daroma olishga rozi bo'lishgan. Emishki, daromadlar BChni yuksaltirishga ishlatilgan.

AQSh sudi Munni 625000 \$lik Nyu Yorkdagi uyini soliq deklaratsiyalarda qayd etmagani, soliqlardan qochganlikda ayblagan. 1982 yil iyulida uni 18 oy qamoq jazosi va 25 000 doll.shtrafga solgan. Advokatlar say-harakatlari tufayli Mun 1 yildan so'ng ozod etilgan. (Munning pullari BCh tashkiloti hisobiga tegishli bo'lgani uchun soliqlardan ozod deyishgan).

1992 yilda Mun o'zini yangi insoniyatning "Haqiqiy Ota"si deb e'lon qilgan, 1993 yilda "Yangi Ahd davri" tugab, "Ahdning yakuniy davri ("era Zaversheniya Zaveta") boshlanganini bildirgan.

Munchilar to'liq va yakuniy haqiqatga "Haqiqiy Ota" orqali erishaladi. Mun va uning xotini yaqinda "Iso Masih"ga rafika topishgan va Iso Masih ularga ko'rinib minnatdorchilik bildirgan. Munchilarning ommaviy nikoh tantanalari "Unashtirish" marosimi munchilarning ammaliyotida markaziy o'rinda turadi.

U 2 qismdan iborat: "muqaddas vino" marosimi va "muqaddas nikoh".

Ushbu marosimlar vino orqali unashtirilayotganlar odamzotning "birinchi gunohi"dan poklanib, yangi "haqiqiy" hayotni boshlashlarini anglatadi. Nikoh marosimidan avval "unashtirish" bo'lib o'tadi. Bo'lg'usi kelin-kuyovlar o'z juftlarini topishni Mun va uning tajribali mintaqaviy liderlariga to'lig'icha

ishonadilar. Ayrimlar o'z juftini nikoh tantanasidan bir necha kun avvalgina taniydilar.

“Muqaddas vino” yoki “Nasabni o'zgartirish” marosimi orqali munchilar Mun va uning oilasi bilan qarindoshlik rishtalarini bog'laydilar. Mun ta'rificha: “Bu marosimlar shayton dunyosidan saqlovchi va “Haqiqiy ota-onalar”ga yaqinlashish bo'yicha o'ziga xos “emlash” vositasidir. Vinoda 21 bitta unsur (element) va “Ota va Ona”ning qoni jamlangan bo'lib, uni iste'mol qilgan inson o'z ajdodlaridan voz kechadi.

Boshqa bir ma'lumotlarga qaraganda, ushbu ichimlik tarkibiga Mun va xotining boshqa narsalari ham solinadi.

Aum sinrikyo (sanskritcha “olam”) haqiqati ta'limoti; ingliz tilida «Supreme truth», ya'ni “oliy haqiqat» deb tarjima qilingan (2000 yildan boshlab Alef nomi bilan faoliyat yuritmoqda (somiylar alifbosidagi 1 harfi bo'yicha)) — yangi diniy, sinkretik, terroristik, ekstremistik, totalitar, destruktiv sekta bo'lib, vadjrayana buddizmi asosida Yaponiyada vujudga kelgan.

Sektaga yaponiyalik Syoko Asaxara 1987 yili asos solgan, u 1995 yilda Tokio metrosidagi zaharli gazlar portlatishni uyushtirgandan so'ng mashhur bo'lib ketgan.

Hozirda sekta terroristik tashkilotlar ro'yxatiga kiritilgan. Yevropa Ittifoqi, Kanada, Moldaviya, Rossiya, AQSh va boshqa davlatlarda faoliyati ta'qiqlangan. Aum sinrikyodan Rossiyada 24000, Yaponiyada 6600 kishi jabrlangan. 1990 yillarda Aum Sinrikyoning Nyu York, Bonn, Shri Lankada markazlari faoliyat yuritgan. 1986 yilda uning tashkilotiga diniy tus berildi va u «AUM Sinsen-no-kay» («Ma'naviy rivojlangan va notabiiy kuch quvvatga ega kishilar jamiyati) deb ataldi.

Shu yili Asaxara Ximolayda «butunlay azoblardan qutilib, Nurlanishga erishdi», tashkiloti 1987 yilning iyulidan Aum sinrikyo degan nom oldi va butun mamlakat bo'ylab bo'linmalariga ega bo'ldi.

1989 yil avgustidan sekta diniy tashkilot sifatida tanildi. U Yaponiyaning oliy tabaqadagi universitetining talabalarini o'ziga jalb qilib, ikkinchi nom - « elita vakillari dini» oldi.

1995 yil 20 martda «Aum sinrikyo»ning 10 ta a'zosi tomonidan terroristik akt sodir etilgan. Ular Tokio metrosida zararli gazi yordamida gazli portlatish sodir etishgan.

Natijada 12 kishi vafot etgan (13; 18; 27), o'nlab kishilar zaharlangan, 1000 kishining ko'rish qobiliyati pasaygan. Yaralanganlarda tananing ayrim a'zolarida paralich, so'zlash qobiliyatining yo'qolishi, tayanch harakat a'zolarining shikastlanishi, ko'r bo'lib qolish holatlari ham uchragan. Ushbu aktga Asaxara o'zi buyruq bergan (rad etsada).

Ularning fikricha, Oxirzamon kelishi va Yaxshilik va Yomonlik o'rtasidagi oxirgi urush kutilmoqda va urushda barcha "gunohkorlar" qirib tashlanadi. Politsiyachilar tomonidan sekta markazlari tekshirilganda kimyoviy va biologik qurollarning komponentlari (sibir yarasi (sibirskaya azva) va Ebola virusi) topilgan. Bundan tashqari Zairdan keltirilgan Mi 17 harbiy vertolyoti bo'lgan. Kimyoviy zaxira zarin tayyorlash orqali 4 million kishini o'ldirishga yetadigan bo'lgan.

Oq birodarlik tashkiloti (OBT) eng janjalkash sektalardan biri bo'lib, Nyu Eyj harakati bilan o'zaro bog'liq. Uning g'oyalarida ham Baliq erasi (Iso Masih davri) yakunlanib, Vodoley erasi, ya'ni yer yuzida Ilohiy boshqaruv davri boshlanishini da'vo qiladilar.

Asoschisi va yaqin yillarga qadar rahbari Yuriy Krivonogov tex.f.n.,m Kievning nevrologiya va psixiatriya institutida ishlagan, ko'plab yangi g'oyalar muallifi, inson shaxsiyatiga ta'sir o'tkazish masalalariga qiziqqan (KGB bilan aloqa bo'lgan)

O'z qiziqishlari o'laroq biroz muddat Krishnani anglash jamiyatiga a'zo bo'ladi va turli uslublarni o'rganadi. U "Atma" nomli "Qalb instituti"ni ochadi va "Znanie" nashriyoti orqali ko'plab risolalar chop etadi. Krivonogov ko'p shaharlarda ma'ruzalar o'qib yuradi va Dnepropetrovskda bo'lg'usi xotini Mariya Svirgunni uchratadi va to'y arafasi uni yerdagi "Xudo" deb e'lon qiladi.

Krivonogov o'zini turli avliyolar nomi bilan atab chiqqan (Ioann Predtech, Payg'ambarlar Yoqub, Nuh, Ioann Krestitetlb, Tutanxamon, knyazь Vladimir, v.h) va oxiri Yuoann Svami ismida to'xtagan. Mariya ham dastlab Xudoning onasi, keyin Ota Xudo, O'g'il Xudo, Muqaddas Ruhga aylangan, nihoyat Mariya Devi Xristos nomini olgan. Mariya o'zini erkak jinsiga nisbatan ishlatiladigan "on" so'zi bilan murojaat qilgan. U yer yuzida uch yarim yil yashab 144 ming eng e'tiqodli kishilarni "haqiqiy e'tiqodlilar"ni jamlashi kerak bo'lgan.

Bu kishilar yusmalianning yangi xalqi bo'lishi kerak edi. (YuSMALOS bu "Yuoann Svami Mariya Logos" abriviaturasi, shuningdek Jus malos "yovuzlik qonuni" ma'nosi bor). Yusmalos "olamni qutqarish" missiyasi 1990 yil 1 iyuldan 1993 yil 24 noyabrga qilib belgilangandi.

Yerdan oxirgi bo'lib bu er xotin ketishi, ularni chormixlashlari lozim bo'lgan. Jasadlar uch kun ko'chada turib, uchinchi kuni qayta tirishlari va osmonga ko'tarilishlari kerak edi. O'sha kuni Oxir zamon bo'lib, yer yuzi vayron bo'lishi, insoniyat halokatga uchrashi, keyin esa yusmalos xalqi yerda yangi hayotni boshlashi, ular jannatda qolgan do'zaxda bo'lishi ta'kidlangan.

Belgilangan sanada Kievda bir necha ming tarafdorlar yig'iladilar. Albatta, Oxir zamon bo'lmadi. Kievdagi muqaddas Sofiya ibodatxonasi oldida to'polon uyushtirildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinlashib ketishi, ochlik, fuqarolar urushlari, ommaviy epidemiyalar, spidning tarqalishi yuqoridagi kabi sektalarning keng yoyilishiga olib kelmoqda.

Umuman olganda, bunday sektalarning barchasi insonning ojizligi, ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishga bo'lgan intilishi, kishilar hayotda duch keladigan qiyinchiliklardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida shaxsiy boylik orttirish niyatida foydalanadilar.

Mavjud diniy ta'limotlar, ulardagi muayyan qoidalarni davr talabiga moslashtirish, boshqacha aytganda, modernizatsiya qilish jarayoni ham davom etmoqda. Masalan, xristianlar amalga oshirgan inkvizitsiya va salb yurishlari xato bo'lganini tan olib, Rim Papasi hatto, rasman kechirim ham so'radi. 1992 yilda Papa Ioann Pavel II o'z paytida Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi qarashlarni yoqlagani uchun cherkov tribunali tomonidan tavba qildirilib, o'z qarashlaridan voz kechishga majbur qilingan Galileo Galileyni haq bo'lganini tan olib, barchadan uzr so'ragani ham bunga misol bo'la oladi.

Shuningdek, mavjud dinlarning tarqalish hududida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganini ta'kidlash zarur. Masalan, o'tgan asrda asosan xristianlar yashab kelgan Yevropada bugungi kunda 20-25 million atrofida musulmonlar istiqomat qilmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniyada - 3 million, Germaniyada - 5 million, Frantsiyada - 6-7 million islomga e'tiqod qiluvchi fuqarolar yashamoqda. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, hozirda aynan islom e'tiqodchilari soni eng tez ko'payib borayotgan din hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, islomning yillik o'sish sur'ati 6,4 foizni tashkil etib, 1989 yildan 2011 yilga qadarmusulmon aholi soni Shimoliy Amerikada - 25, Afrikada - 2,15, Osiyoda-12,57, Yevropada-142,35, Avstraliya va Okeaniyada-257,01 foizga ko'paygan. Faqat Lotin Amerikasida islomga e'tiqod qiluvchilar ulushi 4,73 foizga kamaygan.

Bunday o'zgarishlar, bir tomondan, globallashuv keltirib chiqarayotgan odamlar migratsiyasi natijasida, ikkinchi tomondan, kishilarning buddaviylik, ko'pgina hollarda va asosan islomni ongli tarzda qabul qilishi bilan bog'liq.

Shuningdek, aholisi an'anaviy ravishda buddaviylik va islomga e'tiqod qilib kelgan o'lkalarda xristianlikni yoyishga intilish kuzatilmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra xristianlikning o'sish ko'rsatkichi yiliga 1,46 foizni tashkil qiladi. Mazkur jarayon ayrim xristian tashkilotlari va yo'nalishlarining faol missionerlik harakati natijasida sodir bo'lmoqda.

Qayd etilgan mulohazalar bugungi kunda ham dunyoning diniy manzarasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganidan dalolat beradi. Diniy konfessiyalar manzarasi rang-barangligini O'zbekistonda rasman ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Xristianlikka

mansub bo'lsa-da, yurtimizdagi 11 ta yo'nalishning har biri o'zini alohida diniy konfessiya, deb hisoblashi fikrimizning isboti bo'la oladi.

Noan'anaviy diniy tashkilot yoki oqim deganda bir mintaqa, hudud aholisi uchun begona bo'lgan, muayyan tarixiy sharoit yoki ijtimoiy vaziyat sababli o'sha yerga kirib kelgan yoki kirishga harakat qiladigan dinlar tushuniladi.

Xristianlik doirasida yuzaga kelgan oqimlar. XIX asr o'rtalari XX asr boshlariga kelib Yevropa, Amerika va Osiyo qit'alarida "payg'ambarlik" va "armageddonizm" epidemiyalari avj oldi. AQShda 1840 yillarda "millerizm" nomi ostida paydo bo'lgan harakat tez orada boshqa hududlarga ham tarqaldi. Natijada, aksariyat yirik dinlar doirasida yangi, "islohotchi" oqimlar yuzaga keldi.

Ulardan, xristianlik doirasida "Iegovo shohidlari" va "Mormonlar"ni, islom dini doirasida "Bahoiylar", "Ahmadiylar" va "Qora musulmonlar"ni, hinduiylik doirasida "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"ni sanash mumkin.

Iegovo shohidlari (yoki Yahve guvohlari) yo'nalishiga 1873 yilda Charlʼz Teyz Rassel (1852-1916) tomonidan asos solingan. Yo'nalishning diniy ta'limoti uning yetti tomlik "Muqaddas Yozuvni o'rganish" kitobiga asoslanadi.

Ch.Rassel vafotidan keyin tashkil otgarahbarlik qilgan Iosif (Djozef) Franklin Ruzerford iegovochilikka "armageddon" (ya'ni, go'yoki, oxirzamonda Iso boshchiligidagi iegovochilar va Shayton boshchiligidagi jinlar qo'shini o'rtasida bo'lib o'tadigan jang) tushunchasini kiritdi. Shuningdek, u har yili iegovochilarning xalqaro konferentsiyalarini o'tkazishni, 50 ga yaqin kitob muallifi sifatida targ'ibot ishlarida radio va grammo-plastinkalardan foydalanishni yo'lga qo'ydi.

"Iegovo shohidlari" Uchlik haqidagi aqidani rad etishadi, lekin boshqa yo'nalishlar kabi uning barcha ko'rinishlarini izohlashadi. Ular xudoning o'z shaxsiy ismi bor, bu ism "Iegovo"dir va u barcha narsalarning asosi va yaratuvchisi, deb hisoblaydilar.

Iegovochilar Iso Xudoning O'g'li bo'lgan deb e'tiqod qilsa-da, uning Xudo bo'lganini inkor qilishadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, Iso Iegovo tomonidan yaratilgan yagona insondir, qolgan barcha insonlar Masih orqali yaratilgan. Muqaddas Ruh - Xudoning ko'rinmas kuchi bo'lib, u dunyo yaratilishida qatnashgan. Iso Golgofa tog'ida xochga emas, balki ustunga mixlangan deb hisoblaganlari sababli bu ramz ishlatilmaydi.

Iegovo butun insoniyat tarixida 144 ming kishini tanlab olgan, ular o'lgandan so'ng to'g'ridan-to'g'ri tiriladi va osmon podshohligiga o'tib ketishadi. Hozirgi kunda o'sha tanlangan 144 ming kishi, ya'ni "kichik poda"dan (imoni mustahkam va din yo'lida ko'p xizmat qilgan) 11 mingtasi tirik, deb e'tiqod qilinadi. Qolgan imonlilar, ya'ni Iegovo shohidlariga qo'shilgan "qo'ylar"ga (oddiy dindorlar) Yer yuzida abadiy jannatda yashashlari va'da qilinadi.

"Iegovo shohidlari" faqatgina Iso Masih o'limini eslash kechalari bilan bog'liq bayramni nishonlaydilar. Shu kuni jamoa a'zolari qarindosh va tanishlarini uylariga taklif qilishadi. Dasturxonda Isoning tana va qonining ifodasi deb bilinadigan xamirturishsiz non va qizil, quruq vino bo'lishi shart.

"Iegovo shohidlari" diniy tashkiloti qat'iy markazlashgan xarakterga ega. Uning diniy-ma'muriy markazi - Boshqaruv korporatsiyasi hisoblanadi. U 15 kishidan iborat bo'lib, Bruklinda (AQSh, Nьyu-York) joylashgan. Boshqaruv korporatsiyasining 90 dan ortiq filiallari dunyoning turli mamlakatlarida targ'ibot ishlarini olib boradi. Xristianlikning ko'zga ko'ringan vakillari iegovochilarning xristianlik bilan hech qanday umumiyligi yo'q, degan fikrdalar.

Markaziy Osiyoda "Iegovo shohidlari" diniy tashkilotining birinchi jamiyatlari 1950 yillarda paydo bo'lgan va norasmiy ravishda faoliyat ko'rsatib kelgan. Bugungi kunda respublikamizda "Iegovo shohidlari"ning 1 ta tashkiloti rasman ro'yxatga olingan.

"Iegovo shohidlari" missionerlikka katta e'tibor beradi. Jamoa paydo bo'lgan davrdan boshlab, asosan uyma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o'z izdoshlarini ko'paytirishga harakat qiladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda iegovochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Jamoa rahbariyati tomonidan missionerlarni tayyorlash ishlariga katta ahamiyat beriladi. AQShning Nьyu-York shahrida, jamoaning bosh ofisi bilan bir joyda "Galaad" nomli missionerlar tayyorlash markazi mavjud. Ushbu markazda tashkil etilgan besh oylik kurslarda butun dunyodan kelgan missionerlar tahsil olishadi.

Missionerlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va adabiyotlarni nashr etish uchun "Qo'riqchi minora", "Bibliya" va "Risolalar jamiyati" tuzilgan. Ushbu jamiyat korporatsiya deb atalib, bosh qarorgohi tashkilot asosiy binosi bilan bir joyda, AQShning Bruklin shahrida joylashgan. Korporatsiyani yetti direktordan iborat boshqaruv kengashi boshqaradi va ular korporatsiya prezidentini saylaydilar.

Hozirgi kunda "Iegovo shohidlari" 230 dan ortiq mamlakatda faoliyat olib boradi va dunyo bo'yicha 111 ta mintaqaviy vakolatxonalarga ega.

Iegovochilar missionerlikni o'ziga xos tarzda va tizimli tashkil etganlar. Mutaxassislar fikricha, "Iegovo shohidlari" o'z tarafdorlarini shakllantirishda jalb etishning 80 dan ortiq usulidan foydalanadilar. Jumladan, ular o'z da'vatchilarining ovoz ohanglarida tinchlantirish va mehr tuyg'ulari bo'lishiga alohida e'tibor beradilar. Iegovochilar missionerlikni:

- ☐ o'z qarashlariga zarracha bo'lsa ham qiziqish bildirgan odamlarni qidirib topish va so'ng ularni ta'limotni qabul qilishga tayyorlash;
- ☐ da'vat qilinayotgan odamning ongiga "Bibliya" kurslari va uning matnini o'rganish orqali diniy ta'limotni singdirish;
- ☐ prozelitlarni suv bilan cho'qintirish;

□ ularni missionerlik faoliyatiga tayyorlash kabi to'rt bosqichda amalga oshiradilar.

Iegovochilikning o'ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, unda har bir a'zo missionerlik faoliyatida qatnashishi shart. Jumladan, jamoa rahbariyati tomonidan har bir a'zo oyiga 10 soatdan 150 soatgacha missionerlik faoliyatiga sarflashlari talab qilinadi. Jamoa a'zolari qancha ko'p vaqtlarini missionerlikka sarflaganlariga qarab tashkilot ierarxiyasida ko'tarilib boradi. So'nggi paytlarda iegovochilar maktab o'quvchilari va yoshlar orasida targ'ibot ishlarini olib borishga intilish kuchli namoyon bo'layotganini ta'kidlash zarur. Ana shunday maqsadli faoliyat natijasida iegovochilar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda iegovochilar soni dunyo bo'yicha qariyb 7 millionni tashkil etadi. Ularning bosh tashkiloti tomonidan adabiyotlar nashr etish, cherkovlar faoliyatini ta'minlashga ketadigan sarf-xarajatlardan tashqari missionerlarning kundalik xarajatlariga yiliga 100 million AQSh dollariga yaqin mablag' sarflanadi.

Mormonlar. Mazkur oqimga 1830 yili Nьyu-York (AQSh) shahrida Jozef Smit (1805-1844) ismli shaxs tomonidan asos solingan.

Smit 1823 yilda Vermont shahridagi Sheron o'rmonida kambag'al va bechora tarafdorlariga Moroni nomli bir farishtaning o'ziga vahiy olib kelganini da'vo qiladi. Unga ko'ra Moroni, Smitga Nьyu-Yorkdagi Kumora tepaligiga ko'milgan, qadimgi Misr tilida yozilgan oltin lavhlar va ularni tarjima qilish uchun Urim va Thummin toshlarini keltirib bergan.

Jozef Smit matnlarni o'qigani va farishta yordamida tarjima qilganini e'lon qiladi va uni nashr ettiradi. Shunday qilib, 1830 yilda "Mormon kitobi" bosib chiqarilgan. Kitobdagi buyruqqa binoan yangi bir cherkov qurilgan. Bu cherkov, "Iso Masihning oxirgi kun azizlari cherkovi" deb nomlangan. Uning tarafdorlari esa shundan so'ng "Mormonlar" deyila boshlangan.

Mormonlar e'tiqodiga ko'ra, amerikaliklar isroil qabilalaridan kelib chiqqan va qizil oq tanlilardan tashkil topgan. Iso tirilganidan keyin oq tanlilar orasida faoliyat olib borgan, lekin uning cherkovi qizil tanlilar tomonidan vayron qilingan. Oxirgi oqtanlilar XV asrda yashagan Mormon bilan uning o'g'li Moronidir. Lavhlarni ana o'shalar ko'mgan va ularni Smit topib olgan.

Smit 1831 yilda yangi Quddusning Kirtlandda (Ogayo shatati, AQSh) qurilishiga doir vahiy olganini aytgan. Tarafdorlar sonini orttirish maqsadida mormonlar faol ravishda missionerlik bilan shug'ullanganlar.

Siquvga olingan Mormonlar, Kirtlandni tashlab Missuriga; u yerda ham ayni holga duch kelgach esa Illinoisga ko'chishga majbur bo'lishadi. 1840 yilda botqoqzor o'rnida Navu shahrini qurib o'z markazlarini shu yerda tashkil etadilar.

Omadli kechgan bir-ikki yildan keyin Smit "Mormon kitobi"da aksi yozilgan bo'lishiga qaramasdan, yangi bir "vahiy"ga asoslanib, ko'pxotinlilikni targ'ib qilgan va o'zi bu ishni boshlab bergan. Uning bu fikriga jiddiy qarshiliklar bo'lgan, natijada Smit ukasi va tarafolari bilan qamoqxonaga tashlangan. Qisqa bir muddatdan keyin ular mahbuslar tomonidan o'ldirilgan.

Smitdan keyin mormonlarga Brijman Yang boshchilik qildi. U o'limi ortidan 178 ta xotin va 49 ta bolani qoldirib ketdi. Mormonlar Yutada "Buyuk tuz ko'li" qirg'og'ida, "Tuz ko'li shahri" hozirgi Solt Leyk Siti shahrini qurganlar. Ular bu yerda juda ham kuchayib ketganlar va ulkan mormon ibodatxonasini barpo etishgan.

"Iso Masihning oxirgi kun azizlari" sifatida o'zlariga baho beruvchi mormonlarning e'tiqod asoslari J.Smit tomonidan tartibga solingan. Cherkov boshlig'i "rais" deb nomlanadi.

Mormonlar Ota-Xudo, Iso Masih va Muqaddas Ruh bilan bog'liq e'tiqodni tan oladilar. Ularga ko'ra, Injil Xudoning so'zidir, uni, xato qilmaslik sharti bilan tarjima qilish mumkin. Mormon kitobi ham Xudoning so'zidir. Iso Masihning qayta tirilish joyi Amerika qit'asidir. Yangi Quddus Amerikada quriladi; shaxsan Isoning o'zi uni boshqaradi, dunyo yangilanadi va xuddi jannatdek ko'rinish oladi. Iso ming yillik saltanat quradi va unga imon keltirganlar, yordamchi bo'lgan (mormon) lar najot topadilar.

Ular cho'qintirishda suvga bo'ktirish usulini qabul qilganlar. Ulug'likda oldinga siljishni va hatto, ilohiylikkacha yuksalishni e'tirof qiladilar. E'tiqod asoslari orasida joy olgan ko'p xotinga uylanish 1895 yilda V.Vudraft tomonidan bekor qilingan. Prichayenie ya'ni "Poklanish" marosimi, sigaret va aroq harom bo'lgani sababli faqatgina non va suv bilan amalga oshiriladi.

Mormonlar missionerlik faoliyatini olib boradilar va ushbu faoliyat butun dunyoga tarqalganligini ham aytib o'tish joiz. Mormonlar nazdida har bir a'zo ikki yil missonerlik qilishi kerak. Missionerlik faoliyati bugungi kunda 4000 dan ortiq ayol va erkak mormon tomonidan olib borilmoqda. Ularning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi va ular o'z hayotlarini missionerlik uchun bag'ishlagan.

Bugungi kunda mormonlar dunyoning 160 mamlakatida faoliyat olib borib, taxminan 30 ming cherkov va 12 million izdoshlariga ega. Rasmiy xristianlik mormonlarni "adashgan oqim" sifatida e'tirof etadi.

Islom dini doirasida yuzaga kelgan oqimlar. Bahoiylik – XIX asrda Eronda bobiylar yo'nalishi zahirida vujudga kelgan diniy yo'nalish. Sherozlik Sayid Ali Muhammad (1819-1850) 1844 yilda Bob (arabcha "eshik"), ya'ni yangi davrga "eshik" nomini olib, yaqin orada "Xudo elchisi"ning namoyon bo'lishi, kishilarga yangi davrning asosiy qonunlari va nizomlarini in'om etishini targ'ib qila boshlagan.

Bobning yirik izdoshlaridan biri Mirza Husayn Ali Nuriy (1817-1892) 1863 yilda Bob bashorat etib ketgan xudoning elchisi uning o'zi ekanini e'lon qiladi va Bahoulloh, ya'ni "Allohning jilosi" nomini oladi. Ushbu yo'nalishning nomi ham Bahoullohning nomidan olingan.

Bahoulloning "Kitobi Aqdas" ("Eng muqaddas kitob") va "Kitobi Iqon" ("Mustahkam ishonch kitobi") asarlari bahoiylik ta'limotining asoslarini tashkil etadi. Yo'nalish asoschisi o'ziga islom dini e'tiqodiga ko'ra, olamlarning Yaratuvchisi bo'lgan "Allohning jilosi" nomini qabul qilgan bo'lsa-da, bahoiylar aqidasi ko'ra, bahoiylik mustaqil din, u biror bir dindan ajralib chiqqan sekta ham, mazhab ham emas, deb hisoblanadi.

Bahoiylik Hindiston, Uganda, Keniya, Eron, Misr, AQSh, Kanada kabi qator mamlakatlarda tarqalgan. Hozirgi vaqtda dunyoda bahoiylarning 9 ta ibodat uyi, 200 ga yaqin milliy hamda bir qancha mahalliy diniy majlislari mavjud. Bahoiylarning umumiy miqdori taxminan 6 million kishini tashkil etadi.

Bahoiylik ta'limotiga ko'ra:

- ☐ barcha dinlar bir ildizdan paydo bo'lgan va payg'ambarlar birodar hisoblanadi;

- ☐ Ibrohim, Muso, Iso va Muhammad payg'ambarlardan tashqari Budda, Zardusht, Krishna, Bob va Bahoulloh ham payg'ambar hisoblanadi. Bahoiylikda ular eng buyuk 9 ta payg'ambar sifatida e'tirof etiladi;

- ☐ xudo har ming yilda Yer yuziga yangi payg'ambar tushiradi;

- ☐ jannat va do'zax, oxirat, shayton va farishtalar inkor qilinadi;

- ☐ hozirgi barcha dinlar bir-birini inkor qiladi, shuning uchun ham, ularni birlashtirish va insonlar orasidagi turli farqlarni yo'qotish lozim. Bahoiylar da'vosiga ko'ra, bunday birlashtiruvchilik vazifasini bahoiylik bajarishi lozim.

- ☐ Vatan, millat degan tushunchalar ma'nisiz hisoblanadi. Zero, ularning fikricha, Yer yuzining hamma joyi Vatan hisoblanadi.

Bahoiylikda ruhoniylar yo'q. Mahalliy jamoalarni yilda bir marotaba 21 apreľ kuni yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadigan 9 kishidan iborat Mahalliy diniy majlis boshqaradi. Bahoiylar yirik jamoasi mavjud bo'lgan har bir davlatda Milliy diniy majlis saylanadi. O'z navbatida Milliy diniy majlis vakillari 9 kishidan iborat bo'lgan Umumjahon Adolat Uyi a'zolarini saylaydilar. Har besh yilda saylanadigan Umumjahon Adolat Uyi umumjahon bahoiylar jamiyatining faoliyatini boshqarib boradi.

Bahoiylikda har biri 19 kunlik 19 oydan iborat bo'lgan diniy taqvim qabul qilingan. Har 19 kunda jamoaning barcha a'zolari ibodat qilish, jamoa bilan bog'liq ishlarni muhokama qilish, o'zaro birodarlik aloqalarini mustahkamlash uchun yig'iladilar.

Kuniga uch marta Isroilning Akka shahriga qarab ibodat qilinadi. Umumiy ibodat duo o'qish, meditatsiya hamda bahoiylikning asosiy kitoblari va jahon dinlari muqaddas kitoblaridan matnlar o'qish orqali amalga oshiriladi. Har yili 2 martdan 20 martgacha bahoiylar kun chiqardan kun botgunga qadar ovqat va suvdan o'zlarini tiyib, ro'za tutadilar.

Bahoiylarning muqaddas ibodatxonasi Akka shahrida joylashgan. Xayfa shahri muqaddas shahar hisoblanib, dunyo bahoiylarining ziyoratgohi hisoblanadi. Bu yerda Bob ibodatxonasi, 1957 yilda bahoiylikning rahbarlik organi sifatida tashkil etilgan Umumjahon Adolat Uyining qarorgohi joylashgan.

Ahmadiya (Qodiyoniya). Mazkur oqim XIX asrning oxirlarida Mirzo G'ulom Ahmad Qodiyoniy tomonidan tuzilgan. Dastlab u asoschisining nomi bilan - "Mirzoiya", keyinchalik esa vujudga kelgan joyga nisbatan - "Qodiyoniya" deb nomlangan. Mirzo G'ulomning 1900 yil 4 noyabrdagi bayonotiga binoan oxir-oqibat "Ahmadiya" nomini olgan.

Mirzo G'ulom Ahmad 1840 yilda hozirgi Pokiston hududidagi Panjob viloyatining Gurdaspur mintaqasidagi Qodiyon qishlog'ida tug'ilgan. Otasining xohishiga binoan 1864 yilda Sialkot shahriga borgan va o'sha yerda bir muddat ishlagan. Shu paytda, u kundalik ishidan tashqari islom ilmlari hamda boshqa dinlar haqida va o'zi bilan yaqindan munosabatda bo'lgan missionerlardan xristianlik haqida ko'pgina ma'lumotlar olgan, hinduiylar bilan munozaralarga kirishgan.

1876 yilda G'ulom Ahmad Allohning huzuriga chiqqani va vahiy ola boshlaganini da'vo qilib chiqadi. 1880 yilda u o'z ta'limoti asoslariga bag'ishlangan "Barohini Ahmadiya" (Ahmad dalillari) nomli kitobining ilk ikki jildini nashrdan chiqarishga erishadi. Unda u islomni boshqa dinlardan himoya qilgan. Shu tufayli musulmonlar kitobdagi "ilohiy ilhomlar", karomatlar, o'z-o'zini maqtashlarga, dastlab, uncha e'tibor bermaganlar. Uchinchi va to'rtinchi jildlarda esa G'ulom Ahmad o'ziga vahiy tushayotgani va payg'ambar ekanini da'vo qilgan. Shuningdek, ingliz hukumatini maqtab, hozirgi paytga kelib "jihod" tushinchasining o'rinsiz, hukmsiz holga kelib qolganini aytgan. Boshlanishda 50 jild bo'lishi rejalashtirilgan "Barohini Ahmadiya"ning 5 jildigina nashr qilingan.

1885 yili Mirzo G'ulom Ahmad o'zini o'zi yashab turgan davr (hijriy XIV asr) "mujaddidi" ekanini, 1888 yilga kelib esa insonlardan "bay'at" olib, alohida "jamoat" tashkil qilish haqida buyruq olganini e'lon qiladi. 1891 yilda u Iso ibn Maryamning tabiiy yo'l bilan o'lganini aytib va shundan kelib chiqib o'zini musulmonlar kutayotgan "Masih" va "Mahdiy" deb da'vo qilgan. 1904 yilning noyabr oyidan boshlab esa ochiqdan-ochiqo'zini musulmonlar uchun "mahdiy", xristianlar uchun "masih" va hindular uchun "krishna" deb e'lon qilgan.

Ahmadiylarga ko'ra barcha dinlar qandaydir xaloskorni kutadilar, uning kelishiga umid bilan yashaydilar. Agar kutilayotgan qutqaruvchi, bir odamda mujassam bo'lsa, dinlararo kelishmovchilik bartaraf etilib, birdamlik, hamjihatlikka erishilgan bo'lardi.

Mirzo G'ulom Ahmad 1908 yil 26 mayda Lahorda vafot etgan. Qabri Qodiyonga olib ketilgan va tarafdorlari uchun ziyoratgohga aylangan.

Mirzo G'ulom Ahmadning o'limidan keyin shogirdlari uning fikrlarini yig'ishda davom etdilar va natijada "Sinkretik Qodiyoniya-Ahmadiya harakati" yuzaga kelgan. Keyinchalik oqim "Qodiyon ahmadiylari" va "Lahor ahmadiylari" nomli ikki jamoaga bo'linib ketdi.

Dastlab, payg'ambarlikning Muhammad (s.a.v) bilan tugagani va qiyomatgacha undan boshqa payg'ambar kelmasligini tan olishini ta'kidlagan Mirzo G'ulom, 1901 yildagi "Juma xutbasi"da uning izdoshi bo'lgan Mavlaviy Abdulkarim Mirzo G'ulom Ahmadga nisbatan "nabiy" va "rasul" sifatlarining ishlatish mumkin deb e'lon qilgan.

Avvalroq, "Muhaddas" (xitob qilinib, gaplashilgan) deb nomlangan Mirzo G'ulom keyinchalik muhaddaslikni bir ma'noda juz'iy nabiylik sifatida baholagan; payg'ambarlikning butunlay tugaganini, lekin juz'iy nabiylikning qolganligini ochiq va oshkora aytgan.

Hinduiylik zamirida yuzaga kelgan oqimlar. Xalqaro Krishnani anglash jamiyati Shrila Bxaktivedanta Svami Prabxupada nomi bilan tanilgan asli hindistonlik Abxay Charan De (1896-1977) tomonidan tashkil etilgan. U 1947 yilda "Veda" falsafasi bilimdoni sifatida "Bxaktivedanta" (sanskrit. "sodiqlik", "fidokorona xizmat") unvoniga sazovor bo'ladi. Sanskrit tilidan ingliz tiliga ko'pgina "Veda" matnlari, jumladan, "Bxagavadgita" ("Xudo qo'shiqlari")ni sharhlar bilan tarjima qildi. 1959 yilda 63 yoshida dunyodan voz kechishga ahd qiladi va Svami ("Aql va hissiyotlar egasi") unvoniga erishadi.

1965 yilda A.Ch.Bxaktivedanta Svami AQShga ko'chib o'tdi va "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"ga asos soldi. Bu davrda Sharq mistik ta'limotiga nisbatan katta qiziqish Krishnani anglash falsafasini targ'ib qilish uchun qulay shart-sharoit yaratdi va harakat tez rivoj topdi. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida ularning 150 dan ortiq ibodatxonalari mavjud.

Krishnachilik (vayshnavizm) odam qiyofasidagi xudo Krishna (Vishnu)ga e'tiqod qilishga asoslangan hinduiylikning ikki asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Krishnachilikning muqaddas yozuvlariga "Bxagavatgita"dan tashqari boshqa "Veda" matnlari ham kiradi.

Krishnachilik yakkaxudolikka, ya'ni yagona va mutloq xudo – Krishnani tan olishga asoslanadi. U abadiy, yaratilmagan va cheksiz shakllarga kirish qobiliyatiga ega. Krishnachilik ta'limotiga ko'ra, olam ruhiy va moddiy dunyoga

bo'linadi. Insonning ruhi tanasiga nisbatan birlamchidir. Krishnachilar ruhni rivojlantirib ichki komillikka erishish va shu yo'l bilan xudoga qo'shilishni oliy maqsad, deb biladilar.

Har bir inson o'zida Krishnani anglash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Buning uchun bir qancha harakat shakllarini o'z ichiga olgan va xudoga muhabbatni rivojlantirish hamda uni butunlay ruhiy anglashga sho'ng'ishga qaratilgan bxakta-yoga mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Ayni paytda, inson o'zini moddiy ehtiyojlardan xoli qilishi, go'sht, baliq, tuxum, mast qiluvchi narsalarning barchasi, jumladan, spirtli ichimliklar, tamaki, qahva, choy iste'mol qilish, nikohsiz jinsiy hayot kechirish va qimor o'yinlardan voz kechishi zarur, deb hisoblanadi.

Krishnachilikda meditatsiya deb ataluvchi, ibodatxonada o'tkaziladigan diniy marosimlar har kuni soatlab bajariladi. U maxsus harakatlar, Sankirtana – birgalikda xudo Krishnani "Xare Krishna, Xare Krishna, Krishna Xare, Xare, Xare Rama, Xare Rama, Rama, Rama, Xare, Xare" degan, maxamantra ("ozod bo'lishning buyuk qo'shig'i")ni kuylash bilan sharaflash amaliyotini qamrab oladi. Bularning hammasi, ularning ta'biricha, aqlni tozalash, fikrni tashqi dunyodan xalos etish, butun diqqat-e'tiborni xudoga nisbatan muhabbatga yo'naltirish uchun bajariladi.

"Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"da o'z ergashuvchilarining mol-mulkларini jamiyat hisobiga xayr-ehson qilishlari hamda ibodatxonada ruhoniyluk vazifasiga o'tishlari rag'batlantiriladi. Bu ta'limotni qabul qilgan har bir kishiga yangi - sanskritcha nom beriladi. Jamoa a'zolari sari, dxoti va boshqa hind milliy liboslarini kiyadilar.

Krishnachilar tomonidan missionerlik faoliyati o'tgan asrning 70-yillarida boshlangan. Ular tomonidan amalga oshiriladigan targ'ibotchilik harakatining o'ziga xos xususiyatlari qatorida ko'chalarda ibodat kiyimlarida yurib qo'shiqlar aytish va adabiyotlarini tarqatish, "Hayot uchun ozuqa" deb nomlanadigan, bepul oziq-ovqat tarqatish aktsiyalari o'tkazilishini ko'rsatish mumkin. Bunday harakatlarning asosiy ob'ektlari sifatida odatda talabalar, maktab o'quvchilari, qariyalar va mehribonlik uylarida istiqomat qiluvchilar tanlab olinadi.

Kibermakon komp'yuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uil'yam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome») nomli hikoyasida yozadi.

Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «Neuromancer» («Asabli manzaralar tasvirlovchisi», «Nervo-sochinitel») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo'llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab

odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Bu yerda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida sub'ektiv psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi «superkorporatsiya» texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» asarida quyidagicha ta'kidlangan: «Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur».

«Kibermakon»da din niqobidagi «kiberhujum»lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to'ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Jumladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan IShID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o'tish mumkin. Ularda IShID go'yo Islom yo'lida «qurbon» bo'layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan.

Terrorchilarning targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. «Odnoklassniki», «Facebook», «Instagram», «Twitter», «VKontakte» ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Islom dinini noto'g'ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo'lga kiritish hisoblanadi.

Insonlararo o'zaro munosabatlardagi xar qanday ziddiyat – bu, axborotlar ziddiyatidir. Axborot har qanday qaror qabul qilish uchun eng muhim unsur bo'lib,

u nafaqat, to'qnashuv paytida optimal xatti-harakatlarni amalga oshirish, balki, maqsadga yo'nalgan faoliyatni boshqarish imkonini beradi. Tizim mavjudligi va barbod bo'lishini belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi.

Qadim davrlardan buyon axborotni o'zaro urush va nizolar jarayonida hujum uyushtirish yoki himoyalash resursi sifatida talqin etishga urinishlar bo'lib keladi. Biroq hozirga kelib ilmiy doirada «axborot urushi» kategoriya sifatida rasmiylashtirildi. bunday urushlarning mohiyatini anglashga doir metodologik yondashlar, nazariyalar shakllandi. «Bunday sharoitda, – deb yozadi N.A.Kostin, – axborot dunyo sahnidagi tarixiy raqobat kechadigan sohaga aylanib, «axborot urushi» deb nomlanayotgan faol kurash shakli paydo bo'lmokda».

Bugungi kunda axborot urushlari haqida ko'p yozilmokda. Bu tushunchaning paydo bo'lish tarixi, ilk marotaba ko'llanilishi haqida turli, ba'zida bir-biriga zid fikr-mulohazalar mavjud. Ularga alohida ravishda to'xtalmagan holda, bu boradagi ayrim nuqtai nazarlarga e'tiborni qaratish joiz. Manbalarda ta'kidlanishicha, «axborot urushi» atamasi ilk bor 1976 y. «Boeing» kompaniyasi uchun tayyorlangan «Qurol tizimi va axborot urushi» deb nomlangan hisobotda Tomas Rona tomonidan ishlatilgan. Hujjatda mutaxassis axborot infratuzilmasi AQSh iqtisodiyotining muhim komponentiga aylanib borayotgan axborot sohasi ham urush, ham tinchlik holatlarida nozik, zaif tarmoq bo'lib qolayotganini ta'kidlagan.

T.Rona tomonidan ilgari surilgan ushbu g'oya harbiylar ommaviy axborot vositalari xodimlarida katta qiziqish uyg'otdi, bu borada ilmiy tahlillar, intervyular, chiqishlar avj oldi. 1980 yillarga kelib esa jamoatchilikda axborotning maqsad hamda qurol, vosita sifatida namoyon bo'lishi haqida yagona xulosa shakllandi.

«Sovuq urushi»ning nihoyasi va AQSh oldida yangi vazifalar paydo bo'lishi bilan «axborot urushi» atamasi mudofaa vazirligi hujjatlariga kiritildi. 1991 yil «Sahrodagi bo'ron» operatsiyasi mobaynida axborot texnologiyalari ilk marotaba harbiy harakatlarning vositasi sifatida ishlatildi.

1996 yil Pentagon eksperti Robert Banker AQSh mudofaa kuchlarining XXI asr uchun yangi harbiy doktrinasiga bag'ishlangan ma'ruza qiladi. Unda mutaxassis harbiy harakatlar teatrini an'anaviy harbiy makon hamda kibermakondan iborat ikki muhim asoslarda tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Boshqacha aytganda, R.Banker raqib harbiy kuchlarini bostirish, neytrallashtirishga qaratilgan an'anaviy harbiy konitseptsiyalarning tabiiy to'ldiruvchisi sifatida xizmat qilishi zarur bo'lgan «kibermahorat» doktrinasini taklif etadi. Shu tariqa, quruqlik, dengiz, havo yo'llaridan tashqari harbiy harakatlar tizimiga «infomakon» – axborot makoni ham qo'shiladi. Bunday yangi shakl va mazmundagi urushlarda raqib tomonning axborot infratuzilmasi va ruhiyati asosiy ob'ekt (nishon) bo'ladi.

1998 yil oktyabrda AQSh mudofaa vazirligi «Axborot operatsiyalarining birlashgan doktrinasini amalga oshirishga kirishdi. Aslida, ushbu doktrina avval «Axborot urushining birlashgan doktrinasini» deb nomlangan edi. Keyinchalik uning nomi o'zgartirildi. Bunga sabab esa, «axborot operatsiyalari» va «axborot urushi» tushunchalarining o'zaro munosabatiga oydinlik kiritish edi. Shu tariqa axborot operatsiyasi – o'z axborot tizimlarini himoya qilish jarayonida raqib tomonning axborotni to'plash, qayta ishlash, uzatish va saqlash borasidagi ishlarini murakkablashtirish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakat; axborot urushi esa, qarama-qarshi tomonning siyosiy va xarbiy boshqaruv tizimi hamda rahbariyatiga qaratilgan kompleks ta'sirlar, axborot operatsiyalari majmui, deb ta'riflandi. Bunday ta'sirlar orqali tinchlik va urush holatlarida raqib tomon rahbariyatini informatsion ta'sir o'tkazayotgan tomonga maqbul qarorlar qabul qilishiga erishish maqsadi ko'zlanadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha axborot urushi milliy harbiy strategiyani ta'minlashda axborot borasida ustunlikka erishish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni ifoda etadi. Bunda raqib tomon axborot tizimlariga ta'sir o'tkazish bilan bir vaqtda o'z axborot infratuzilmasi mustahkamlab boriladi.

Axborot sohasidagi ustunlik muayyan holat haqida axborotni uzluksiz to'plash, qayta ishlash va tarqatish qobiliyatini anglatadi. Bunday qobiliyat, o'ziga xoslik esa, raqib tomonga xuddi shunday xatti-harakatlarni amalga oshirishda to'sqinliklar qilish, qarshiliklar ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, axborot sohasidagi ustunlik harbiy holat haqida real tasavvurga, raqib xatti-harakatlarining aniq va interfaol manzarasiga ega bo'lish imkonini beradi.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunga kelib, axborot sohasi ko'plab davlatlar siyosatining ystuvop yo'nalishiga aylangan. Bu borada davlatlar tomonidan axborot agressiyasidan himoya tizimi, ommaviy madaniyat ekspansiyaga qarshi chora-tadbirlar bilan bog'liq keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ham axborot resurslaridan foydalanish, axborot almashinuvi va umuman, axborotlashtirishga doir qonun xujjatlari majmui shakllantirildi. Jumladan, «Axborotlashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida "Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan» – degan qoida o'z aksini topgan.

Hozirda mazkur yo'nalishdagi konunchilik amaliyoti boshqa davlatlar siyosatida ham keng o'rin egallagan. Zero, axborot xurujlari avj olib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega» bo'lgan bugungi kunda

axborot sohasi bilan bog'liq jarayonlarga alohida e'tiborni qaratish – inson, jamiyat va davlat ma'naviy-madaniy xavfsizligi va barqarorligining muhim shartidir.

Yoshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarning bosh ob'ektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali yetarli tajribaga ega bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo'lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharaflilik ishg'a qo'l urgan bo'lasan, kerak bo'lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!», – degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. «Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiati qanday bo'lishini aytib beraman», - deb yozgan edi siyosiy arboblardan biri. Shu nuqtai nazardan qaraganda, diniy ekstremistik oqimlar ham jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni ko'zlab ish yuritmoqda deyish mumkin.

Ayniqsa, g'oyalar kurashi avj olgan bugungi kunimizda yoshlar ma'naviyatiga tajovuz solayotgan tahdidlar qatorida, dinni niqob qilib, diniy qadriyatlarimizni oyoqosti qilishga urinayotgan ekstremistik va missionerlik harakatlarining faoliyati jiddiy tashvish uyg'otmoqda. Shuning bilan birga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga urinish ba'zan mudhish holatlarning yuz berishiga olib kelmoqda.

Davlatimiz kelajagi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga yurtimizda doimo alohida e'tibor bilan qaratilgan. Mamlakatimizda sog'lom va ma'naviy boy, intellektual rivojlangan, axloqan yetuk, jismonan baquvvat avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazish maqsadida 2000 yilni «Sog'lom avlod yili», 2001 yilni «Onalar va bolalar yili», 2008 yilni «Yoshlar yili», 2010 yilni «Barkamol avlod yili», 2014 yilni «Sog'lom bola yili» va 2016 yilni «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilingani ham buning yana bir yorqin hayotiy-amaliy ifodasi bo'ldi. Bu borada yurtimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «... farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi».

Zero, jismoniy tarbiya bolani jismonan baquvvat, kuchli, sog'lom etib tarbiyalasa, ma'naviy tarbiya orqali unda yuksak axloq, ezgulik, insonparvarlik, shijoat, rahmdillik va mehnatsevarlik sifatlari shakllanadi. Ma'naviy tarbiya farzandning o'zligini saqlashga, uning botiniy olamini ma'rifiy boyitishga xizmat qiladi. Buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy aytganidek, «Inson tabiatning eng oliy zoti, kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi. Insonga katta sharaf ko'rsatilgan – unga aql-zakovat va kuch berilgan. Shu sababdan, insonning ma'naviy olami uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma'rifatli bo'lmog'i darkor». Demak, farzand tarbiyasi avvalo, uning ma'naviy poydevori qanchalik mustahkamligi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, go'zal xulq ila tarbiyalangan bola hayotda aql-idrok bilan ish tutadi, imon-e'tiqodida sobit turadi, erkin va mustaqil fikrlaydi, har xil aldovlarga uchmaydi hamda g'arazli tashviqotlarga berilmaydi.

Ayni paytda, bir haqiqatni alohida qayd etish lozim. Ota-bobolarimiz dini bo'lmish islom har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishiga chorlagan, og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz uchun ham imon, ham axloq, ham ma'rifat bo'lib kelgan. Hozirda ham bu ma'rifat odamlarga ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat bag'ishlab, o'zaro mehr-oqibatlilik tuyg'ularining kamol topishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash nafaqat bir davlat yoki mintaq, balki jahon hamjamiyati uchun eng dolzarb masalaga aylandi. Shu jumladan, bizning yurtimizda ham begunoh kishilarning qoni to'kilishi, obod joylar vayron bo'lishi, aholi o'rtasida vahima, parokandalik kelib chiqishining oldini olish maqsadida bu kabi ishlarni amalga oshirmoqchi bo'lganlarga qarshi qat'iy kurash olib borilmoqda.

Hozirgi kunga kelib mintaqada, xususan, O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohaning rivojlanishi diniy mutaassiblik xavfining oldini olishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Ammo g'arazli kuchlar ham o'z maqsadlariga erishish yo'lida yangi-yangi uslublarni, hiyla-nayranglarni o'ylab topishlari ham tabiiy. Bu kabi salbiy holatlarning paydo bo'lishi va rivoj topishiga yo'l qo'ymaslik esa doimiy xushyorlikni talab etadi.

Ming afsuski, diniy savodi past bo'lgan ayrim kishilar o'zlarini islom dinining jonkuyarlari qilib ko'rsatuvchi, aslida esa, hokimiyatni egallashni maqsad qilib qo'ygan turli oqim vakillarining quruq va'dalariga aldanib qolmoqdalar, hatto, o'zlarini qurbon qilishgacha yetib bormoqdalar. Johillik ham mutaassib oqimlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishiga zamin yaratadigan omillardan biriga aylandi. Mamlakatimiz hududiga yashirin tarzda olib kirilayotgan ekstremistik ruhdagi adabiyotlar, internet tarmoqlarida tarqatilayotgan

materiallardan ta'sirlanayotgan va to'g'ri yo'ldan adashayotganlarning borligi ham buni tasdiqlaydi. O'zini portlatish orqali begunoh kishilarning halok bo'lishiga, qanchadan-qancha bolalarning yetimga aylanishiga sabab bo'ladigan jafakorlik ham jaholatning o'ziga xos ko'rinishidir. Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o'ylangan strategiyaning bir qismidir. Bunday kuchlar yoshlarimiz ongi va qalbini zabt etish maqsadida har qanday qabih yo'llardan foydalanishga urinmoqda.

Yuqoridagi mulohaza va dalillar, diniy ekstremizm va mutaassiblikning asl qiyofasini ochib berib, mazkur harakatlarning nafaqat dunyoviy qonun-qoidalar, balki islom dini asoslariga ham zid ekanini ko'rsatadi. Shunday ekan, bunday oqimlarga qarshi murosasiz kurash, terrorchilik harakatlarini amalga oshirayotgan mutaassib kuchlarning islom diniga mutlaqo yot, begona ekanini har tomonlama asoslash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda farzandlarimiz dunyoning eng o'tkir, faol, uddaburon, Vatanparvar yoshlariga aylanishi, ularni fidoiylilik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga ham bog'liq. Bu borada, albatta, ota-onaga yordam berishda butun jamoatchilik – mahalla faollari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, profilaktika noziri, Xotin-qizlar qo'mitasi va «Yoshlar ittifoqi» yoshlar ijtimoiy harakati kabi tashkilotlarning joylardagi mas'ullari birgalikda faol ishlashlari kerak.

Respublikamizda qaror topgan tolerantlik muhitini afkor ommaga ob'ektiv ko'rsatib berish, e'tiqod erkinligi sohasida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ'ib qilish, diniy-ekstremistik oqimlar tomonidan targ'ib qilinayotgan vayronkor g'oyalarga qarshi islom manbalariga asoslangan ilmiy raddiyalar berish, diniy mutaassiblik tamoyillarining jamiyatga tahdidi, uning zamiridagi g'arazli geosiyosiy maqsadlar, ularni amalga oshirayotgan buzg'unchi kuchlarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan ishlanmalar yaratish yoki ularni aholi orasida targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, har bir insonning o'z ishini sidqidildan amalga oshirishi, loqaydlik, beparvolikning oldini olishi, yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga hushyorlik bilan qarab, Vatan tinchligi yo'lida sergak va ogoh bo'lib yashashi, yoshlarimizning ongu qalbini jaholatdan, yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ajdodlarimizga armon bo'lib qolgan, biz erishgan mustaqillik va tinchlik-osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashning muhim omili hisoblanadi. Buni hech qachon unutmasligimiz, tinchlik uchun doimo o'zimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etib yashashimiz lozim.

Internet fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolyutsiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul.

Ayniqsa, yoshlar hayotida global tarmoqning o'rni tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan.

Yurtimizda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. So'nggi o'n yilda global tarmoqdan foydalanuvchilar o'n barobarga oshgan. Tarmoq orqali axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining tobora ortib borishini ta'minlamoqda. Mamlakatimizda 2007 yilda internetdan foydalanuvchilar soni (mobil internet foydalanuvchilari bilan qo'shib hisoblaganda) bir millionni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yil yakunida bu ko'rsatkich o'n ikki milliondan oshdi.

Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji yoshlarga g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'laminin keskin darajada o'sishiga olib keldi.

Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi, internet tarmog'i ham shunday xususiyatlarga ega ekanini unutmaslik zarur. Albatta, global tarmoq – ulkan resurs. Biroq, bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma'lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog'ida ma'naviy-axloqiy tubanlikni targ'ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etgan.

Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kishilarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyotkorlik, ogohlik va ziyraklik bilan munosabatda bo'lishlarini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kishilarimizda, ayniqsa, yoshlarimizda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Aynan shu taraqqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qalblarni zabt etishda diniy omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o'z g'oyalarini targ'ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo'llamoqda.

Bunda diniy-ekstremistik oqimlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet orqali turli tillarda targ'ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Masalan, bugungi kunda bir necha yirik terrorchi tashkilotlar o'z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan 17-35 yosh oraliq'ida bo'lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a'zolarining sahifalari, qo'yilayotgan

rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat mavzularini puxta o'rganadi va shu asosda «nishon»ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, Telegram, Twitter, WhatsApp kabi keng auditoriyaga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik) jo'natiladi va o'zaro aloqa yo'lga qo'yiladi.

Yoshlar orasida mutaassiblikka yo'g'irilgan bunday forumlarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli ko'rinishdagi buzg'unchi «fatvo»larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Chunki dunyo aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar katta kuch hisoblanadi. Ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nimani singdirilsa, o'sha toshga o'yilgan naqshdek muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarni tuzog'iga ilintirishga harakat qiladi. Ulardagi ishonuvchanlik, kuch-g'ayrat, qiziqqonlik ularning maqsadini amalga oshirishda qo'l keladi.

Ming afsuski, bunday manfur kuchlar asosan ilm va ma'rifatdan yiroq, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmagan kishilarni, asosan yoshlarni jalb etishga intilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali «jihod», «takfir», «shahidlik», «hijrat» tushunchalarini noto'g'ri talqin etgan holda o'z Vatanlarini tark etishga urinmoqda. Shuningdek, ayrim kimsalar tomonidan maqsadli ravishda islom mohiyatiga zid bo'lgan turli xil asossiz axborotlar, manbasi aniq bo'lmagan diniy tushunchadagi xabarlar yoki kishilarni vahimaga soluvchi foto va videolavhalar keng targ'ib etilmoqda. Bunda ba'zi yoshlarning axborot vositalari orqali tarqatilayotgan milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabarlar, aniq manbasi ko'rsatilmagan, asossiz axborot va ma'lumotlarga ishonib qolishayotgani, mulohaza qilmasdan ko'r-korona qabul qilayotgani undan ham keskin oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bugun axborot iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o'zida uni iste'mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Ana shu maqsadda 2011 yildan boshlab, Toshkent islom universiteti bakalavriat va magistraturaning barcha yo'nalishlarida «Axborot iste'moli madaniyati» nomli maxsus kursning o'qitilishi joriy etildi.

Axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o'zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo'lmaganda «Bu axborotni kim uzatayapti?», «Nima uchun

uzatayapti?» va «Qanday maqsadda uzatayapti?» degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste'moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarga nisbatan o'ziga xos qalqon rolini o'taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo'lishi lozimki, ular virtual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot iste'moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

«Kimki axborotga ega bo'lsa, u, dunyoga egalik qiladi», degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, islom dini ko'rsatmalarida ham naql qilingan biror xabarga ishonishdan avval uni tekshirib, aniqlab olish talab etiladi. Jumladan, Qur'oni karimda shunday deyiladi: Ey, mo'minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat yetkazib qo'yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo'lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko'ringiz! (Hujurot, 6).

Bu haqida Qur'oni karimning yana bir oyatida insonlar uchun muhim ko'rsatma kelgan bo'lib, unda ham turli vositalar orqali olinayotgan xabar va ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishdan qaytariladi: (Ey, inson!) O'zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma! Chunki quloq, ko'z, dilning har biri to'g'risida (har bir inson) mas'ul bo'lur (javob berur) (Isro, 36). Demak, inson ko'rgan, eshitgan har bir ma'lumotiga ishonishi, unga ergashishi oqibatida Alloh oldida ham so'raladi.

Payg'ambar Muhammad (alayhis-salom)dan rivoyat qilingan bir necha hadislarda ham shunday deyiladi: «Xabarni tekshirish Allohdan, (unda) shoshqaloqlik qilish shaytondandir», deganlar. Shuningdek, Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan boshqa bir hadisda esa, Rasululloh (alayhis-salom): «Kishining yolg'onchi ekanligiga uning eshitgan har bir narsasini gapiraverishi kifoya qiladi» deganlar.

Demak, har bir olingan ma'lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o'sha ma'lumotga qarab ish tutish islom mohiyatiga ko'ra, shayton yo'lga kirish hamda yolg'onchi bo'lib qolish bilan barobar bo'ladi.

Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g'arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo'yiladi.

Shunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

Mavzuga oid savollar

1. Missionerlik va prozelitizm so'zlarining mazmun-mohiyati nimada?
2. Missionerlik tashkilotlari asosan qanday maqsadlarni ko'zlaydi?
3. Zamonaviy sektalar tomonidan missionerlik faoliyatini olib borishda qanday uslublardan foydalanilmoqda?
4. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblik tushunchalarining mazmuni nima?
5. Terrorizmning mohiyati va uning xalqaro miqyos kasb etishining sabablari nimada?
6. Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish deganda nimani tushunasiz?
7. Sekta" so'zining mohiyati nimada?
8. Noan'anaviy diniy tashkilotlarning qanday xususiyatlarini mavjud?
9. Yangi diniy harakatlarning yuzaga kelishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
10. Iegovo shohidlari qanday tashkilot?
11. Mormonlarning boshqa xristian yo'nalishlaridan asosiy farqi nimada?
12. Bahoiylarning qiblasini qaysi shahar hisoblanadi?
13. Krishnani anglash jamiyatiga qachon va kim tomondan asos solingan?
14. Kibermakon tushunchasining mazmun-mohiyati haqida ma'lumot bering.
15. Din niqobi ostidagi mafkuraviy tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo'lmoqda?
16. Nima uchun internet olamidagi buzg'unchilar asosan yoshlarni o'z to'rlariga ilintirmoqda?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

Adabiyotlar:

1. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma / Muratov D., Alimova M., Karimov J., Najmiddinov J., Juraev Sh. -Toshkent, 2019.
2. Dinshunoslik asoslari.O'quv qo'llanma / A.Ochildiev va boshqalar.-Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
3. Dunyo dinlari tarixi / tuzuvchilar: S.Agzamxodjaev, D.Rahimjonov, N.Muhamedov va b. – T.: ToshDShI, 2011.
4. Len Woods. Handbook of World Religions. Barbour Publishing, Ohio. 2008.
5. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of Religion. Routledge, USA, 2009.
6. Saidjalolov S. Dinlardagi oqimlar va sektalar. O'quv qo'llanma. -Toshkent: Complex Print, 2019.
8. Nizomiddinov N. Sharqiy Osiyo diniy - falsafiy ta'limotlari va Islom / Nizomiddinov N.G', Hasanov A. – T.: O'zR FA davlat Adabiyot muzeyi, 2006.
9. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar.-Toshkent: "Sharq", 2014.
10. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya: yordamchi o'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir A.Hasanov.-Toshkent: "Movarounnahr", 2016.
11. Religiovedeniya. Uchebnoe posobie.4-izd., ispr. idop. Научный редактор д.ф.н.проф. А.В.Солдатов. –Spb.:Izd-vo "Лань", 2003.
12. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – T.: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014.
13. Ochildiev A., Najmiddinov J.Missionerlik: mohiyat,maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga – yuz javob) -Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017.
14. Nizomiddinov N. Sharqiy Osiyo diniy - falsafiy ta'limotlari va Islom / Nizomiddinov N.G', Hasanov A. – T.: O'zR FA davlat Adabiyot muzeyi, 2006.
15. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya: yordamchi o'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir A.Hasanov.-Toshkent: "Movarounnahr", 2016.

Internet saytlari

1. <http://www.religion.uz>
2. <http://www.tiu.uz>.
3. <http://www.muslim.uz>
4. <http://www.ziyo.uz>
5. <http://www.hidoyat.uz>
6. <http://www.lex.uz>

